O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI

XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari va 2026-yil 10-apreldagi №384- son qarori bilan kimyo fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2026-9/1
Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi

Xiva-2026

Bosh muharrir:
Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hay‘ati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.	*Najmeddinov Axmad Raxmatovich, PhD, dots.*
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.	*Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna, f.f.f.d., dots.*
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.	*Normuratov Oybek Ulug‘berdiyevich, q.-x.f.d., dots.*
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.	*Omonov Mamatqobil Ismoilovich, b.f.d., dots.*
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.	*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.	*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dots.*
Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots,	*Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dots.*
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dots.	*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.	*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.	*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dots.*
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.	*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.	*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.	*Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD, dots.*
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.	*Salayev San’atbek Komilovich, i.f.d., prof.*
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.	*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.d., prof.	*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.	*Safarov Alisher Karimdjanovich, b.f.d., dots.*
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dots.	*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.	*Sobitov O‘lmasboy Tojaxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.	*Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.*
Kushmanov Jasur Baxodirovich, f.f.f.d., dots.	*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.*
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.	*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.	*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc	*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dots.*
Karimov Ravshanbek Allayarovich, q.-x.f.f.d., k.i.x.	*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.	*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dots.*
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dots.	*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.	*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.	*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.	*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.	*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.	*Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.*
Masharipova Feruza Jumanazarovna, f.f.f.d.	*Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD*
Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.	*Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dots.*

Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal – №9/1 (142), Xorazm Ma’mun akademiyasi, 2026-y. – 335 b. –Bosma nashrning elektron varianti – https://www.mamun.uz/bulletin

ISSN 2091-573X
Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma’mun akademiyasi

© Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi, 2026

MUNDARIJA

BIOLOGIYA FANLARI

Abdukarimova Sh.H. Xorazm viloyatining iqlim sharoitida uzum (Vitis vinifera L.) yetishtirishga ta’sir ko‘rsatuvchi biotik omillar: uzumzor entomofaunasi misolida 6

Abdullaev S.A., Ubaydullaeva X.A., Abdullaev A.N., Eshmurzaev J.B., Babadjanova F.I., Yusupov H.N., Buriev Z.T. Gibberellin (GA_3) kislotasining tok morfologiyasi va embrional rivojlanishiga ta’siri 9

Abdullayev O‘.R. Xorazm viloyati haqiqiy arilarining (Vespidae) zoogeografik viloyatlarda tarqalishi va tahlili 14

Aliyev D.D., Turopova N.Z. Qonning morfologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlari bilan aminokislotalarning o‘zaro bog‘liqlik dinamikasi 17

Azimova I. Alternaria alternata aeroallergeni: aerobiologik dinamikasi, allergen tarkibi va nafas yo‘llari epiteliysi bilan o‘zaro ta’siri 21

Azimova N.Sh., Khalilov I.M., Turayeva B.I., Xaytbayeva N.S. G‘o‘zadan ajratilgan Fusarium va Alternaria izolyatlarining fitotoksik faolligini baholash 27

Begmatov A.M., Ro’ziyeva S.A. Stevia rebaudiana Bertoni o‘simligining bioekologik xususiyatlari 33

Eshnazarov K., Donayeva O.R. Surxondaryo viloyati g’allazorlarida uchraydigan so’ruvchi qandalalar va ularning zarari 37

Ilyasov A.S., Djumanova N.E., Toshmamatov B.N. Metabolic syndrome and morpho-physiological changes in the liver of rats under various stress conditions, and the role of phytocorrection and physical exercise in their prevention 40

Iskandarova N.E., Xurramov A.Sh. Distribution and morphological analysis of nematodes in pumpkin agrobiocenoses in the surkhandarya region 44

Hojibobyeva S.H., Muxamedov R.S., Islomov A.X. O‘zbekistonning turli hududlaridan yig‘ilgan Rubia tinctorum L. populyatsiyalarining morfofiziologik va biokimyoviy xususiyatlari 48

Jo‘rayeva D.R., Pirmatova J.B. Fungal apple diseases in Uzbekistan: distribution, current management practices, and sustainability challenges 51

Kushakov Sh.O., Normamatov I.S., Makamov A.X., Xusenov N.N., Norbekov J.K., Boyqobilov U.A., Mamanazarov Sh.I., Xolmurodova M.M., Muhammadaliyev R.I., Maxmarajabov E.J. Laboratoriya sharoitida turli xil NaCl konsentratsiyalari ta’sirida mahalliy g‘o‘za navlarini fenotipik baholash 61

Mamadiyarova D.U., Azimova S.B. O'zbek популяциясида SOD2 (RS4880), CAT (RS1001179), GPX4(RS713041) genlarning polimorf variantlarining allel chastotalari va genotip taqsimoti 66

Mamasoliyev S.T., Jaloldinov M.N. Namangan viloyati atmosfera havosida PM10 konsentratsiyasining 2025–2026 yillar qish mavsumidagi o’zgarish dinamikasi 70

Mamatqulova G.F., Rahimova N.M., Ernazarova D.K., Kushanov F.N. Malina (Rubus idaeus) seleksiyasida zamonaviy molekulyar markerlarning ahamiyati 75

Mutalova M.K. Kannabis (Cannabis sativa L.) o‘simligining gul tuzilishi va chang donachalari morfologiyasi 79

Norboyeva U.T., Rahimova G.Yo. Cheklangan namlik sharoitida kungaboqar navlari barglarida pigmentlar miqdori 83

Normamatov I.S., Makamov A.X., Xusenov N.N., Norbekov J.K., Boyqobilov U.A., Mamanazarov Sh.I., Xolmurodova M.M., Muhammadaliyev R.I., Maxmarajabov E.J. Laboratoriya sharoitida turfa xil NaCl konsentratsiyalari ta’sirida mahalliy g‘o‘za navlarini unuvchanlik dinamikasi 87

Norqobilova Z.B., Normamatova J.L. Qashqdaryo viloyati Mirishkor tumani hududida tarqalgan odonata turkumi vakillarining tur tarkibi 91

O’razova F.U., Axmedova Z.Yu. O‘zbekistonda Gelechiidae oilasi kuyalarining o‘rganilganlik darajasi va tarqalishi 93

Quronbayeva D.D., Saitova N.S. Shaxs identifikatsiyasida mitoxondrial va yadroviy DNKning qiyosiy tahlili 97

Raxmanov B.K., Buriev Z.T., Shermatov Sh.E., Ubaydullayeva X.A., Abdurahmonov I.Y. A. annua cADS genining geterologik overekspressiyasi orqali ilk bor artemizinin sintezlovchi g‘o‘za (Gossypium hirsutum L.) genotiplarini olish 101

Raxmonov A.X., Tungushova D.A., Myachina O.V., Djabborov Sh.R. Bentonit bilan modifikatsiyalangan o‘g‘itlar tuproqning agrokimyoviy xossalariga, g‘o‘zaning o‘sib-rivojlanishi va hosildorlik dinamikasiga ta’siri 107
Saydaliyeva Z.R. A-51, A-52 va A-54 polifenol birikmalarining aorta silliq muskuliga vazorelaksant hamda antigipertenziv ta’sirining tavsifi 110
Sherbekova N.A., Kadirova Z.A., Karimov H.X. Metan va metanol o‘zlashtiruvchi mikroorganizmlar dunyosi: ekologik muvozanatdan yashil biotexnologiyagacha 113
Sohibnazarova Kh.A., Abdunabiev A.M., Umarova Sh.M., Abduvohidova Y.O., Urmonalieva Sh.U., Safarov A.K., To’rayeva S.A. Antimicrobial activity of antimicrobial proteins against gynecological pathogens 118
Suyunova G.A., Davronov Q.D., Turayeva B.I. O‘zbekistonning Xo‘jaikon va Xo‘jaipok ekstremal ko‘llarining gidrokimyoviy xususiyatlari asosida mikrobiom tarkibini tahlil qilish va biotexnologik salohiyatini baholash 121
Tuxtayeva X.T., Mavlonova D.J., Po`lotova S.M., Bahronova M.B., Isoqova U. Markaziy qizilqumda oqim to‘planishi va vaqtincha o‘zanlarning hududiy-gidrogeomorfologik tahlili 125
Uluqmurodova O.S., Raximov M.Sh., Omonov Sh.N. Zarafshon milliy tabiat bog‘ida tarqalgan odimchi kapalaklarning (Geometridae) taksonomik tahlili 132
Umurzakova N.M. Determination of the stages of ontogenesis of Nigella sativa L. in highly saline soil conditions 138
Usmanova N.M., Xamrayeva D.T., Aripov T.F., Gayibov U.G., Gayibova S.N., Abduazimova D.Sh., Nasyrova G.B. Abelmoschus manihot (L). medik o‘simligiga in-vitro sharoitida gormonsiz ozuqa muhitining ta’sirini o‘rganish 143
Utaganov M.U., Zakiryayeva S.I., Xolmatov B.R., Mirzayeva G.S. *Anacanthotermes turkestanicus* termiti ichagidan bakterial izolatlarni ajratish va ularning sellyulolitik faolligini baholash 147
Xo’sinova J.G. G‘o‘za agrotsenozlari tuproqlarida kollembolalarning dominant turlari va populyatsion dinamikasi 153
Xolbutayeva M.M. *Phlomoides anisochila* va *Phlomoides sogdiana* urug‘larining unuvchanligi va ontogenezining boshlang‘ich bosqichlari 156
Xolova M.D., Ernazarova D.Q., Xidirov M.T., Iskandarov A.A., Erjigitov D.Sh., Arslanova S.K., Muhammadiyev O.A., Arabova M.N., Kushanov F.N. Gossypium herbaceum va G. anomalum turlari hamda ularning duragaylarida meyoz jarayonining sitogenetik tahlili 159
Xusanov A., Yaxyoyev A., Xakimova M., Matyoqubova R. Pontastacus sp. (Crustacea: Decapoda) turining morfometrik xususiyatlari va tana belgilarining o‘zaro bog‘liqligi 162
Yarmuhammedov J.M., Shuhratov Sh.R. Bioecological features, natural resources of prospective medicinal plants in the conditions of the Bukhara region and opportunities for their rational use 168
Абдураззоқова Ш.У., Паттаева М.А., Самадий С.А., Расулов Б.А. Bacillus mycoides BM2024 штамминиг Phaseolus lunatus ва Phaseolus vulgaris ловия навларини ривожланиши ҳамда фузариоз қўзғатувчиларига қарши антагонистик фаоллиги 172
Ганижонов П.Х., Ишбоева Ф. Морфофункциональные изменения желудка и печени при воздействии стрессоров у морских свинок 175
Дауылбаева К.К., Танирбергенова А.Б. Энтомофауна пустынных экосистем (Северо-западный Кызылкум) Южного Приаралья 177
Джумаева З.Ф. Адаптационный потенциал и интродукционная успешность видов рода Onobrychis Mill. в условиях Мирзачуля 185
Жураева Р.Н., Эргашев Р.Б., Матирзаева М.М. Тўпламда Bacillus thuringiensis бактерияларининг сақлаш жараёнида ўзгарувчанлиги ва барқарорлиги 189
Жўраева Ҳ.К., Мустафина Ф.У. Ungernia victoris ва Ungernia sewerzowii (Amaryllidaceae J.St.-Hil.) турларининг табиий ўсимликлари, in vitro шароитида регенерация қилинган тўқималари ҳамда каллус культураларининг антиоксидант салоҳиятини қиёсий баҳолаш 194
Илясов А.С., ДЖуманова Н.Э., Тошматов Б.Н. Турли стресс ва гиподинамия билан чақирилган метаболик синдром шароитида каламушлар жигаридаги реактив 198

ўзгаришлар, уларни қора седана мойи билан фитокоррекция қилиш ҳамда жисмоний юкламадан кейинги морфофункционал ўзгаришлар
Исмоилов Р.С. Сирдарё вилояти ҳудудида тарқалган Lactuca serriola L. табиий ресурсларининг замонавий ҳолати 204
Камбурова В.С., Рахматова Н.Р., Салахутдинов И.Б., Ражапов Ф.С., Мирзабаев Д.А., Тожибоева Д.И., Назарова Е.Ф. Ғўза ўсиши ва ривожланишига биостимуляторлар таъсирини баҳолаш: интеграл ёндашув 208
Камбурова В.С., Рахматова Н.Р., Салахутдинов И.Б., Ражапов Ф.С., Тожибоева Д.И., Мирзабаев Д.А., Назарова Е.Ф. Модел шўр стресс шароитида биостимуляторларнинг ген экспрессия даражаларига таъсирини ўрганиш 223
Кдырбаева Н.Б., Матчанов А.Т., Есимбетов А.Т.Спортчиларида ўтирган ҳолда қўлларни оёқ учига тегизиш ("sit & reach") тестида эгилувчанлик сифати таҳлили 234
Муминов А.А., Закирова Р.П., Маманазарова К.С., Курбанова Э.Р., Юлдашева Н.К. Андижон вилоятида соя ўсимлигининг ўсиши ва ривожланишига H. halodendron Pall. дан ажратиб олинган липид компонентларининг таъсири 239
Мустафаева З.А., Намозов С.М., Собиров Б.Ж., Атамуратова М.Ш. Весенний фитопланктон и ихтиофауна отдельных водоёмов Бухарской и Навоийской областей 242
Набиев У.А. Экологические характеристики и гидрохимия канала Бозсув-анхор-Ак-Тепа в городе Ташкент 249
Норова Д.Х., Ибодова М.Н., Намозов С.М. Эколого-биологические и ростовые особенности маринки из родниковой системы Нурата «Чашма» 255
Саитжанова У.Ш., Шарипова В.К., Киличев Ш.Ш., Турдиев Д.Э., Бозорова Д.У. Морфологическая изменчивость Strigosella grandiflora (Bunge) Botsch. в ценопопуляциях Центрального Кызылкума 261
Салахутдинова М.К., Хашимова З.С., Кахорова К.А., Салихов Ш.И. Лекарственные препараты и нутрицевтики с гепатопротекторной активностью: сравнительный обзор 264
Ташпулатова М.К. Сравнительная картина чувствительности штаммов E.Coli и Salmonella, выделенных от больных с острыми кишечными инфекциями и бройлерных кур в Республике Узбекистан 272
Туракулова Д.Э., Кадырова Г.Х., Шонахунов Т.Э. Влияние шестивалентного хрома на культуральные и ферментативные свойства бактерий рода Bacillus 277
Умурзакова Г.Ф., Норимова Г.К., Умурзакова З.И. Видовой состав микромицетов, встречающихся на представителях семейства Polygonaceae Juss. в Зарафшанском Национальном Природном Парке 283

KIMYO FANLARI

Atabayev F.B., Begjanova G.B., Tursunova G.R., Yaqubjonova Z.B. Mahalliy xom ashyo asosidagi gibrid mineral qo'shimchali portlandtsementning fizik-kimyoviy xususiyatlari 285
Dexkanova N.N., Nurullayeva Z.A. Tabiiy mineral asosida amaliy foydalanish uchun istiqbolli bo'lgan fojazit seolitining sintetik analogi- NaX sintezi 289
Kudiyarova A.D., Ashurov J.M., Ospanova Z.S. Misning siprofloksatsin bilan hosil qilgan kompleks birikmasining rentgen strukturaviy tahlili 294
Mardonova G.V. Structure–rheology–technology relationship in polymer composite materials: a comparative analysis of contemporary research 297
Masharipov Sh.O., Matchanov A.D. *Cistanche salsa* o'simligining kimyoviy tarkibi va biologik faolligi 300
Matmuratova Z.I., Karajanova Sh.D., Torambetov B.S. Co(II), Ni(II), Zn(II) va Cu(II)larni 2-amino-5-etiltio-1,3,4-tiadiazol va 1.10-fenantrolin bilan aralash ligandli kompleks birikmalari sintezi va tadqiqoti 309
Otaxanova Z.A., Sattarova D.M. Deatsetillash jarayoni davomiyligining xitozan molekulyar massasiga ta'sirini viskozimetrik usulda o'rganish 316
Soliyeva M.U., Rajapova S.K., Abdullayeva Z.Sh. Kimyoviy kanserogenez: onkologik kasalliklarning kelib chiqishidagi molekulyar mexanizmlar va atrof-muhit omillarining ta'siri 324
Xolmirzaev F.F., Eshkobilova M.E., Murodova Z.B., Abduraxmanov E. Gaz-bo'g' aralashmalari tarkibidan asetonni aniqlovchi yarimo'tkazgichli analizator YAO'A-AS 330

UO'K: 595.7:634.8:574.4

XORAZM VILOYATINING IQLIM SHAROITIDA UZUM (*VITIS VINIFERA* L.) YETISHTIRISHGA TA'SIR KO'RSATUVCHI BIOTIK OMILLAR: UZUMZOR ENTOMOFAUNASI MISOLIDA

Sh.H.Abdukarimova, katta o'qituvchi, Xiva Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi, Xiva

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm viloyatining iqlim sharoitida uzum (Vitis vinifera L.) yetishtirishga ta'sir etuvchi biotik omillar uzumzor entomofaunasi misolida tahlil qilindi. Uzumzor agrotsenozida fitofag hasharotlar, entomofaglar va parazitoidlarning trofik aloqalari, ularning issiq-quruq iqlim hamda sug'orish sharoitiga moslashuvi yoritildi.*

Kalit so'zlar: *Vitis vinifera, uzumzor, entomofauna, fitofag, entomofag, parazitoid, Lobesia botrana, Eupoecilia ambiguella, arid iqlim, biologik himoya, integratsiyalashgan zararkunandalar nazorati.*

Аннотация*. В статье проанализированы биотические факторы, влияющие на возделывание винограда (Vitis vinifera L.) в климатических условиях Хорезмской области, на примере энтомофауны виноградников. Рассмотрены трофические связи фитофагов, энтомофагов и паразитоидов в агроценозе виноградника, а также их адаптация к жаркому засушливому климату и условиям орошения.*

Ключевые слова: *Vitis vinifera, виноградник, энтомофауна, фитофаг, энтомофаг, паразитоид, Lobesia botrana, Eupoecilia ambiguella, аридный климат, биологическая защита, интегрированная защита растений.*

Abstract*.The article analyzes biotic factors affecting the cultivation of grapevine (Vitis vinifera L.) under the climatic conditions of the Khorezm region, using vineyard entomofauna as an example. The trophic relationships among phytophagous insects, entomophages, and parasitoids in the vineyard agrocenosis, as well as their adaptation to hot and dry climatic conditions and irrigation practices, are discussed.*

Key words: *Vitis vinifera, vineyard, entomofauna, phytophage, entomophage, parasitoid, Lobesia botrana, Eupoecilia ambiguella, arid climate, biological control, integrated pest management.*

Kirish. Uzum — *Vitis vinifera* L. — dunyo miqyosida oziq-ovqat, vinochilik, quritilgan mahsulotlar va qayta ishlash sanoati uchun muhim bo'lgan ko'p yillik mevali ekinlardan biridir. Uzumchilikning barqaror rivojlanishi navning biologik xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoiti, sug'orish rejimi, agrotexnik tadbirlar hamda biotik omillarning o'zaro ta'siriga bog'liq. Biotik omillar tarkibida fitofag hasharotlar, yirtqich va parazitoid entomofaglar, saprofaglar, changlatuvchilar hamda boshqa bo'g'imoyoqlilar muhim o'rin egallaydi. [1].

Uzumzorlar murakkab trofik tizim bo'lib, unda fitofaglar oziqa resursidan foydalanadi, entomofaglar esa fitofaglar sonini tabiiy cheklab turadi. [2].

Xorazm viloyati sharoitida uzumzor entomofaunasini tizimli o'rganish fitofag turlarni o'z vaqtida aniqlash, foydali entomofaglarni saqlash hamda kimyoviy vositalardan oqilona foydalanishga asoslangan integratsiyalashgan himoya tizimini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va usullar. Tadqiqot tahliliy-umumlashtiruvchi usulda olib borildi. Unda uzumzor entomofaunasi, asosiy zararkunandalar, tabiiy kushandalar hamda uzum kuyalarining bioekologiyasiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi [2–4].

Xorazm viloyatining quruq kontinental iqlimi, sug'oriladigan maydonlardagi mikroiqlim, uzumzorning agrotexnik holati, qator oralari, tokzor qalinligi va uzum navlari biotik omillarga ta'sir etuvchi asosiy ekologik ko'rsatkichlar sifatida baholandi [1].

Tahlilda fitofaglar, yirtqich entomofaglar, parazitoidlar hamda saprofag hasharotlarning trofik munosabatlari, bioekologik xususiyatlari va populyatsion dinamikasiga iqlim omillarining ta'siri

qiyosiy o‘rganildi. Shuningdek, uzumzorlarni himoya qilishda feromonli monitoring, agrotexnik hamda biologik usullarning samaradorligi tahlil qilindi [5–6].

Natijalar. Uzumzorning sug‘orilishi, barg qoplami, qator oralari holati va tok butalarining shakllantirilishi havo harorati hamda nisbiy namlikka ta’sir qiladi. Zich joylashgan, barg qoplami kuchli rivojlangan tokzorlarda namlik nisbatan yuqori saqlanadi. Aksincha, siyrak va yaxshi shamollatiladigan tokzorlarda harorat yuqori, namlik esa past bo‘ladi. Bu holat fitofag hasharotlarning tuxum qo‘yishi, lichinkalarning yashovchanligi va oziqlanishiga bevosita ta’sir etadi.

Uzumzor entomofaunasining asosiy ekologik guruhlari. Uzumzor agrotsenozida yashovchi hasharotlarni oziqlanish xususiyati va ekologik vazifasiga ko‘ra fitofaglar, yirtqich entomofaglar, parazitoidlar va saprofag guruhlarga ajratish mumkin.

1-jadval.

Uzumzor entomofaunasining asosiy ekologik guruhlari

Ekologik guruh	Asosiy vakillar	Uzum yetishtirishdagi ahamiyati
Fitofaglar	*Lobesia botrana*, *Eupoecilia ambiguella*, Cicadellidae vakillari, Coccoidea vakillari, Thysanoptera vakillari	Barg, to‘pgul, g‘ujum va yosh novdalarni zararlab, hosil hamda sifatni pasaytiradi
Yirtqich entomofaglar	Coccinellidae, Chrysopidae, Syrphidae lichinkalari, Anthocoridae	Shiralar, tripslar, mayda lichinkalar va boshqa yumshoq tanali fitofaglarni yo‘q qiladi
Parazitoidlar	*Trichogramma* spp., Braconidae, Ichneumonidae, Chalcidoidea vakillari	Tuxum, lichinka yoki g‘umbak bosqichidagi fitofaglar sonini kamaytiradi
Saprofag va neytral turlar	Diptera va Coleoptera ayrim vakillari	Organik qoldiqlarning parchalanishida, tuproq biotsenozining barqarorlashuvida qatnashadi

Fitofaglar orasida uzum kuyasi — *Lobesia botrana* (Denis & Schiffermüller) uzumning to‘pgullari va g‘ujumlariga zarar yetkazuvchi muhim tur hisoblanadi. Uning lichinkalari g‘ujum ichiga kirib oziqlanadi, natijada mevalar shikastlanadi va ikkilamchi zamburug‘li kasalliklar, xususan kulrang chirish rivojlanishi uchun qulay sharoit yuzaga keladi [5].

*Lobesia botrana*ning bioekologik muvaffaqiyati uning ko‘p avlodli bo‘lishi, oziqa o‘simliklariga moslashuvchanligi va harorat sharoitiga sezgirligi bilan bog‘liq. Ushbu tur issiqroq va nisbatan quruq muhitlarda faolroq rivojlanishga moyil bo‘lishi qayd etilgan. Shu sababli Xorazmning issiq va quruq yoz sharoitida mazkur turning fenologik monitoringiga alohida e’tibor qaratish lozim [3].

Uzum g‘ujum kuyasi — *Eupoecilia ambiguella* (Hübner) ham uzumchilikda iqtisodiy ahamiyatga ega fitofaglardan biridir. Ushbu tur nisbatan salqinroq va namroq sharoitlarga moyil bo‘lib, barg qoplami qalin, shamollanishi sust hamda sug‘orish natijasida namligi oshgan uzumzorlarda uchrash ehtimoli yuqoriroq bo‘lishi mumkin [3]. Shuning uchun Xorazm sharoitida bu turning populyatsiyasi umumiy hududiy iqlimdan tashqari, tokzorning mikroiqlimiga bog‘liq holda baholanishi kerak.

Uzumzor entomofaunasida barg so‘ruvchi zararkunandalar, jumladan saratonlar, shiralar, tripslar hamda qalqondorlar ham muhim o‘rin tutadi. Ular barg plastinkasidan o‘simlik shirasi bilan oziqlanib, fotosintez faolligini pasaytiradi, novdalarning o‘sishini susaytiradi va ayrim hollarda o‘simlik kasalliklari qo‘zg‘atuvchilarini tarqatishda ishtirok etishi mumkin.

Uzum navining fitofaglar soniga ta’siri. Uzum navining biologik va morfologik xususiyatlari fitofag hasharotlar bilan zararlanish darajasiga sezilarli ta’sir qiladi. G‘ujumning zichligi, po‘stining qalinligi, g‘ujumdagi namlik, shakar miqdori, to‘pgulning tuzilishi va vegetatsiya muddati ayrim fitofaglar uchun oziqaviy hamda mikroiqlimiy sharoit yaratadi.

Tadqiqotlarda *Lobesia botrana* va *Eupoecilia ambiguella* populyatsiyalarining zichligi uzum naviga bog‘liq holda farq qilishi aniqlangan. Navlar o‘rtasidagi bunday tafovut g‘ujum tuzilishi, gullash muddati, rezavorlarning pishish vaqti hamda kimyoviy tarkibidagi farqlar bilan izohlanadi [4].

Entomofaglar va biologik muvozanat. Uzumzor agrotsenozida yirtqich va parazitoid hasharotlar fitofaglar sonini tabiiy cheklab turuvchi muhim biologik omildir. Coccinellidae oilasi vakillari shiralar, qalqondorlarning ayrim rivojlanish bosqichlari va boshqa yumshoq tanali

hasharotlar bilan oziqlanadi. Chrysopidae oilasiga mansub oltinko‘zlar lichinkalari esa shiralar, tripslar, oqkanotlar va mayda lichinkalarning faol yirtqichi hisoblanadi.

Syrphidae oilasiga mansub pashshalar lichinkalari ham shira koloniyalarini cheklashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning voyaga yetgan shakllari gul nektari va changi bilan oziqlangani sababli uzumzor atrofida nektar beruvchi o‘simliklarning saqlanishi foydali hasharotlar sonini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Parazitoidlar orasida *Trichogramma* urug‘i vakillari tuxum parazitoidi sifatida muhim bo‘lib, kapalaklar tuxumlarini zararlaydi. Braconidae, Ichneumonidae va Chalcidoidea guruhlarining ayrim vakillari esa fitofag lichinkalari hamda g‘umbaklari hisobiga rivojlanadi. [2].

Iqlim sharoitining uzum kuyalariga ta’siri. Iqlim omillari uzum kuyalarining uchish muddati, tuxum qo‘yishi, lichinkalarning rivojlanishi va avlodlar soniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Harorat ko‘plab hasharotlarda fenologik jarayonlarni belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.[2].

Lobesia botrana quruqroq va issiqroq sharoitlarda faolroq bo‘lishi mumkin. *Eupoecilia ambiguella* esa nisbatan nam va salqin mikroiqlimga moyilligi bilan ajralib turadi. Demak, Xorazmning umumiy arid sharoitida *L. botrana* monitoringiga ustuvor ahamiyat berish, namligi yuqori, qalin bargli hamda sug‘orish ta’siri kuchli uzumzor uchastkalarida esa *E. ambiguella*ning uchrash ehtimolini ham nazorat qilish lozim [3].

Uzumzorlarni integratsiyalashgan himoya qilish yo‘nalishlari. Xorazm viloyati sharoitida uzumzor entomofaunasini boshqarishda integratsiyalashgan zararkunandalar nazorati tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu tizim fitofaglarni to‘liq yo‘q qilishga emas, balki ularning sonini iqtisodiy zarar yetkazmaydigan darajada ushlab turishga qaratiladi.

Birinchi navbatda, uzumzorlarning muntazam monitoringi tashkil etilishi lozim. Bunda feromonli tutqichlar yordamida uzum kuyalarining uchish muddatini aniqlash, g‘ujumlar va barglarni vizual kuzatish, zararlangan to‘pgul hamda mevalarni hisobga olish muhimdir.

Ikkinchi yo‘nalish — agrotexnik usullardan foydalanishdir.

Uchinchi yo‘nalish biologik himoya hisoblanadi. Bunda entomofaglarni saqlash, zarur hollarda *Trichogramma* kabi tuxum parazitoidlaridan foydalanish, mikrobiologik preparatlarni qo‘llash va selektiv vositalarni tanlash muhimdir[6].

To‘rtinchi yo‘nalish kimyoviy himoya bo‘lib, u faqat monitoring natijalari zararkunanda sonining ortganini ko‘rsatganda hamda iqtisodiy zarar chegarasi oshganda qo‘llanishi kerak.

Muhokama. Uzumzor entomofaunasi uzum yetishtirish samaradorligiga ikki xil yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, fitofag hasharotlar barg, to‘pgul, g‘ujum va rezavorlarni zararlab hosildorlik hamda mahsulot sifatini pasaytiradi. Ikkinchi tomondan, yirtqich va parazitoid entomofaglar fitofaglarning tabiiy boshqaruvchisi sifatida agrotsenozning biologik barqarorligini ta’minlaydi.

Xorazm viloyati sharoitida issiq va quruq yoz fasli fitofaglarning ayrim turlari uchun rivojlanish tezligini oshirishi mumkin. Ayniqsa, issiqroq va quruqroq sharoitlarni afzal ko‘ruvchi *Lobesia botrana* uzumzorlarning fitosanitar monitoringida asosiy kuzatuv obyektlaridan biri bo‘lishi lozim. Biroq tur populyatsiyasining aniq zichligi hudud, nav, sug‘orish usuli, tokzorning mikroiqlimi va entomofaglar faolligiga bog‘liq ravishda farq qiladi.

Eupoecilia ambiguella nisbatan namroq va salqinroq joylarga moyil bo‘lsa-da, uning uchrash ehtimolini to‘liq inkor etib bo‘lmaydi. Sug‘orish intensiv olib boriladigan, barg qoplami qalin, shamollanishi sust hamda namligi uzoq vaqt saqlanadigan tokzorlarda ushbu tur uchun lokal qulay sharoit shakllanishi mumkin.

Kimyoviy insektitsidlarning keng qo‘llanishi qisqa muddatda zararkunanda sonini kamaytirishi mumkin, biroq ular foydali entomofaglar sonining ham kamayishiga sabab bo‘ladi. Natijada zararkunandalarning tabiiy dushmanlari kamayib, keyingi davrlarda fitofaglar soni yana ortishi mumkin. Shuning uchun uzumzorlarni himoya qilish tizimida biologik muvozanatni saqlash, feromonli kuzatuvlar o‘tkazish va selektiv vositalardan foydalanish ustuvor yo‘nalish bo‘lishi zarur.

Xulosa.

1. Xorazm viloyatining arid kontinental iqlimi uzumzor entomofaunasining tarkibi va populyatsion dinamikasiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Issiq va quruq yoz sharoiti ayrim fitofag turlarning rivojlanishini tezlashtirishi mumkin.

2. Uzumzor agrotsenozida fitofaglar, yirtqich entomofaglar va parazitoidlar o‘zaro bog‘langan murakkab trofik tizimni hosil qiladi. Fitofaglar orasida uzum kuyasi — *Lobesia botrana* hamda uzum g‘ujum kuyasi — *Eupoecilia ambiguella* monitoring uchun muhim turlar hisoblanadi.

3. Coccinellidae, Chrysopidae, Syrphidae, Braconidae, Ichneumonidae va *Trichogramma* urug‘i vakillari uzumzor fitofaglarini biologik cheklashda muhim rol o‘ynaydi. Ularni muhofaza qilish uzumzor agrotsenozining tabiiy barqarorligini oshiradi.

4. Xorazm viloyati sharoitida uzumzorlarni himoya qilish feromonli monitoring, agrotexnik tadbirlar, biologik vositalar, entomofaglarni saqlash va faqat zarurat tug‘ilganda selektiv insektitsidlardan foydalanishga asoslangan integratsiyalashgan tizim asosida olib borilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Central Asia Climate Information Portal. *Country Climate Risk Portal: Uzbekistan*. Climate summary, temperature and precipitation characteristics. Available at: centralasiaclimateportal.org.

2. Reineke A., Thiéry D. Grapevine insect pests and their natural enemies in the age of global warming. *Journal of Pest Science*. 2016. Vol. 89. P. 313–328. DOI: 10.1007/s10340-016-0767-7.

3. Comșa M., Tomoiagă L.L., Muntean M.-D., Ivan M.M., Orian S.M., Popescu D.M., Chedea V.S. The Effects of Climate Change on the Activity of the *Lobesia botrana* and *Eupoecilia ambiguella* Moths on the Grapevine Cultivars from the Târnave Vineyard. *Sustainability*. 2022. Vol. 14, No. 21. Article 14554. DOI: 10.3390/su142114554.

4. Pavan F., Stefanelli G., Villani A., Cargnus E. Influence of Grapevine Cultivar on the Second Generations of *Lobesia botrana* and *Eupoecilia ambiguella*. *Insects*. 2018. Vol. 9, No. 1. Article 8. DOI: 10.3390/insects9010008.

5. Altimira F., Vitta N., Tapia E. Integrated Pest Management of *Lobesia botrana* with Microorganism in Vineyards: An Alternative for Clean Grapes Production. In: *Biological Control of Pest and Vector Insects*. IntechOpen, 2021. DOI: 10.5772/intechopen.99434.

6. Food and Agriculture Organization of the United Nations. Control of European grapevine moth (*Lobesia botrana*) through mating disruption (sexual disorientation). FAO Green Agriculture Platform, 2024. Available at: fao.org.

UO'K 57. 573.6:60

GIBBERELLIN (GA_3) KISLOTASINING TOK MORFOLOGIYASI VA EMBRIONAL RIVOJLANISHIGA TA'SIRI

S.A.Abdullaev, PhD Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
X.A.Ubaydullaeva, b.f.d, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
A.N.Abdullaev, kichik ilmiy xodim, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
J.B.Eshmurzaev, kichik ilmiy xodim, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
F.I.Babadjanova, PhD, katta ilmiy xodim, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
H.N.Yusupov, kichik ilmiy xodim, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent
Z.T.Buriev, b.f.d, Genomika va bioinformatika markazi, Toshkent

Аннотация. *Tok (Vitis vinifera) turining urug‘sizlik (seedlessness) belgisi eng ko'p o‘rganilgan yo‘nalishlardan hisoblanadi. Gibberellin kislota (GA_3) meva sifatini oshirishda keng qo‘llanilishi hamda. tok mevalarida mevalarida urug‘sizlikni ham yuzaga keltirishi ma'lum. Ushbu tadqiqotda GA_3 kislota qo‘llanishining urug‘siz mevalar hosil bo‘lishiga hamda uzum mevasining morfologik belgilariga ta'siri o‘rganildi. "Qora Kishmish" navida GA_3 kislota 300 mg/L miqdorda tasir ettirilganda nazoratga nisbatan meva uzunligi 26% ga, meva massasi 36% ga oshdi. Urug‘li "Rizamat" navida GA_3 kislota 100 mg/L miqdorda shingil massasi ~10% ga, meva massasi ~7% ga, hamda 300 mg/L variantda maksimal, shingil massasi 45%, meva massasi 25% kamayishni ko‘rsatdi. Tok o‘simligida 300 mg/L GA_3 kislotani qo‘llash urug‘ rivojlanishini butkul to‘xtatib, urug‘sizlikni yuzaga keltirdi. "Qora Kishmish", "Rizamat" va "Toyfi" navlarida 100 va 200 mg/L GA_3 miqdorida rudimentlarda embrion hosil bo‘lishini to‘liq to‘xtatdi. GA_3 kislota bilan ishlov berilgan mevalar embrionlari in vitro sharoitda o‘sish tezligini 11% ga kamaytirdi. Uning embrionlar unib chiqishiga ta'siri "Toyfi" navida 100–200 mg/L 9.1%–6.2% gacha, "Rizamat" navida 100–200 mg/L miqdorda 4.5%–4.1% gacha kamaydi kuzatildi. Natijalar GA_3 ning yuqori konsentratsiyalari embrionogenezni bostirishi va urug‘sizlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar. *Vitis vinifera, Gibberellin kislota, urug‘sizlik, embrion, embryo rescue*

Аннотация. *Признак бессемянности у винограда (Vitis vinifera) является одним из наиболее изученных направлений исследований. Известно, что гиббереллловая кислота (GA_3) широко применяется для улучшения качества ягод и способна индуцировать бессемянность винограда. В данном исследовании изучено влияние обработки гиббереллловой кислотой на формирование бессемянных ягод и морфологические признаки плодов винограда. У сорта «Қора Кишмиш» обработка GA_3 в концентрации 300 мг/л привела к увеличению длины ягод на 26% и массы ягод на 36% по сравнению с контролем. У семенного сорта «Ризамат» применение 100 мг/л GA_3 вызвало снижение массы грозди примерно на 10% и массы ягоды на 7%, тогда как вариант с 300 мг/л показал максимальное снижение: масса грозди уменьшилась на 45%, а масса ягоды — на 25%. Применение 300 мг/л GA_3 полностью подавляло развитие семян, что приводило к формированию бессемянности. У сортов «Қора Кишмиш», «Ризамат» и «Тойфи» концентрации GA_3 100 и 200 мг/л полностью останавливали образование зародышей в рудиментарных семенах. Зародыши, полученные из обработанных GA_3 ягод, в условиях in vitro демонстрировали снижение скорости роста на 11%. Также было установлено влияние GA_3 на прорастание зародышей. У сорта «Тойфи» частота прорастания зародышей снижалась до 9,1% и 6,2% при обработке 100 и 200 мг/л GA_3 соответственно. У сорта «Ризамат» данный показатель уменьшался до 4,5% и 4,1% при концентрациях 100 и 200 мг/л соответственно. Полученные результаты свидетельствуют о том, что высокие концентрации GA_3 подавляют эмбриогенез и играют важную роль в формировании бессемянности.*

Ключевые слова: *Vitis vinifera, гиббереллловая кислота (GA_3), бессемянность, зародыш, спасение зародышей (embryo rescue).*

Abstract. *Seedlessness in grapevine (Vitis vinifera) is one of the most extensively studied traits. Gibberellic acid (GA_3) is widely used to improve fruit quality and is also known to induce seedlessness in grape berries. In this study, the effects of GA_3 application on seedless fruit formation and the morphological characteristics of grape berries were investigated. In the cultivar "Qora Kishmish," treatment with 300 mg/L GA_3 increased berry length by 26% and berry weight by 36% compared with the control. In the seeded cultivar "Rizamat," application of 100 mg/L GA_3 resulted in an approximately 10% reduction in cluster weight and a 7% reduction in berry weight, while the 300 mg/L treatment caused the greatest decrease, reducing cluster weight by 45% and berry weight by 25%. Application of 300 mg/L GA_3 completely inhibited seed development in grapevine, resulting in seedlessness. In the cultivars "Qora Kishmish," "Rizamat," and "Toyfi," GA_3 concentrations of 100 and 200 mg/L completely prevented embryo formation in rudimentary seeds. Embryos obtained from GA_3-treated berries showed an 11% reduction in growth rate under in vitro conditions. The effect of GA_3 on embryo germination was also observed. In the cultivar "Toyfi," embryo germination decreased to 9.1% and 6.2% following treatment with 100 and 200 mg/L GA_3, respectively. In "Rizamat," germination decreased to 4.5% and 4.1% at 100 and 200 mg/L GA_3, respectively. These results indicate that high concentrations of GA_3 suppress embryogenesis and play an important role in the induction of seedlessness.*

Keywords: *Vitis vinifera, gibberellic acid (GA_3), seedlessness, embryo, embryo rescue.*

Kirish. Tokning *Vitis vinifera L*. turiga mansub navlari global miqyosda keng yetishtiriladigan va iqtisodiy ahamiyatga ega ekin bo‘lib, 2023-yilda umumiy ekin maydoni 7 141 570 gektarni va ishlab chiqarish hajmi 67,3 mln tonnani tashkil etgan. Shundan ho‘raki uzum navlari 48% (31,9 mln t), texnik navlar 47,4% (30,8 mln t) va Kishmish mayizbop 6,9% (4,6 mln t) navlarga to‘g‘ri keladi (International Organisation of Vine and Wine) [1-2]. Ho‘raki toklarda urug‘sizlik belgisi seleksiya va iste’mol nuqtai nazaridan yuqori qiymatga ega[2-5]. Vitis vinifera L turida urug‘sizlik ikki mexanizm orqali yuzaga keladi: parthenokarpik (urug‘lanishsiz meva paydo bo‘lishi) va stenospermokarpik (urug‘lanish sodir bo‘lib, embrionning erta nobud bo‘lishi). Gibberellin kislota (GA3) qo‘llanilishi turli mevali ekinlarda urug‘sizlikni induksiya qilishi mumkinligi aniqlangan [6,8].

GA_3 keng fiziologik ta’sirga ega bo‘lib, hujayra kengayishi, o‘sish jarayonlarini tezlashtiradi [8]. Urug‘larning o‘sish suratini tezligi o‘sish regulyatorlari bilan qat’iy nazorat qilinadi. GA_3 bilan

ishlov berish natijasida gormonal nomutanosiblik, hujayra strukturasining buzilishi va oqibatda urug‘lar nobud bo‘lishi aniqlangan [2-5]. Gibberellin kislota tok navlariga turlicha ta’sir etishi aniqlangan. Masalan, tajribalarning birida “Emperatriz” navida meva kattalashishi GA_3 qo‘llash vaqti va konsentratsiyasiga bog‘liq ekanligi kuzatilgan. “Superior Seedless” navida 40 mg/L (gullashdan oldin va keyin) va 80 mg/L GA_3 qo‘llanishi meva shingili hamda meva massasini, mevalar soni va o‘lchamlarini sezilarli oshirgan. “Crimson Seedless” navida 5–10 ppm konsentratsiyalar kompakt shingillar hosil qilgan, biroq yuqori konsentratsiyalar shingil o‘qining deformatsiyasiga olib kelgan [1-7].

Tajribalarda GA_3 chang naychasi o‘sishini cheklashi va urug‘ abortini yuzaga keltirgan. Konsentratsiyaga bog‘liq holda, 50–100 mg/L GA_3 shingil cho‘zilishini kuchaytirgan, biroq urug‘ soniga ta’sir qilmagan, aksincha 100 mg/L konsentratsiyada urug‘ sonining kamayishi va urug‘sizlikning ortishi qayd etilgan. Markaziy Osiyo uzum navlarida GA_3 ta’sirining meva shingili va meva massasi, urug‘ soni va embrion unib chiqishiga ta’siri yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababli, ushbu tadqiqotda GA_3 qo‘llanishining urug‘li va urug‘siz uzum navlarida morfologik ko‘rsatkichlar, urug‘sizlik induksiyasi hamda embrion unib chiqish darajasiga in vitro sharoitda ta’siri baholandi.


Materiallar va metodlar. O‘simlik materiali. Tok *Vitis vinifera (L.)* navlarida Gibberellin kislota (GA_3) ta’sirini o‘rganish uchun urug‘siz (Qora Kishmish, Oq Dum) va urug‘li (Rizamat, Toyfi) navlar tanlandi. Tajribada 8 yoshli toklar ishlatildi va ular Genomika va bioinformatika markazi uzum kolleksiyasining maxsus urug‘ ko‘paytirish uchastkasida yetishtirilgan. Tajriba davomida NPK (azot, fosfor, kaliy) o‘g‘itlari bu gibberellin ta’sirini aniq baholash uchun qo‘llanilmadi. Qo‘llanilgan gibberellin kislotasi Sigma-Aldrich №G7645, ≥90% GA_3 mansub bo’lib, GA_3 100, 200 va 300 mg/L konsentratsiyalarda qo‘llandi. Eritma tayyorlash uchun GA_3 avval 2 mL 96% etanolda eritildi, so‘ngra asta-sekin 1 L distillangan suv qo‘shildi. Tayyor eritmalar 4°C da saqlandi. Har bir konsentratsiya uch takrorda hamda har bir takror bitta tokdan o‘simligidan iborat. Har bir tokda o‘lchamlari taxminan teng bo‘lgan 6 ta shingil tanlab olindi. Tanlangan shingillar gullashdan 5 kun oldin GA_3 eritmasiga botirildi (Casanova va boshq., 2009).

Statistik tahlil. Statistik tahlil uchun bir omilli dispersiya tahlili (One-way ANOVA) modeli qo‘llandi. Har bir GA_3 konsentratsiyasi uchun 3 takror amalga oshirildi, har bir takror bitta tokdan iborat bo‘ldi va har bir tokda 6 ta shingil tajriba birligi sifatida belgilandi. Natijada har bir konsentratsiya uchun jami 54 ta shingil va 270 ta meva tahlil qilindi. Mevalar changlanishdan keyingi 35, 45 va 61 kunlarda (DAP) yig‘ib olinib, morfologik ko‘rsatkichlar o‘lchandi. Statistik hisob-kitoblar R Studio 2024.12.0+467 dasturida R (*R Core Team, 2021*) yordamida bajarildi.

Natijalar. Tajribada GA_3 ta’sirida shingil uzunligining o‘zgarishi barcha o‘rganilgan navlarda kuzatilganini ko‘rsatdi. “Oq Dum” navi GA_3 kislotasining 300 mg/L va 200 mg/L konsentratsiyalarida shingil uzunligi nazoratga nisbatan sezilarli darajada oshdi (32,4 ± 2,0 sm, 28,8 ± 2,2 sm). GA_3 kislotasining konsentratsiyasi 100 mg/L qo‘llanilganda shingil uzunligi nazoratga nisbatan farq aniqlanmadi (23,7 ± 1,7 sm va 24,5 ± 1,6 sm). “Qora Kishmish” (urug‘siz) va “Toyfi” (urug‘li) navlarida 100, 200 va 300 mg/L GA_3 konsentratsiyalarida shingil uzunligi o‘sishida sezilarli farq qayd etilmadi. “Rizamat” navida esa GA_3 ta’siri yaqqol kuzatilib, nazoratga nisbatan shingil uzunligi 100 mg/L konsentratsiyada 10,6% ga, 300 mg/L da esa 16,3% ga oshdi. “Oq Dum” navida 200 va 300 mg/L GA_3 qo‘llanilishi shingil o‘sishini mos ravishda 18% va 32% ga oshirdi.Umuman olganda, GA_3 konsentratsiyasi oshishi bilan shingil uzunligining stimulyatsiyasi navga bog‘liq differensial javob ko‘rsatdi. Berilgan 1(1)-rasmda gibberellin kislota (GA3) ning uch xil (100, 200 va 300 mg/L^{-1}) konsentratsiyasi qo‘llanilganda “Oq Dum” navida mevalarning rivojlanishi buzilishi va shingilda mevalar zichligining kamayishi aniq ko‘rsatilgan. Nazorat variantida (ishlov berilmagan) shingillar kompakt holatda bo‘lib, mevalar qisqa peditsellarga ega bo‘lib va asosiy markaziy o‘qi skeletining cho‘zilishini chekladi. Gullashdan oldin 100 mg/L^{-1} GA_3 eritmasiga botirish markaziy o‘qi skeleti cho‘zilishini rag‘batlantirdi va shingilning qisman siyraklashishiga olib keldi, yuqori konsentratsiya (300 mg/L^{-1}) esa haddan tashqari markaziy o‘qi skeletining cho‘zilishini chekladi hamda mevalar zichligini keskin kamaytirdi. Shu sababli “Oq Dum” navi keyingi tahlillardan chiqarib tashlandi.

Urug‘li “Rizamat” navida ranglanish bosqichida gullashdan keyingi 45 kunlarda (GKK) kuzatildi. Konsentratsiya 100 va 200 mg/L^{-1} GA_3 qo‘llanilganda ranglanish jarayonining sezilarli tezlashuvi qayd etildi. GA_3 200 va 300 mg/L^{-1} GA_3 konsentratsiyalarida “Rizamat” navida mevalarning to‘kilishi nazoratga nisbatan mos ravishda 30% va 45% ga oshdi (1(2)-rasm). Shingil massasi bo‘yicha 100 mg/L^{-1} GA_3 bilan ishlov berilgan variantda vazn qiymatlari nazoratga nisbatan 10%ga kamaydi. Meva uzunligi 35, 45 va 61 GKK oralig‘ida nazorat va barcha GA_3 variantlari o‘rtasida sezilarli farq kuzatilmadi. Meva massasi 200 mg/L^{-1} da 4,98% (5,72 g) ga kamaydi, 300 mg/L^{-1} da esa maksimal kamayish 25,58% (4,48 g) sodir bo‘ldi (nazorat — 6,02 g). Gullashdan keyingi 61 kunda “Rizamat” navida shingillar qizg‘ish-binafsha rang bilan qoplangan bo‘lib, nazorat variantida meva ranglari bir xil bo‘ldi.

“Qora Kishmish” navida 100 va 300 mg/L^{-1} GA_3 qo‘llanilganda meva uzunligi (2,4 sm) nazoratga (2,5 sm) nisbatan sezilarli farq ko‘rsatmagan (35, 45 va 61 GKK). GA_3 200 mg/L^{-1} konsentratsiya esa meva uzunligini 20% ga oshirdi. Shingil umumiy massasi 300 mg/L^{-1} da 33% ga ortdi. Meva massasi 61 GKK da 300 mg/L^{-1} GA_3 ta’sirida maksimal qiymatga yetib, nazoratga (3,90 g) nisbatan taxminan 36% (6,5 g) oshdi. “Qora Kishmish” navining o‘ziga xos qora rangi 45 GKK da meva po‘stini to‘liq qopladi. Ushbu tajribada o‘rganilgan morfologik ko‘rsatkichlar “Toyfi” navida sezilarli o‘zgarish kuzatilmadi, faqat urug‘sizlik holati bundan mustasno.



1-rasm. Gibberellin Kislota (GA3) ta’sirining uzum shingili, meva va embrion rivojlanishiga ta’siri. 1 – “Oq Dum” navida GA_3 qo‘llanishining shingilga ta’siri; 2 – “Rizamat” navida 65 DAP (changlanishdan keyingi kunlar) bosqichida GA_3 ta’siri: a – nazorat (ishlov berilmagan), b – 100 mg/L GA_3, c – 200 mg/L GA_3, d – 300 mg/L GA_3.3 – Veraison (pishish boshlanishi) bosqichida meva va rudiment rivojlanishiga GA_3 ta’siri: I – Qora Kishmish, II – Rizamat, III – Toyfi, a – nazorat, b – 100 mg/L GA_3, c – 200 mg/L GA_3, d – 300 mg/L GA_3. 4 – “Toyfi” navida GA_3 ta’siridan keyin burishgan rudiment fenotipi: a – 20 kun (nazorat), b – 40 kun (nazorat), c – 20 kun (300 mg/L GA_3), d – 40 kun (300 mg/L GA_3). 5 – in vitro sharoitda embrion unib chiqishiga GA_3 ta’siri: a – Qora Kishmish (nazorat va GA_3 bilan ishlov berilgan), b – Toyfi (nazorat va GA_3), c – Rizamat (nazorat va GA_3), e – Rizamat navida ishlov berilmagan embrion ildizlanishi, f – Rizamat navida ishlov berilmagan embrionda novda va ildiz hosil bo‘lishi, g – eksplantlarning akklimatizatsiyasi. 6 – In vitro sharoitda embrion unib chiqishiga GA_3 ta’sirining statistik tahlili:
cont – nazorat, QK – Qora Kishmish, Riz – Rizamat (100–200 mg/L GA_3). O‘rtacha qiymatlar 4 takror asosida hisoblandi, har bir takrorda 15 ta namunadan foydalanildi (ANOVA + Tukey HSD, R Studio).

Ta’kidlash joizki, 300 mg/L^{-1} GA_3 qo‘llanilishi barcha navlarda rudiment shakllanishini to‘liq to‘xtatdi (2(3)-rasm). Natijada urug‘li navlarda ham to‘liq urug‘sizlik kuzatildi, nazorat variantida esa ranglanish bosqichida kamida bitta rudiment shakllandi. Rudiment rivojlanishining dastlabki bosqichida tashqi integument (urug‘ rudimentini o‘rab turuvchi himoya to‘qima, keyinchalik urug‘ po‘stini hosil qiladi) qatlamida fenotipik o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, changlanishdan taxminan 20 kun o‘tgach 300 mg/L^{-1} GA_3 ta’sirida erta burishish va o‘sish tezligining susayishi qayd etildi (1(4)-rasm).

Gibberellin kislota (GA_3) ning uzum navlarida embrion rivojlanishiga in vitro sharoitda ta’sirini baholash uchun embryo rescue usuli qo‘llanildi. 1(6)-rasmda ko‘rsatilganidek, 60 ta rudimentdan

gullashdan keyingi 65 kunda embrionlar ajratib olinib, Murashige va Skug sun'iy ozuqasining qattiq shaklli muhitida (har bir Petri idish 25 ml) kultivatsiya qilindi. Qo'llanilgan 300 mg/L^{-1} GA_3 urug'li "Rizamat" va "Toyfi" navlarida embrion rivojlanishini to'liq to'xtatdi va to'liq steril holatga olib keldi. Aksincha, 100 va 200 mg/L^{-1} GA_3 miqdori rudiment o'sishini qisman chekladi hamda embrion differensiatsiyasiga olib keldi. Nazorat variantida "Qora Kishmish" navidan ajratilgan embrionlarning taxminan 27% (o'rtacha 4,0 ta) normal o'sib, keyinchalik novda va ildiz uchlari hosil qilib, yashovchan o'simtalarga aylandi. GA_3 konsentratsiyasi 100 va 200 mg/L^{-1} qo'llanilganda embrion shakllanishi to'liq to'htadi va o'sish tezligi sezilarli darajada kamaydi. GA_3 ning embrionni bostiruvchi ta'siri "Toyfi" va "Rizamat" navlarida ham kuzatildi. Sun'iy oziqa muhitida embrion unib chiqishi "Toyfi" navida 100 va 200 mg/L^{-1} da 9,1%–6,2% gacha, "Rizamat" navida esa 4,5%–4,1% gacha kamaydi. Shu bilan birga, GA_3 bilan ishlov berilmagan rudimentlardan ajratilgan embrionlar yuqori unish ko'rsatkichini namoyon etdi ("Toyfi" — 61%, "Rizamat" — 52%).

Bir qator tadqiqotlarda tashqi gibberellinlar qo'llanishi changlanmagan gullarda parthenokarpiya hosil bo'lishiga olib kelishi ko'rsatilgan. Biroq Arabidopsis thaliana da GA_3 qo'llanilishi meva rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan [4]. Pomidor va shirin qalampir turlarida esa GA_3 meva kattalashishi bilan birga parthenokarpik meva hosil bo'lishini ham induksiya qilgan. Kivi va qovoq turlarida parthenokarpiya induksiyasi GA_3 bilan boshqa o'sish regulyatorlariga nisbatan kamroq samarali bo'lgan [2-5].

Ushbu tajribada urug'li va urug'siz uzum navlarining gullari gul kosachasi tushishidan oldin, ya'ni gullash bosqichida GA_3 bilan ishlov berildi. "Qora Kishmish" navida meva massasi nazoratga nisbatan 36% ga, shingil massasi esa 33% ga oshdi. GA_3 qo'llanishi uzum mevalarida shakar miqdori va meva hajmini oshirishini ko'rsatgan. Natijada suv va shakar to'planishi ham nazoratga nisbatan yuqori bo'lgan [2]. "Emperatriz" navida 80 va 160 mg/L^{-1} GA_3 qo'llanilishi meva massasini mos ravishda 45% va 80% ga oshirgan, biroq boshqa tadqiqotda 290 µM konsentratsiyada faqat 20% oshish kuzatilgan [3].

Urug'li "Rizamat" navida 100 mg/L^{-1} GA_3 qo'llanilganda shingil va meva massasi mos ravishda 10% va 7% ga kamaydi. Qo'llanilgan 300 mg/L^{-1} konsentratsiyada esa maksimal kamayish kuzatilib, shingil massasi 45% ga, meva massasi 25% ga kamaygan. "Kyoho" va "Red Globe" navlarida ham urug' va meva rivojlanishi ingibitsiya qilib, meva massasi kamaygani qayd etilgan [8]. Bir qator tadqiqotlar o'simlik gormonlari meva rivojlanish bosqichlarida muhim rol o'ynashini, meva hajmini oshirish, urug' sonini kamaytirish va urug' o'lchamini kichraytirishda ishtirok etishini ko'rsatgan [2-5]. So'nggi tadqiqotlarda embryo rescue texnologiyasi yordamida GA_3 va boshqa gormonal o'zgarishlar urug'siz uzum navlarida embrion rivojlanishi bilan bog'liqligi o'rganilgan. Statistik tahlillarga ko'ra, embrion rivojlanayotgan tuxumdonlarda GA_3 konsentratsiyasi embrion rivojlanmagan ovulalarga nisbatan past bo'lgan. Bizning natijalarimiz ham ushbu ma'lumotlarga mos keladi: 300 mg/L^{-1} GA_3 rudiment o'sishini va embrion rivojlanishini to'liq to'xtatib, embrion abortiga olib keldi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda GA_3 konsentratsiyalarining urug'li va urug'siz uzum navlarida meva rivojlanishi hamda embrion yashovchanligiga ta'siri embryo rescue usuli yordamida o'rganildi. "Rizamat", "Toyfi" va "Qora Kishmish" navlaridan embrionlar ajratilib, in vitro sharoitda kultivatsiya qilindi. GA_3 konsentratsiyasining ortishi rudimentlar sonining kamayishiga va ularning yo'qolishiga olib keldi. GA_3 konsentratsiyasining yuqori konsentratsiyalar rudimentlarni to'liq yo'q qildi. Ushbu ishlov berish erta meva hosil bo'lishini, hujayra kengayishi hisobiga meva hajmining ortishini va "Rizamat" navida urug' sonining kamayishini olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abu-Zahra T.R. (2013). Effect of plant hormones application methods on fruit quality of 'Superior seedless' grape. Biosciences biotechnology research Asia.Vol. 10(2), 527-531. doi: http://doi.org/10.13005/bbra/1162

2. Acheampong, A.K., Zheng, C., Halaly, T., Giacomelli, L., Takebayashi, Y., Jikumaru, Y., et al. (2017). Abnormal endogenous repression of GA signaling in a seedless table grape cultivar with high berry growth response to GA application. Front. Plant Sci., 8, 850.

3. Agüero, C., Vigliocco, A., Abdala, G., and Tizio, R. (2000). Effect of gibberellic acid and uniconazol on embryo abortion in the stenospermocarpic grape cultivars Emperatriz and Perlon. Plant Growth Regul., 30, 9–16. https://doi.org/10.1023/A:1006207614388

The latent period encompasses the period from seed maturity to seed germination. The latent or dormant period is characterized by seeds remaining dormant, meaning they do not begin to germinate. In the conditions of Nukus, the period of mass ripening or maturation of seeds corresponds to the second to third ten-day periods of July or the first ten-day period of August. This can occur earlier or later, depending on the sowing date and air temperature. When the seeds are fully ripe, a hard seed coat forms. The hardening period of this seed coat in sown sedana lasts 8-9 months, that is, until favorable climatic conditions for seed germination appear in natural conditions. Usually, in the conditions of Nukus, the most favorable time for sowing black cumin seeds is April or May. When black cumin seeds are stored for one year, germination rates are high, exceeding 95%. Seeds retain germination well for up to 3 years. It completely loses its viability after 5 years. The seeds of *L. royleana* are dark black. Its original name comes from the Latin word "niger," meaning "black." For this reason, it was named *Nigella* (Jansen, 1981; Mahr, 2009). The shape of the seed is triangular, the surface is uneven and glabrous, about 2.5-3.0 mm long, 1.3-2.0 mm wide, narrowed towards the base. The weight of 1000 seeds is 2.1 grams (Fig. 1).



Figure 1. *Nigella sativa* L. external appearance and weight of 1000 seeds.

2. Virginil (vegetative) period

The vegetative period consists of the germinal, juvenile, and immature stages, which serve as preparation for generative development.

- *Grass stage* (12 days): from seed germination to true leaf emergence. The plant germinates in an epigeal type. Main root length 1.7-2.1 cm, cotyledon length 0.6-0.9 cm. It lasted 2 days longer than in Tashkent conditions.

As is known from the literature, the germination period of sown black seedlings in the conditions of Tashkent is 8-12 (on average 10) days, in the southern regions 10-12 (on average 11) days [Mahmudov A V, Abduraimov O S, Erdonov Sh B, Gayibov U G, Yu I L. Bioecological features of Nigella sativaL. in different conditions of Uzbekistan. Plant Science Today. 9 (2): 421-426. https://doi.org/10.14719/pst.1510]. As can be seen from this, the plant's germination period was longer by 2 days compared to plants grown in non-saline soil conditions of the Tashkent and Kashkadarya oases.



Fig. 2. *Nigella sativa* L. seed germination

- *Juvenile stage* (15-20 days): from the first true leaves to branching. Leaves are three-lobed, complex in shape, arranged in a rosette. Plant height 8-10 cm. The first true leaves appeared on average 12 days after the emergence of cotyledons, i.e., 26 days after sowing the seeds. The initial true leaf is three-lobed, divided into 2/3 parts, the leaf blade tip is blunt, sessile, sitting on the stem, or thick, short-stalked, 1-1.5 mm wide and long, semi-tubular. The second and third true leaves began to form after 4-5 days, and the subsequent ones after 3-4 days. Their shape is also three-parted, the lateral parts are whole or divided into 2/3 parts, the central part is divided into 2/3 parts, the tip of the leaf blade is sharper than the previous ones, the length of the leaf blade is 1.2-1.5 cm. Starting from the second or third true leaves, the leaves are long-stalked, 1.5-2 cm long.



Figure 3. *Nigella sativa* L. Juvenile plant appearance.

The petioles form the false stem, therefore the petioles are semi-tubular, short and thick,

surrounding the apical growth point of the false stem. The leaf blades are mainly dissected into three parts, and in subsequent leaves, the fragments of each part increase and belong to the complex dissected leaf type. The leaves appearing during this period are rosette-shaped, that is, they are arranged in clusters on a very short stem. The average height of the plants was 8-10 cm (Fig. 3).

It was noted that the juvenile stage lasts 15-20 days.

- *Immature stage* (25-30 days): from the formation of first-order branches to budding. The root system strengthens, and lateral roots develop. The plant reaches a height of 20-25 cm. In saline conditions, this period lasted 15-20 days longer than in other regions.

3. Generative period. This period included the stages of budding, flowering, fruiting, and seed formation. In the conditions of Nukus, budding was observed at the end of May - beginning of June. Flowering lasted 30-35 days. The fruiting and seed formation stage lasted until August.



Figure 5. Nigella sativa L.

This period begins with the appearance of a bud at the tip of the main stem. The plant bushes entered the budding phase in the last ten days of May. At the beginning of the budding period, the plant height was 22-27 cm, and by the end 35-40 cm. The main stem had 15-18 leaves. The leaves on the stem were arranged alternately, the length of the leaves in the upper part was 1.5-2 cm, in the middle part - 2.5-4 cm, and in the lower part - 4.5-6 cm. The main root is 15-17 cm long and consists of 7-11 secondary and tertiary branched lateral roots. The length of the lateral roots was 2-8 cm, the width - 0.1-0.5 cm. The period of complete formation of each bud was 12-14 days (Fig. 5).

The flowering period of sown fennel began in the second decade of June (11-12 June). Massive flowering occurred in the first ten days of July. At this time, the plant height was 42-46 cm. The number of flowers on one bush was 16-31. A single flower bloomed for an average of 4-6 days, while a single plant bloomed for 12-18 days. The end of flowering coincided with the end of July and the beginning of August. The total duration of the flowering period was 50-55 days.

Generative phase bush appearance.

The potential seed productivity of sowing fennel depends on the number of flowers on one plant. The number of flowers per plant in sown black cumin was 16-31, averaging from 21.77 to 25.17 during the observation years (Table 1).

Number of flowers per plant of sown black cumin (2022-2024)

Options	Average indicator by number of flowers, pcs.			Statistical analysis					
				Σ	V	P	N	% vs. control	Difference between control and variants, t
Sown in the second decade of April 2022(April 12)									
Control	16.11	±	0.99	4.2	25.6	6.0	18	100.0	0.00
Biohumus	17.07	±	1.10	4.7	27.4	6.5	18.	106.7	0.75
Biothropic	17.26	±	0.99	4.2	24.5	5.8	18.	107.3	0.77
Sown in the second ten days of May 2023 (May 4)									
Control	23.17	±	1.48	6.3	26.9	6.4	18.	100.0	0.00
Biohumus	27.02	±	1.74	7.4	27.5	6.5	18.	117.1	1.69
Biothropic	24.87	±	1.39	5.9	23.4	5.5	18.	107.6	0.83
Sown in the second ten days of April 2024(April 13)									
Control	26.04	±	2.62	11.1	41.8	9.8	18.	100.0	0.00
Biohumus	31.41	±	3.31	14.1	43.4	10.2	18.	119.9	1.04
Biothropic	28.41	±	3.12	13.3	44.6	10.5	18.	107.8	0.21
Average									
Control	21.77	±	1.70	7.2	31.4	7.4	18.	100.0	0.00
Biohumus	25.17	±	2.05.	8.7	32.8	7.7	18.	114.6	1.16
Biothropic	23.51	±	1.83	7.8	30.8	7.3	18.	107.6	0.60

In the conditions of Nukus, the indicator of real seed productivity was 97.6%. As mentioned above, the ovary, or gynoecium, consists of 5 carpels. Each cotyledon leaf contains 9.4-9.7 germ buds. The total number of spikelets per plant ranged from 737.3 to 1248.23 over the years (1-table), resulting in a potential seed yield of 2.95 - 3.07 g per plant.

Table 1

Potential and real seed productivity of sown black seed

Biometric indicators	Years		
	2022	2023	2024
Number of potential flowers per plant, pcs.	16.11±0.99	23.17±1.48	26.04±2.62
Number of real flowers per bush, pcs.	15.75±0.84	22.87±0.95	25.84±1.16
Potential number of petals per flower, pcs.	5±0.02	5±0.02	5±0.02
Number of real petals per flower, pcs.	4.98±0.02	4.98±0.02	4.98±0.02
Number of potential ovules per leaf, pcs.	9.4±0.4	9.6±0.5	9.7±0.3
Number of real germs per leaf, pcs.	9.4±0.4	9.6±0.5	9.7±0.3
Number of potential germs per plant, pcs.	757.17	1112.16	1262.94
Number of real germs per plant, pcs.	737.3	1093.37	1248.23

Based on the weight of 1000 seeds and the sowing scheme, the yield of sown black seed was determined (Table 1).

Table 2

Seed yield of sown black seed

Biometric indicators	Years		
	2022	2023	2024
Number of balls in 1 row	666.67	666.67	666.67
Number of rows per 1 ha	166.67	166.67	166.67
Number of real germs per plant, pcs.	737.3	1093.37	1248.23
Seed productivity, grams	1.55	2.30	2.62
Seed Yield, kg/ha	172.23	255.56	291.11

As can be seen from the table above, with a sowing scheme of 45x15 and the weight of 1000 seeds of 2.1 grams, the seed yield per hectare was 172.23 kg/ha in 2022, 255.56 kg/ha in 2023, and 291.11 kg/ha in 2024.

Differences in seed productivity of sown black cumin over the years depended on the number of real germ buds of the plant, and it was established that the presence or absence of germ buds is directly proportional to the quality of seeds, i.e., the location of the germ bud in the ovule, favorable climatic conditions, i.e., the lack of resources as a result of disruption of substance transport in unfavorable conditions, ant ecological characteristics, and timely implementation of agrotechnical measures.

The total duration of the fruiting period was 50-55 days, just like the duration of the flowering period. In the second ten days of September, the fruiting process was completed. By this time, the size of the carpels was 1.8-2.4 cm. At the same time, the plant's ontogenesis period was fully completed.

Conclusion. In conclusion, in 2022-2024, the ontogenesis *of N. sativa* underwent complete stages in the highly saline conditions of the city of Nukus, characterized by specific morphological and physiological features. The plants adapted well to climatic conditions and were resistant to temperature and humidity fluctuations. The intensive passage of all periods of ontogenesis indicates the high ecological adaptability and biological activity of the species. There were slight differences in the duration of the stages of ontogenesis depending on the years, but the overall developmental cycle was 120-130 days. The stages of ontogenesis develop in a specific sequence and are closely related to environmental factors (temperature, humidity).

The results obtained on the basis of observing the stages of ontogenesis of this species serve as an important scientific basis for its cultivation, reproduction, use as a medicinal raw material, and application in breeding programs.

REFERENCES:

1. Kondratyeva-Melville, I. A. Ontogenesis of Plants. - Тошкент, 2020. - 245 p.
2. Levina, R. E. Phenology of Plants. - Leningrad: LGU Publishing House, 1981. - 312 p.
3. Zhukova, L. A. Ontogenetic Development of Plants. - Тошкент, 2020. - 280 p.
4. Laxtin, A. G. Ontogenesis and Evolution of Plants. - Тошкент, 2020. - 198 p.

5. Kirpichnikov, M. E. Genetics with the Fundamentals of Selection. - Тошкент, 2016. - 520 p.
6. Nikitin, V. V., Nosov, N. N. Plant Ontogenesis: Structure and Regularities. - Тошкент, 2020. - 340 p.
7. Jansen, P. Nigella sativa and related species. Economic Botany, 1981, 35 (2): 187-190.
8. Mahr, N. Black cumin (*Nigella sativa L.*): uses and benefits. Journal of Herbal Medicine.

UO'K 581.143;582.734

ABELMOSCHUS MANIHOT (L). MEDIK O'SIMLIGIGA IN-VITRO SHAROITIDA GORMONSIZ OZUQA MUHITINING TA'SIRINI O'RGANISH

N.M.Usmanova, o'qituvchi, Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti, Toshkent
D.T.Xamrayeva, ye.i.x., b.f.d., O'zRFA Botanika instituti, Toshkent
T.F.Aripov, akademik, b.f.d., Bioorganik kimyo instituti, Toshkent
U.G.Gayibov, kat.i.x., PhD, Bioorganik kimyo instituti, Toshkent
S.N.Gayibova, kat.i.x., PhD, Bioorganik kimyo instituti, Toshkent
D.Sh.Abduazimova, tayanch doktorant, Bioorganik kimyo instituti, Toshkent
G.B.Nasyrova, kich.i.x., Bioorganik kimyo instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Dorivor o'simliklar ilmiy tadqiqotlar asosida dorivor xususiyatlarga ega ekani aniqlangan, sog'liq uchun klinik jihatdan foydali ekanligi isbotlangan o'simliklardir. Tabiiy mahsulotlar tarixan dorivor moddalarning muhim manbai bo'lib kelgan va hozirgi kunda ularning terapevtik faolligi sababli tobora ommalashib bormoqda. Abelmoschus manihot (L.) Medik o'zida bioflavonoidlar va polisaxaridlar kabi biologik faol moddalarni saqlashi bilan istiqbolli dorivor o'simlik hisoblanadi, uni laboratoriya sharoitida in-vitro usulda ko'paytirish esa bir qator afzalliklarga ega. Ushbu maqolada Abelmoschus manihot urug'larini gormonsiz ozuqa muhitida in-vitro sharoitida ko'paytirish va samarali sterilizatsiya rejimini tanlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Aniqlanishicha, tabiiy sharoitda o'simlik urug'larining unuvchanligi 23,5–46,5 % ni tashkil etsa, tanlab olingan sterilizatsiya usuli qo'llanilganda in-vitro sharoitida bu ko'rsatkich 90% ga yetdi, bu esa yuqori sterillik va o'simliklarning yashovchanligini ta'minlaganidan dalolat beradi.*

Kalit so'zlar. *Abelmoschus manihot, in-vitro, kallus to'qima, maysa bosqichi, yuvenil bosqich, MS ozuqa muhiti, sterilizatsiya, urug' unuvchanligi, laminar apparati.*

Аннотация. *Лекарственные растения — это растения, лечебные свойства которых научно доказаны, а их клиническая эффективность для здоровья человека подтверждена исследованиями. Природные продукты исторически являются важным источником лекарственных средств и в настоящее время приобретают всё большую популярность благодаря своей терапевтической активности. Abelmoschus manihot (L.) Medik считается перспективным лекарственным растением, поскольку содержит биологически активные соединения, такие как биофлавоноиды и полисахариды. Размножение данного растения в лабораторных условиях методом in vitro обладает рядом преимуществ. В настоящей статье представлены результаты исследований по проращиванию семян Abelmoschus manihot на безгормональной питательной среде MS в условиях in vitro, а также по подбору эффективного режима стерилизации. Установлено, что если всхожесть семян в естественных условиях составляла 23,5–46,5 %, то при использовании оптимального режима стерилизации в условиях in vitro этот показатель достигал 90 %, что свидетельствует о высокой эффективности стерилизации и обеспечении жизнеспособности растений.*

Ключевые слова*: Abelmoschus manihot, in vitro, каллусная ткань, стадия проростка, ювенильная стадия, питательная среда MS, стерилизация, всхожесть семян, ламинарный бокс.*

Abstract. *Medicinal plants are plants whose therapeutic properties have been scientifically verified and whose clinical benefits for human health have been demonstrated through research. Natural products have historically served as an important source of medicinal compounds and continue to gain increasing attention due to their therapeutic potential. Abelmoschus manihot (L.) Medik is considered a promising medicinal plant because it contains biologically active compounds*

such as bioflavonoids and polysaccharides. Propagation of this species under laboratory conditions using in vitro techniques offers several advantages. This article presents the results of research on the in vitro germination of Abelmoschus manihot seeds on hormone-free MS nutrient medium and the selection of an effective sterilization protocol. The results showed that while seed germination under natural conditions ranged from 23.5% to 46.5%, the application of the selected sterilization protocol increased the germination rate to 90% under in vitro conditions, indicating high sterilization efficiency and improved plant viability.

Key words: *Abelmoschus manihot, in vitro, callus tissue, seedling stage, juvenile stage, MS nutrient medium, sterilization, seed germination, laminar flow cabinet.*

Kirish. *Abelmoschus manihot* (ayniqsa Xitoyda keng tarqalgan) – dorivor va iste'mol qilinadigan o'simlik hisoblanadi. Uning gullaridan ajratilgan bioflavonoidlar angiogenez jarayonini faollashtirish xususiyatiga ega ekani va yara bitishini tezlashtirishi eksperimental tadqiqotlarda tasdiqlangan (Tang va boshq., 2017). O'simlik ildizlaridan ajratib olingan polisaxaridlar esa antioksidant va namlik saqlash xususiyatlariga ega bo'lib, kosmetika sanoatida qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatilgan (Wang va boshq., 2024). Shu bilan birga, o'simlikning ildiz, poya, barg va urug' kabi qismlari bo'yicha tadqiqotlar hali yetarli emas, bu esa uning resurslarini chuqur o'rganish zaruriyatini ko'rsatadi (Qiong-hui va boshq., 2018).

O'simlik to'qimalarini kulturaga kiritish – o'simliklar, urug'lar va ularning turli qismlarini aseptik sharoitda, sun'iy ozuqa muhitida in-vitro yetishtirishni anglatadi (Biradar, 2018). Bunday usul tabiiy sharoitga nisbatan bir qator afzalliklarga ega: nazorat qilinadigan sharoitda o'simlik to'qimalari va hujayralarining tez ko'payishini ta'minlaydi hamda metabolitlarning to'planishini aniq o'rganish va o'lchash imkonini beradi. Ozuqa muhitlari orasida eng ko'p qo'llaniladigani makro- va mikroelementlar, uglerod manbai hamda vitaminlar majmuasidan iborat Murashige–Skoog (MS) muhiti bo'lib, u o'simlik to'qimalarini oziqlantirish va rivojlantirish uchun optimal sharoit yaratadi (Murashige, Skoog, 1962; Jayaram Reddy, 2024).

In-vitro sharoitida muvaffaqiyatli kulturaga kiritishning asosiy sharti – eksplantlarning yuqori darajada steril bo'lishidir. Turli o'simlik turlari uchun sterilizatsiya rejimini optimallashtirish kontaminatsiya darajasini kamaytirish va urug'larning unuvchanligini oshirish imkonini berishi bir qator tadqiqotlarda ko'rsatilgan: paxta (*Gossypium*) urug'larida turli sterilizatsiya usullarining unuvchanlik va kontaminatsiya darajasiga ta'siri o'rganilgan (Barampuram va boshq., 2014), Malvaceae oilasiga mansub *Althaea officinalis* o'simligida sterilizatsiya rejimini tanlash unuvchanlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan (Younesikelaki va boshq., 2016), shuningdek, Xitoyda *Abelmoschus manihot* uchun urug'dan steril nihollar olishning maxsus texnologik usuli patentlangan (CN101715729A, 2010). Shu bilan birga, yog'ochsimon o'simliklarda sterilizatsiyadan keyingi bosqichlarda o'simlik rivojlanishini davom ettirish uchun ozuqa muhitiga o'sish regulyatorlarini qo'shish zarurligi ham qayd etilgan (Gu va boshq., 2022). Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida yetishtirilgan *Abelmoschus manihot* urug'lari uchun samarali sterilizatsiya rejimini ishlab chiqish va uni tabiiy sharoitdagi unuvchanlik ko'rsatkichlari bilan solishtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ishning maqsadi – *Abelmoschus manihot* o'simligi urug'larini gormonsiz ozuqa muhitida in-vitro sharoitida ko'paytirishning samarali sterilizatsiya usulini ishlab chiqish va urug'larning unuvchanligini tabiiy sharoitdagi ko'rsatkichlar bilan qiyosiy baholashdan iborat.

Material va metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida *Abelmoschus manihot* (L.) Medik o'simligining urug'lari olindi. Ishlash uchun 48 ta shisha bankalar avtoklavda 120 °C haroratda 20 daqiqa davomida sterilizatsiya qilindi. Eksplantlarni ko'paytirish maqsadida 1 l uchun gormonsiz ozuqa muhiti quyidagi tarkibda tayyorlandi: 800 ml distillangan suv, 20 g saxaroza, 20 ml MS I, 20 ml MS II, 20 ml MS III, 0,1 g inozitol, 18 tomchi KOH, 5,6 g agar-agar. Ozuqa muhiti sifatida MS I va MS II eritmalaridan 20 ml dan olinib, muhit avtoklavda sterilizatsiya qilindi.

Urug'larning sirt sterilizatsiyasi quyidagi tartibda amalga oshirildi: urug' po'stining qalinligiga qarab urug'lar 5–30 daqiqa davomida temirosal eritmasida ushlab turildi (tanlangan namunalar uchun ekspozitsiya vaqti 30 daqiqa bo'ldi, chunki uzoqroq muddat urug'ning kuyib ketishiga olib kelishi

mumkin). So‘ngra parazit zamburug‘lar va bakteriyalarni yo‘qotish maqsadida urug‘larga past konsentratsiyali sianid kislotasi eritmasi bilan ishlov berildi (kuchli kislota bo‘lgani sababli ushbu bosqich yuqori ehtiyotkorlik bilan bajarildi). Ishlov berilgan urug‘lar sterilizatsiya eritmasidan qisqich yordamida chiqarilib, namligini yo‘qotish uchun steril filtr qog‘ozda 10 daqiqa quritildi. Har bir urug‘ alohida qisqich yordamida avtoklavda dezinfeksiya qilingach, gormonsiz ozuqa muhiti solingan bankachalarga o‘tkazildi. Barcha amaliyotlar laminar apparatida aseptik sharoitda bajarildi, asboblar har bir amaliyotdan so‘ng 96% etil spirt bilan dezinfeksiya qilindi. *Abelmoschus manihot* urug‘lari 2 ta bankada joylashtirildi (25 donadan 4 qaytariqda).


Natijalar. Tabiiy sharoitda *Abelmoschus manihot* urug‘larining unuvchanligi nisbatan past bo‘lib, o‘rtacha 23,5–46,5 % ni tashkil etadi. Tadqiqotimizda tanlab olingan sterilizatsiya rejimi natijasida *in-vitro* sharoitida urug‘larning unish darajasi 90 % ga yaqinlashdi. Bu natija urug‘larni zararkunanda mikroorganizmlardan xoli qilishda tanlangan sterilizatsiya usulining samaradorligini, ya’ni yuqori sterillik va o‘simliklarning yashovchanligini ta’minlaganini ko‘rsatadi.

Tajriba 2025-yil 10-dekabrda boshlandi: yuqorida keltirilgan rejim asosida ishlov berilgan urug‘lar gormonsiz ozuqa muhitiga ekildi (1-rasm). Ekishdan 5 kun o‘tgach, 2025-yil 15-dekabrda urug‘larning unib chiqishi kuzatildi (2-rasm).



a **b**

1-rasm. Ozuqa muhitini tayyorlash jarayoni (a) va *Abelmoschus manihot* urug‘larini ozuqa muhitiga ekish (b)



2-rasm. Urug‘larni unib chiqishi (2025 yil 15- dekabr).

Rasmlarda ko‘rinib turganidek, murtak o‘q organlarining rivojlanishi kuzatildi: bu jarayon urug‘dagi embrionning shakllanishi va undan keyin vegetativ organlarning hosil bo‘lish bosqichini anglatadi. Urug‘ po‘sti asta-sekin tushib, dastlabki ildizcha, poyacha va bargcha rivojlandi, o‘simliklar rivojlanishning maysa bosqichiga o‘tdi.

In-vitro sharoitida 100 % sterillikka birinchi urinishdayoq erishish imkoni bo‘lmadi: dastlab ekilgan o‘simliklarning bir qismi kasallanib nobud bo‘ldi. Shu sababli jarayon qayta takrorlandi – 29-dekabr kuni urug‘lar qayta sterilizatsiya qilinib, gormonsiz ozuqa muhitiga (BG) qayta ekildi.

2026-yil 7-yanvarda (qayta ekishdan 9 kun o‘tgach) *Abelmoschus manihot* ilk chinbarglarini chiqarib, maysa bosqichidan yuvenil bosqichga o‘tdi (3-rasm). Bu bosqichda har bir o‘simlikning barglaridan o‘rtacha 5–6 tadan qaychi yordamida kesib olinib, 4 ta bankaga (BG) ko‘chirildi; barcha amaliyotlar laminar apparatida steril sharoitda bajarildi, asboblar har bir ko‘chirishdan so‘ng 96% spirt bilan dezinfeksiya qilindi.



a b

3-rasm. O‘simliklarni o‘sish jarayoni – maysa bosqichi (a), yuvenil bosqich (b).

Ko‘chirilgan o‘simliklarni tekshirish natijasida ularning 1 tasida zararlanish alomatlari aniqlandi, qolgan namunalar sog‘lom holatda rivojlanishda davom etdi.

Muhokama. Olingan natijalar *Abelmoschus manihot* urug‘larining tabiiy unuvchanligi past (30–40 %) bo‘lishiga qaramay, tanlab olingan sterilizatsiya rejimi (temirosal eritmasi bilan ishlov berish, undan keyin past konsentratsiyali sianid kislotasi bilan qo‘shimcha ishlov berish) yordamida in-vitro sharoitida unuvchanlikni deyarli 90 % gacha oshirish mumkinligini ko‘rsatdi. Bu natija Malvaceae oilasiga mansub boshqa o‘simlik – *Althaea officinalis* bo‘yicha olib borilgan tadqiqot xulosalari bilan mos keladi, unda ham sterilizatsiya rejimini optimallashtirish urug‘ unuvchanligini sezilarli darajada oshirishi isbotlangan (Younesikelaki va boshq., 2016). Xuddi shunday, paxta urug‘lari misolida sterilizatsiya usulining tanlanishi kontaminatsiya darajasi va unuvchanlikka bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan (Barampuram va boshq., 2014).

Birinchi ekish siklida o‘simliklarning bir qismi kasallanib nobud bo‘lishi in-vitro sharoitida 100 % sterillikka erishishning murakkabligini ko‘rsatadi. Bu holat yog‘ochsimon va o‘tsimon o‘simliklar bilan olib borilgan boshqa tadqiqotlarda ham qayd etilgan umumiy muammo hisoblanadi va takroriy sterilizatsiya hamda qayta ekish orqali bartaraf etilishi mumkin (Gu va boshq., 2022). Ushbu tadqiqotda ham qayta sterilizatsiya va qayta ekish natijasida o‘simliklarning sog‘lom rivojlanishiga erishildi.

O‘simliklarning gormonsiz muhitda maysa va yuvenil bosqichlarini muvaffaqiyatli o‘tashi, biroq shundan so‘ng keyingi rivojlanish bosqichiga o‘tmasdan o‘sishning sustlashishi, boshqa tadqiqotlarda qayd etilgan holat bilan mos keladi: yuvenil bosqichdan keyingi rivojlanish uchun ko‘pincha ozuqa muhitiga o‘sish regulyatorlari (sitokininlar va auksinlar) qo‘shish zarurligi ko‘rsatilgan (Gu va boshq., 2022; CN101715729A, 2010). Shu boisdan, *Abelmoschus manihot* uchun keyingi tadqiqot bosqichlarida gormon qo‘shilgan ozuqa muhitlarini sinovdan o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. *Abelmoschus manihot* urug‘larining tabiiy sharoitdagi unuvchanligi past (23,5–46,5%) bo‘lishiga qaramay, tanlab olingan sterilizatsiya usuli asosida in-vitro sharoitida bu ko‘rsatkichni 90 % gacha oshirish mumkinligi aniqlandi. Bu yuqori sterillik va o‘simliklarning yashovchanligini

ta'minlovchi samarali protokol ishlab chiqilganidan dalolat beradi. In-vitro usuli o'zining yuqori narxiga qaramay, noyob va urug'idan ko'payishi qiyin bo'lgan dorivor o'simliklarni vegetativ organlar, kallus to'qima va kurtaklar yordamida qulay ozuqa muhitida ko'paytirishning ishonchli usuli bo'lib qolmoqda, bunda metabolitlarning to'planishi va miqdorini aniq o'lchash imkoni ham mavjud.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichlarida turli fitogormonlarning *Abelmoschus manihot* o'simligining o'sishi, rivojlanishi va metabolitlar to'planishiga ta'sirini in-vitro sharoitida o'rganish, shuningdek, olingan o'simliklarni tuproq (grunt) sharoitiga moslashtirish rejalashtirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Murashige T., Skoog F. A revised medium for rapid growth and bio assays with tobacco tissue cultures // Physiologia Plantarum. – 1962. – Vol. 15, No. 3. – P. 473–497.

2. Qiong-hui, Zheng Yi, Li Yong, Zhang Ting Research status of medicinal resources in *Abelmoschus manihot* //International journal of ayurvedic and herbal medicine – 2018. Vol. 8:4. P 3019-3022

3. Biradar Sanjay Raosaheb Tissue Culture// India – 2018. P 9-11.

4. Wang J., Liao E., Ren Z., Wang Q., Xu Z., Wu S., Yu C., Yin Y. Extraction and in vitro skincare effect assessment of polysaccharides extract from the roots of *Abelmoschus manihot* (L.) // Molecules. – 2024. – Vol. 29, No. 9. – Art. 2109.

5. Tang L., Pan W., Zhu G., Liu Z., Lv D., Jiang M. Total flavones of *Abelmoschus manihot* enhances angiogenic ability both in vitro and in vivo // Oncotarget. – 2017. – Vol. 8, No. 43. – P. 74558–74570.

6. Younesikelaki F.S., Ebrahimzadeh M.H., Desfardi M.K., Banala M., Marka D., Nanna R.S. Optimization of seed surface sterilization method and in vitro seed germination in *Althaea officinalis* (L.) – an important medicinal herb // Indian Journal of Science and Technology. – 2016. – Vol. 9, No. 28. – P. 1–6.

7. Barampuram S., Allen G., Krasnyanski S. Effect of various sterilization procedures on the in vitro germination of cotton seeds // Plant Cell, Tissue and Organ Culture. – 2014. – Vol. 118, No. 1. – P. 179–185.

8. Gu M., Li Y., Jiang H., Zhang S., Que Q., Chen X., Zhou W. Efficient in vitro sterilization and propagation from stem segment explants of *Cnidoscolus aconitifolius* (Mill.) I.M. Johnst, a multipurpose woody plant // Plants. – 2022. – Vol. 11, No. 15. – Art. 1937.

9. Tissue culture rapid propagation method of *Abelmoschus manihot*: patent CN101715729A / Xitoy Xalq Respublikasi. – 2010.

UO'T 595.732.1

ANACANTHOTERMES TURKESTANICUS TERMITI ICHAGIDAN BAKTERIAL IZOLATLARNI AJRATISH VA ULARNING SELLYULOLITIK FAOLLIGINI BAHOLASH

Utaganov M.U, tayanch doktorant, O'zR FA Zoologiya instituti, Toshkent
Zakiryayeva S.I, PhD, kat.i.x., O'zR FA Mikrobiologiya instituti, Toshkent
Xolmatov B.R, b.f.d., prof., O'zR FA Zoologiya instituti, Toshkent
Mirzayeva G.S, b.f.d., prof., O'zR FA Zoologiya instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Tadqiqotda Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanidan yig'ilgan Anacanthotermes turkestanicus termitining ishchi kasta vakillari ichagidan jami 11 ta bakterial izolat ajratildi va ularning sellyulolitik xususiyati baholandi. MALDI-TOF mass-spektrometriya natijalariga ko'ra, izolatlar Pseudomonas, Enterococcus, Acinetobacter, Enterobacter va Citrobacter avlodlariga mansub bakteriya turlari bilan eng yaqin taksonomik moslikni ko'rsatdi. Sellyulolitik indeks 1,43-10,0 oralig'ida bo'lib, eng yuqori ko'rsatkichlar Pseudomonas resinovorans S1, Enterococcus faecalis S1 Acinetobacter pittii S3, Enterobacter cloacae F5, Enterobacter cloacae F6 shtamlarida qayd etildi.*

Kalit so'zlar: *Anacanthotermes turkestanicus, termit ichagi, bakterial izolat, karboksimetilsellyuloza, gidroliz zonasi, sellyulolitik indeks, MALDI-TOF.*

Аннотация. *В исследовании было выделено в общей сложности 11 бактериальных изолятов из кишечника рабочей касты термита Anacanthotermes turkestanicus, собранного в районе Каровулбазар Бухарской области, и оценены их целлюлолитические свойства. По результатам масс-спектрометрии MALDI-TOF изоляты показали наибольшее таксономическое сходство с бактериальными видами, принадлежащими к родам Pseudomonas, Enterococcus, Acinetobacter, Enterobacter и Citrobacter. Целлюлолитический индекс варьировался от 1,43 до 10,0, при этом самые высокие значения были*

зарегистрированы у штаммов Pseudomonas resinovorans S1, Enterococcus faecalis S1 Acinetobacter pittii S3, Enterobacter cloacae F5, Enterobacter cloacae F6.

Ключевые слова: *Anacanthotermes turkestanicus, кишечник термита, бактериальный изолят, карбоксиметилцеллюлоза, зона гидролиза, целлюлолитический индекс, MALDI-TOF.*

Abstract. *In this study, 11 bacterial isolates were recovered from the guts of worker-caste Anacanthotermes turkestanicus termites collected in Qorovulbozor District, Bukhara Region, and their cellulolytic properties were evaluated. According to MALDI-TOF mass spectrometry, the isolates showed the closest taxonomic matches to bacteria belonging to the genera Pseudomonas, Enterococcus, Acinetobacter, Enterobacter and Citrobacter. The cellulolytic index ranged from 1.43 to 10.0, with the highest values recorded for strain Pseudomonas resinovorans S1, Enterococcus faecalis S1 Acinetobacter pittii S3, Enterobacter cloacae F5, Enterobacter cloacae F6.*

Keywords*: Anacanthotermes turkestanicus, termite gut, bacterial isolate, carboxymethyl cellulose, hydrolysis zone, cellulolytic index, MALDI-TOF.*

Sellyuloza o‘simlik biomassasining asosiy strukturaviy polisaxaridi bo‘lib, uning mikrobiologik parchalanishi biosferadagi uglerod aylanishi va lignosellyulozali xomashyoni biotexnologik qayta ishlash jarayonlarida muhim o‘rin tutadi. Sellyuloza zanjiridagi β-1,4-glikozid bog‘lar endoglyukanaza, ekzoglyukanaza va β-glyukozidaza fermentlarining ketma-ket va o‘zaro muvofiqlashgan ta’siri natijasida gidrolizlanadi [1-3]. Mazkur fermentlar kompleksini sintez qiluvchi mikroorganizmlar tuproq, kompost, o‘simlik qoldiqlari hamda fitofag hasharotlarning ovqat hazm qilish tizimida uchraydi.

Termitlar lignosellyulozaga boy oziqani o‘zlashtirishga yuqori darajada moslashgan ijtimoiy hasharotlardir. Ularning ichak trakti pH, kislorodning parsial bosimi va oksidlanish-qaytarilish potensiali bilan farqlanuvchi mikrokompartmentlardan tashkil topgan. Ushbu mikroekologik tizimda bakteriyalar, arxeylar va ayrim termit liniyalarida parabasali protistlar ishtirok etadi [4–7]. Xo‘jayin organizmi fermentlari bilan simbiont mikroorganizmlar metabolizmining funksional integratsiyasi sellyuloza va gemisellyulozaning parchalanishi, fermentatsiya mahsulotlarining hosil bo‘lishi hamda ularning termit tomonidan o‘zlashtirilishini ta’minlaydi [5, 8].


Termit ichagi mikrobiotasining taksonomik tuzilishi va metabolik potensiali xo‘jayinning filogenetik mansubligi, oziqlanish strategiyasi, yashash muhiti hamda ichak bo‘limlarining fizik-kimyoviy xususiyatlariga bog‘liq [7, 9]. Markaziy Osiyoning qurg‘oqchil hududlarida tarqalgan *Anacanthotermes* avlodi vakillari ekologik moslanishlari bilan alohida qiziqish uyg‘otadi. *A. turkestanicus* va unga yaqin turlarning ichak mikrobiotasiga bag‘ishlangan metagenomik tadqiqotlar mikrobiom tarkibi bilan oziqa hamda yashash muhiti o‘rtasidagi funksional bog‘liqlikni ko‘rsatdi [10]. *Anacanthotermes* simbiontlarining molekulyar-filogenetik tahlili esa termit–simbiont assotsiatsiyalarining evolyutsion tarixini aniqlashtirishga xizmat qildi [11].

Metagenomik va amplikon sekvenslash yondashuvlari mikrobiotaning umumiy tarkibi va potensial funksiyalarini keng qamrovda tavsiflaydi, biroq muayyan fermentativ xususiyatga ega tirik kulturalarni bevosita olish imkonini bermaydi. Kultura asosidagi mikrobiologik ajratish esa sof izolatlarni saqlash, ularning substratga nisbatan fenotipik javobini tekshirish va istiqbolli kulturalarni keyingi biokimyoviy tahlilga tanlash imkonini beradi [12, 13]. Shu bois kultivatsion va molekulyar yondashuvlar bir-birini to‘ldiruvchi metodlar sifatida qaraladi.

Sellyulolitik bakteriyalarni birlamchi saralashda CMC saqlovchi agarli muhit va Kongo qizili bo‘yog‘iga asoslangan diffuzion usul keng qo‘llaniladi. Kongo qizili parchalanmagan β-glukanlar bilan rangli kompleks hosil qiladi; CMC gidrolizlangan sohada esa och yoki rangsiz zona shakllanadi [14]. Gidroliz zonasining umumiy diametrini koloniya diametriga nisbatlash orqali sellyulolitik indeks aniqlanadi [15, 16]. Ushbu ko‘rsatkich yarim miqdoriy fenotipik skrining mezoni bo‘lib, fermentning mutlaq katalitik faolligi yoki mahsulot hosil bo‘lish tezligini ifodalamaydi.

Tadqiqotning maqsadi *Anacanthotermes turkestanicus* termiti ishchi kasta vakillari ichagidan bakterial izolatlarni ajratish, MALDI-TOF mass-spektrometriyasi yordamida ularning dastlabki taksonomik mansubligini aniqlash, hamda ularning sellyulolitik xususiyatlarini qiyosiy baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va metodlari. *Namuna yig‘ish va ichak disseksiyasi.* Termit namunalari 2026-yil 15–16-may kunlari Buxoro viloyati Qorovulbozor tumanidagi termit uyalaridan yig‘ildi.



1-rasm. *Anacanthotermes turkestanicus* ishchi termitlaridan ichak namunalarini tayyorlash: A - stereomikroskop ostida ajratilgan ichak; B - steril fosfat buferiga solingan ichak namunalari

Tajribada *A. turkestanicus* turining ishchi kasta vakillaridan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti Entomologiya laboratoriyasida jami 30 ta termit tanlab olinib, har birida 10 tadan individ bo‘lgan I-namuna, II-namuna va III-namunaga ajratildi. Ichak disseksiyasidan oldin termitlar tashqi yuzasiga 70% etanol bilan 30 soniya ishlov berildi, so‘ng ular uch marta steril distillangan suvda yuvildi. Ichaklar aseptik sharoitda stereomikroskop ostida ajratildi.

Bakteriyalarni o‘stirish va sof kulturalarni olish. Tayyorlangan suspenziyalar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutiga yetkazildi. I-namuna suspenziyasidan 1 ml suyuq Getchinson oziqa muhitiga inokulyatsiya qilinib, inkubatsiya jarayoni 30±1 °C da 25 kunni tashkil etdi. O‘sish belgilari kuzatilgan suyultirishdan Getchinson agarli qattiq oziqa muhitiga ekildi. II-namuna va III-namunaning tegishli suyultirishlari GPA oziqa muhitiga sirtga yoyib ekish (spread plate; 0,1 ml) hamda agar qatlamiga ekish (pour plate; 1 ml) usullarida inokulyatsiya qilindi. Petri likopchalari anaerostatga joylashtirilib, anaerob sharoit GasPak generator paketi yordamida hosil qilindi. Anaerostat 30±1 °C da inkubatsiya qilinib, o‘sish dinamikasi 20 kunni tashkil etdi.

Morfologik jihatdan farqlanuvchi koloniyalar steril bakteriologik ilmoq bilan tanlanib, tegishli agarli oziqa muhitiga to‘rt sektorli chiziqli ekish (streak plate) usulida qayta ekildi. Sof kultura olish uchun subkultivatsiya uch marta takrorlandi. Kulturalarning sofligi koloniya morfologiyasi, mikroskopik ko‘rinishi va Gram usulida bo‘yash natijalari asosida tekshirildi. Natijada I- va III-namunalardan 3 tadan, II-namunadan esa 5 ta, jami 11 ta sof bakteriya izolati ajratildi.

Sellyulolitik xususiyatni skrining qilish. Sof bakteriya izolatlari Karboksimetilsellyuloza (CMC) saqlovchi mineral agarli ozuqa muhitiga nuqtali usulda ekilib, 30±1 °C da 72 soat inkubatsiya qilindi. Inkubatsiyadan keyin muhit yuzasi 0,1% Kongo qizili eritmasi bilan qoplanib, xona haroratida 15 daqiqa saqlandi. Ortiqcha bo‘yoq olib tashlangach, agar yuzasi 1 M NaCl eritmasi bilan 15 daqiqa yuvildi. Koloniya diametri (D_k) va koloniya bilan birga hisoblangan umumiy gidroliz zonasi diametri (D_z) santimetrda o‘lchandi va quyidagi formula asosida hisoblandi:

$$SI = \frac{D_z}{D_k}$$

bu yerda SI - sellyulolitik indeks; D_z - koloniya bilan birga hisoblangan umumiy gidroliz zonasi diametri; D_k - bakterial koloniya diametri.

MALDI-TOF MS tahlili. Sof bakteriya izolatlari MALDI-TOF mass-spektrometriya usuli yordamida identifikatsiya qilindi. Natijalar ma’lumotlar bazasidagi eng yaqin taksonomik moslik va moslik ko‘rsatkichi sifatida qayd etildi. Past ko‘rsatkichli natijalar yakuniy tur identifikatsiyasi sifatida emas, dastlabki taksonomik yo‘nalish sifatida talqin qilindi [17].


Natijalar va ularning muhokamasi. Mikrobiologik tahlillar natijasida *A. turkestanicus* termiti ichagidan jami 11 ta sof bakteriya izolati ajratildi. I-namunadan ajratilgan izolatlar S1, S2 va S3, II-namunadan ajratilgan izolatlar F4, F5, F6, F7 va F8, III-namunadan ajratilgan izolatlar esa B9, B 10 va B11 ko‘rinishida raqamlandi. Ajratilgan izolatlarning kultural-morfologik xususiyatlari o‘rganildi. Olib borilgan tadqiqot natijalari quyida 1-jadval va 2-rasmda keltirilgan.

1-jadval.

***A. turkestanicus* termiti ichagidan ajratilgan bakteriya izolatlarining MALDI-TOF mass-spektrometriya usuli asosidagi taksonomik mosligi va sellyulolitik faolligi**


Namuna	Izolat raqami	Bakteriya turi	SI
I	S1	*Pseudomonas resinovorans*	10,0
	S2	*Enterococcus faecalis*	10,0
	S3	*Acinetobacter pittii*	5,0
II	F4	*Enterobacter cloacae*	2,40
	F5	*Enterobacter cloacae*	6,86
	F6	*Enterobacter cloacae*	6,0
	F7	*Citrobacter amalonaticus*	0
	F8	*Acinetobacter baumannii*	0
III	B9	*Citrobacter amalonaticus*	1,43
	B10	*Acinetobacter baumannii*	1,67
	B11	*Acinetobacter baumannii*	3,0

MALDI-TOF MS yordamida identifikatsiya natijasida *Anacanthotermes turkestanicus* termitining ichagidan ajratib olingan bakteriya izolatlarining *Pseudomonas resinovorans*, *Enterococcus faecalis*, *Acinetobacter pittii*, *Enterobacter cloacae*, *Citrobacter amalonaticus* va *Acinetobacter baumannii* turlariga mansubligi aniqlandi. Sellyulolitik faollikni baholash natijalari shtammlar o'rtasida sezilarli farq mavjudligini ko'rsatdi. I-namunadan ajratilgan shtammlar orasida eng yuqori SI qiymatlari (10.0) *Pseudomonas resinovorans* S1 va *Enterococcus faecalis* S2 namoyon etdi, *Acinetobacter pittii* S3 shtammi 5.0 ni tashkil qildi. Bu natija birinchi ikki shtammning SMS saqlovchi ozuqa muhitda sellyulolitik faolligi nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatadi. II- namunada *Enterobacter cloacae* turiga mansub uchta izolatning ko'rsatkichlari bir-biridan keskin farq qildi. Jumladan, *E. cloacae* F4, F5 va F6 shtammlarda SI mos ravishda 2,40; 6,86 va 6,0 ni tashkil etdi. Demak, bir turga mansub bo'lgan shtammlar o'rtasida ham sellyulolitik faollik sezilarli darajada farq qilishi kuzatildi. III- namunada *Citrobacter amalonaticus* B9 shtammida SI 1,43, *Acinetobacter baumannii* B10 va B11 shtammlarida esa 1,67 va 3,0 ekanligi qayd etilgan (2-rasm).



2-rasm. *A. turkestanicus* termitining ichagidan ajratilgan bakteriya shtammlarining sellyulolitik indeksi

Umuman, tadqiqotda aniqlangan sellyulolitik indeks qiymatlari bo'yicha eng yuqori faollikni *P. resinovorans* S1 va *E. faecalis* S2 shtammlarida, o'rtacha faollikni esa *E. cloacae* F4, F5 va *A. pittii* F6 shtammlarida qayd etildi. Bu *A. turkestanicus* ichagida sellyuloza va boshqa o'simlik polimerlarini parchalash jarayonlarida ishtirok etishi mumkin bo'lgan turli funksional bakteriyalar mavjudligidan dalolat beradi.



3-rasm. *A. turkestanicus* termitining ichagidan ajratilgan bakteriya shtammlarning CMC-agar ozuqa muhitida sellyulolitik faolligi

A - *Pseudomonas resinovorans* S1; B - *Enterococcus faecalis* S2 va *Acinetobacter pittii* S3; C - *Enterobacter cloacae* F4 va *E. cloacae* F5; D – *E. cloacae* F6; E - *Citrobacter amalonaticus* F7 va *Acinetobacter baumannii* F8; F - *Citrobacter amalonaticus* B9; G – *A. baumannii* B10 va *A. baumannii* B11

Sellyulolitik indeks gidroliz zonasining koloniya diametriga nisbatini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkichga agar tarkibi, substrat konsentratsiyasi, inokulum zichligi, o‘sish tezligi, fermentning muhit bo‘ylab diffuziyasi va inkubatsiya davomiyligi ta’sir ko‘rsatadi [14–16]. Shu sababli SI qiymatini fermentning mutlaq katalitik faolligi bilan tenglashtirish mumkin emas. Olingan natijalar yarim miqdoriy skrining bosqichi sifatida baholanadi; istiqbolli izolatlarning sellyulaza faolligini miqdoriy aniqlash uchun suyuq kultura sharoitidagi tajribalar va qaytaruvchi shakarlarni aniqlashga asoslangan 3,5-dinitrosalitsil kislota yordamida qaytaruvchilar miqdorini kolorimetrik baholash (DNS) usulidan foydalanish zarur.

Termit ichagida sellyuloza va boshqa lignosellyulozali komponentlarning parchalanishi murakkab va ko‘p bosqichli mikrobial jarayon bo‘lib, uning samaradorligi turli funksional mikroorganizmlar o‘rtasidagi metabolik hamkorlik bilan ta’minlanadi. Zamonaviy metagenomik tadqiqotlar termit ichagidagi lignosellyulozani parchalash potensiali muayyan bakteriya liniyalari bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatgan. Jumladan, 51 ta termit turidan olingan 2223 ta metagenomik-assambli genom tahlili natijasida pastki termitlarda sellyulolitik funksiyalar asosan *Bacteroidota* va *Spirochaetota* filumlariga mansub bakteriyalar bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan. Ushbu bakteriyalarda sellodekstrinlarni parchalovchi fermentlar bilan bir qatorda ksilanlar va boshqa gemisellyulozali polimerlarni gidroliz qilishga imkon beruvchi fermentativ tizimlar ham mavjudligi ko‘rsatilgan [18]. Termit ichagidan sellyulolitik bakteriyalar ajratishga bag‘ishlangan avvalgi tadqiqotlarda *Bacillus*, *Paenibacillus*, *Enterobacter*, *Citrobacter*, *Pseudomonas* va boshqa avlod vakillarida CMC gidrolizi qayd etilgan [12, 13, 15].

Ushbu ma’lumotlar bizning *A. turkestanicus* ichagidan ajratgan bakteriyalarimizda kuzatilgan sellyulolitik xususiyatlarning ekologik ahamiyatini tushuntirishga yordam beradi. Tadqiqotimizda *Pseudomonas resinovorans*, *Enterococcus faecalis*, *Acinetobacter pittii*, *Enterobacter cloacae* va *Acinetobacter baumannii* kabi turli taksonomik guruhlarga mansub izolatlarda CMCni gidroliz qilish xususiyati aniqlandi. Ayniqsa, *P. resinovorans* va *E. faecalis* izolatlarida yuqori SI=10,0, *E. cloacae* izolatlaridan birida SI=6,86, boshqasida SI=6,0 hamda *A. pittii* izolatida SI=5,0 qiymatlari qayd etildi. Bu natijalar termit ichagida sellyulolitik funksiyalarning filogenetik jihatdan turli bakteriyalar o‘rtasida taqsimlangan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu natijalar *A. turkestanicus* ichagida sellyulozani parchalash potensialiga ega bakteriyalar mavjudligini ko‘rsatuvchi dastlabki dalil sifatida baholanishi lozim. Tanlangan yuqori faol shtammlarning funksional ahamiyatini tasdiqlash uchun keyingi bosqichda miqdoriy CMCase/sellyulaza tahlillari, hamda 16S rRNA gen sekvenirlash va sellyulolitik fermentlarni kodlovchi genlarni molekulyar tahlil qilish maqsadga muvofiq. Bunday kompleks

yondashuv o‘stirishga asoslangan fenotipik skrining natijalarini termit ichagidagi lignosellyulozani parchalash jarayonlarining funksional asoslari bilan bog‘lash imkonini beradi.

Xulosalar. Olib borilgan tadqiqot natijasida *A. turkestanicus* termiti ichagidan ajratilgan bakteriya izolatlarining MALDI-TOF mass-spektrometriya usuli asosidagi taksonomik mansubligi va sellyulolitik xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiq qilingan 11 ta izolat asosan *Pseudomonas* , *Enterococcus* , *Acinetobacter*, *Enterobacter* va *Citrobacter* avlodlariga mansubligi aniqlandi. Izolatlarning sellyulolitik indeksi 1,43–10,0 oralig‘ida ekanligi, turlararo sezilarli fenotipik farqlanish mavjudligini ko‘rsatdi. Eng yuqori sellyulolitik indeks *Pseudomonas resinovorans* S1 va *Enterococcus faecalis* S2 shtammlarida (SI=10,0) qayd etildi. Shuningdek, *Enterobacter cloacae* izolatlari orasida SI=6,86 va 6,0, *Acinetobacter pittii* shtammida esa SI=5,0 qiymatlari aniqlandi. Bir turga mansub izolatlar o‘rtasidagi sezilarli farqlar sellyulolitik xususiyatning turga emas, ko‘p jihatdan muayyan shtammning genetik va fiziologik xususiyatlariga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Olingan natijalar *A. turkestanicus* termiti ichagi sellyulozani parchalash potensialiga ega bo‘lgan turli funksional bakteriyalarning muhim manbai ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, yuqori SI qiymatlariga ega shtammlar kelgusida sellyulaza, CMCase va boshqa lignosellyulolitik fermentlar faolligini miqdoriy aniqlash, 16S rRNA gen asosida aniq identifikasiya qilish hamda ularning biotexnologik potensialini baholash uchun istiqbolli nomzodlar sifatida tanlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Pérez J., Muñoz-Dorado J., de la Rubia T., Martínez J. Biodegradation and biological treatments of cellulose, hemicellulose and lignin: an overview. International Microbiology. 2002. Vol. 5. P. 53–63. DOI: 10.1007/s10123-002-0062-3.

2. Lynd L.R., Weimer P.J., van Zyl W.H., Pretorius I.S. Microbial cellulose utilization: fundamentals and biotechnology. Microbiology and Molecular Biology Reviews. 2002. Vol. 66, No. 3. P. 506–577. DOI: 10.1128/MMBR.66.3.506-577.2002.

3. Béguin P., Aubert J.-P. The biological degradation of cellulose. FEMS Microbiology Reviews. 1994. Vol. 13. P. 25–58. DOI: 10.1111/j.1574-6976.1994.tb00033.x.

4. Breznak J.A., Brune A. Role of microorganisms in the digestion of lignocellulose by termites. Annual Review of Entomology. 1994. Vol. 39. P. 453–487. DOI: 10.1146/annurev.en.39.010194.002321.

5. Brune A. Symbiotic digestion of lignocellulose in termite guts. Nature Reviews Microbiology. 2014. Vol. 12. P. 168–180. DOI: 10.1038/nrmicro3182.

6. Ohkuma M. Symbioses of flagellates and prokaryotes in the gut of lower termites. Trends in Microbiology. 2008. Vol. 16. P. 345–352. DOI: 10.1016/j.tim.2008.04.004.

7. Brune A., Dietrich C. The gut microbiota of termites: digesting the diversity in the light of ecology and evolution. Annual Review of Microbiology. 2015. Vol. 69. P. 145–166. DOI: 10.1146/annurev-micro-092412-155715.

8. Ni J., Tokuda G. Lignocellulose-degrading enzymes from termites and their symbiotic microbiota. Biotechnology Advances. 2013. Vol. 31. P. 838–850. DOI: 10.1016/j.biotechadv.2013.04.005.

9. Arora J., Kinjo Y., Šobotník J. et al. The functional evolution of termite gut microbiota. Microbiome. 2022. Vol. 10. Art. 78. DOI: 10.1186/s40168-022-01258-3.

10. Togaev U., Mathur V., Rakhmonkulova A. et al. Comparative metagenomic analysis of gut microbiota in Anacanthotermes turkestanicus and A. ahngerianus reveals diet- and habitat-driven functional divergence. Frontiers in Insect Science. 2026. Vol. 6. Art. 1807673. DOI: 10.3389/finsc.2026.1807673.

11. Swichtenberg K., Radek R., Lopes A.H. et al. Anacanthotermes symbionts clarify the evolutionary history of termite-symbiotic Parabasalia. Frontiers in Ecology and Evolution. 2026. Vol. 14. Art. 1783819. doi: 10.3389/fevo.2026.1783819.

12. König H., Li L., Fröhlich J. The cellulolytic system of the termite gut. Applied Microbiology and Biotechnology. 2013. Vol. 97. P. 7943–7962. doi: 10.1007/s00253-013-5119-z.

13. Dantur K.I., Enrique R., Welin B., Castagnaro A.P. Isolation of cellulolytic bacteria from the intestine of Diatraea saccharalis larvae and evaluation of their capacity to degrade sugarcane biomass. AMB Express. 2015. Vol. 5. Art. 15. DOI: 10.1186/s13568-015-0101-z.

14. Teather R.M., Wood P.J. Use of Congo red-polysaccharide interactions in enumeration and characterization of cellulolytic bacteria from the bovine rumen. Applied and Environmental Microbiology. 1982. Vol. 43, No. 4. P. 777–780. DOI: 10.1128/aem.43.4.777-780.1982.

15. Liang Y.-L., Zhang Z., Wu M., Wu Y., Feng J.-X. Isolation, screening, and identification of cellulolytic bacteria from natural reserves in the subtropical region of China and optimization of cellulase production by Paenibacillus terrae ME27-1. BioMed Research International. 2014. Art. 512497. doi: 10.1155/2014/512497.

16. Johnsen H.R., Krause K. Cellulase activity screening using pure carboxymethylcellulose: application to soluble cellulolytic samples and to plant tissue prints. International Journal of Molecular Sciences. 2014. Vol. 15. P. 830–838. DOI: 10.3390/ijms15010830.

17. Schulthess B., Brodner K., Bloemberg G.V., Zbinden R., Böttger E.C., Hombach M. Identification of Gram-positive cocci by use of matrix-assisted laser desorption ionization-time of flight mass spectrometry: comparison of different preparation methods and implementation of a practical algorithm for routine diagnostics. Journal of Clinical Microbiology. 2013. Vol. 51, No. 6. P. 1834–1840. doi: 10.1128/JCM.02654-12.

18. Salgado, J.F.M., Hervé, V., Vera, M.A.G. *et al.* Unveiling lignocellulolytic potential: a genomic exploration of bacterial lineages within the termite gut. *Microbiome* 12, 201 (2024). doi.org/10.1186/s40168-024-01917-7.

UO'K 595.72:631.4(575.15-17)

G'O'ZA AGROTSENOZLARI TUPROQLARIDA KOLLEMBOLALARNING DOMINANT TURLARI VA POPULYATSION DINAMIKASI

J.G.Xo'sinova, magistrant, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada g'o'za agrotsenozlari tuproqlarida tarqalgan kollembolalarning (Collembola) tur tarkibi, dominant turlari va populyatsion dinamikasi o'rganilgan. Tadqiqot davomida kollembolalarning tuproq qatlamlari bo'yicha taqsimlanishi,son zichligi va mavsumiy o'zgarishlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Collembola, g'o'za agrotsenozi, tuproq mezofaunasi, dominant turlar, populyatsion dinamika, son zichligi, mavsumiy o'zgarishlar.*

Аннотация. *В статье изучены видовой состав, доминирующие виды и популяционная динамика коллембол (Collembola), обитающих в почвах хлопковых агроценозов. В ходе исследования проанализировано распределение коллембол по слоям почвы, численность и сезонная динамика популяций.*

Ключевые слова: *Collembola, хлопковый агроценоз, почвенная мезофауна, доминирующие виды, популяционная динамика, численность, сезонные изменения.*

Abstract. *The article examines the species composition, dominant species and population dynamics of springtails (Collembola) inhabiting cotton agrocenosis soils. The study analyzes their distribution across soil layers, abundance and seasonal population dynamics.*

Key words: *Collembola, cotton agrocenosis, soil mesofauna, dominant species, population dynamics, abundance, seasonal changes.*

Kirish. Tuproq ekotizimlari biologik xilma-xillikning muhim komponenti bo'lib, undagi mezofauna vakillari modda aylanishi va tuproq unumdorligini ta'minlashda muhim ekologik funksiyani bajaradi [3]. Ushbu guruhlar orasida kollembolalar (Collembola) detritus zanjirining asosiy ishtirokchilaridan biri sifatida organik qoldiqlarning parchalanishi va mikrobiologik jarayonlarning faollashuvida muhim ahamiyatga ega [4].

Kollembolalar yuqori ekologik moslashuvchanlikka ega bo'lib, ular turli agroekotizimlarda, jumladan g'o'za agrotsenozlarida keng tarqalgan. Ularning tur tarkibi va populyatsion dinamikasi tuproqning namlik darajasi, harorat rejimi, organik modda miqdori hamda antropogen omillar ta'sirida shakllanadi va o'zgaradi [5]. Shu sababli kollembolalar jamoasi strukturasidagi o'zgarishlar tuproq ekologik holatini baholashda muhim bioindikator sifatida qaraladi [2].

G'o'za agrotsenozlari kabi intensiv foydalaniladigan ekotizimlarda kollembolalarning dominant turlari va ularning mavsumiy populyatsion dinamikasini o'rganish tuproq biotsenozining shakllanish qonuniyatlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega [6]. Shu bilan birga, Shimoliy-g'arbiy O'zbekiston sharoitida ushbu guruhning faunistik tarkibi va ekologik xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan bo'lib, bu yo'nalishda tizimli tadqiqotlar olib borishni talab etadi [3,6].

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotda g'o'za agrotsenozlari tuproqlarida kollembolalarning dominant turlari va populyatsion dinamikasi o'rganildi.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. G'o'za agrotsenozlari intensiv antropogen ta'sir ostida shakllanuvchi ekotizimlar bo'lib, ularda tuproq mezofaunasining tarkibi va funksional tuzilishi doimiy o'zgarib boradi [8]. Bunday sharoitda kollembolalar (Collembola) tuproq organik moddalarning parchalanishi va modda aylanish jarayonlarida faol ishtirok etuvchi muhim bioindikator guruh hisoblanadi [2].Shunga qaramay, Shimoliy-g'arbiy O'zbekiston g'o'za agrotsenozlarida kollembolalarning dominant turlari, ularning tuproq qatlamlari bo'yicha

taqsimlanishi hamda populyatsion dinamikasi bo‘yicha tizimli ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan [7]. Mavjud ishlar asosan faunistik tarkibni qayd etish bilan cheklanib, ekologik-strukturaviy va populyatsion tahlillarni to‘liq qamrab olmaydi [6].Mazkur holat kollembolalar jamoasining agroekotizimdagi rolini chuqur o‘rganish, dominant turlarni aniqlash hamda ularning mavsumiy dinamikasini baholash zarurligini ko‘rsatadi [8].

Material va metodlar. Tadqiqot ishlari Shimoliy-g‘arbiy O‘zbekiston hududidagi g‘o‘za agrotsenozlari tuproqlarida olib borildi. Tuproq namunalari vegetatsiya davrining turli bosqichlarida standart kvadrat usuli asosida 1 m² maydondan olindi. Namuna olish 0–10 sm, 10–20 sm va 20–30 sm tuproq qatlamlarida amalga oshirildi.

Tuproq namunalaridan kollembolalarni ajratib olish uchun Berlese–Tullgren quruq-issiqlik ekstraksion usuli qo‘llanildi. Namunalarga yorug‘lik va harorat gradienti ta’sir ettirilib, 5–7 kun davomida kollembolalar ajratib olindi. Olingan individlar 70% etanol eritmasida fiksatsiya qilindi. Kollembolalarning tur tarkibi stereomikroskop yordamida aniqlanib, ularni identifikatsiya qilishda zamonaviy taksonomik aniqlagichlar va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Aniqlash jarayonida Hopkin (1997) hamda Potapov (2016) tasnifiy yondashuvlariga asoslanildi. Populyatsion ko‘rsatkichlar 1 m² maydon hisobida individlar son zichligi orqali baholandi. Dominant turlar umumiy individlar sonidagi ulushiga qarab aniqlandi. Olingan ma’lumotlar asosida kollembolalarning tuproq qatlamlari bo‘yicha taqsimlanishi hamda mavsumiy o‘zgarishlari tahlil qilindi.

Tadqiqot olib borilgan hududlar:Tadqiqot ishlari Xorazm viloyatining Urganch va Shovot tumanlari g‘o‘za agrotsenozlarida joylashgan fermer xo‘jaliklari hududlarida amalga oshirildi.

Urganch tumani fermer xo‘jaliklari:“Ibroxim va Farida”,“Doniyor Mishqar”, “Loloxon”, “Quvondiq Sadror Salimboy”.

Shovot tumani fermer xo‘jaliklari:“Erboyev Baxodir”,“Yaxshimurodov Ulug‘bek”,“Eshjanov Odilbek”,“Bodomzor-Obod”

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotlar davomida Shimoliy-g‘arbiy O‘zbekiston hududining g‘o‘za agrotsenozlari tuproqlarida kollembolalarning (Collembola) tur tarkibi, miqdoriy ko‘rsatkichlari, dominant turlari hamda mavsumiy dinamikasi o‘rganildi. Tadqiqot ishlari Xorazm viloyati Urganch va Shovot tumanlari g‘o‘za dalalari tuproqlarida olib borilib, kollembolalarning tuproq profili bo‘yicha tarqalish xususiyatlari baholandi.

Olingan natijalar kollembolalar jamoasining tuproq qatlamlari bo‘yicha bir xil taqsimlanmaganligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida 0–10, 10–20 va 20–30 sm tuproq qatlamlarida kollembolalar soni tahlil qilindi. Aniqlanishicha, kollembolalarning eng yuqori miqdoriy ko‘rsatkichlari 10–20 sm tuproq qatlamida qayd etildi. Ushbu qatlam kollembolalar uchun optimal ekologik sharoit yaratib, undagi namlik rejimi, organik qoldiqlar va mikroorganizmlar faoliyati ularning yashashi va rivojlanishiga qulaylik yaratadi. Tuproqning yuqori (0–10 sm) qatlamida kollembolalar sonining nisbatan past bo‘lishi ushbu qatlamning tashqi muhit omillariga, ayniqsa harorat va namlikning keskin o‘zgarishlariga ko‘proq duch kelishi bilan bog‘liq. 20–30 sm qatlamda esa ayrim davrlarda kollembolalar saqlanishi kuzatilgan bo‘lsa-da, ularning maksimal zichligi o‘rta qatlamda qayd etildi.

1-jadval.

Shimoliy-g‘arbiy O‘zbekiston g‘o‘za agrotsenozlarida kollembolalarning dominant turlari

Tadqiqot hududi	Dominant tur Dominantlik ko‘rsatkichi (%)
Urganch tumani	*Xenylla maritima* 18%
Shovot tumani	*Folsomides minor* 20%

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kollembolalar jamoasida ayrim turlar yuqori uchrash chastotasi va son zichligi bilan ajralib turdi. Urganch tumani g‘o‘za agrotsenozlarida Xenylla maritima turi 18% dominantlik ko‘rsatkichi bilan ustunlik qilgan bo‘lsa, Shovot tumani agrotsenozlarida Folsomides minor turi 20% dominantlik darajasini namoyon etdi. Mazkur turlarning dominant holatda uchrashi ularning ushbu hududlarning tuproq-ekologik sharoitlariga moslashganligini ko‘rsatadi. Dominant turlar kollembolalar jamoasining strukturaviy asosini tashkil etib, agrotsenoz tuproq biologik faolligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Kollembolalarning mavsumiy dinamikasi. Kollembolalarning yil davomida son zichligi o‘zgarishini aniqlash maqsadida mavsumiy kuzatuvlar olib borildi. Tadqiqot natijalari kollembolalar populyatsiyasi fasllar davomida ekologik omillar ta’sirida sezilarli darajada o‘zgarishini ko‘rsatdi. Qish faslida ya’ni dekabr va yanvar oylarida g‘o‘za agrosenozlari tuproqlarining 10-20 sm gacha bo‘lgan qatlamlarida kollembolalar ko‘plab uchrashi, ya’ni har 1 m^2 da o‘rtacha Shovot tumani g’o’za agrosenozida 300-100 ekzemplyar; Urganch tumani g’o’za agrosenozida 200-300 ekzemplyar uchrashi kuzatildi 2-jadval.

2-jadval.

Xorazm viloyati Urganch va Shovot tumani agrosenozlari tuproq qatlamlarida qish faslida kollembolalar soni

Tuproq qatlamlari	Shovot tumani		Urganch tumani	
	Dekabr	Yanvar	Dekabr	Yanvar
0-10 sm	100	100	100	100
10-20 sm	300	100	200	300
20-30 sm	100	200	100	200
Jami	500	400	500	600

Bahor faslida agrosenozlar tuproqlarining 0-30 sm gacha bo‘lgan qatlamlarida 1 m^2 da o‘rtacha Shovot tumani g’o’za dalalarida mart oyida 800 ekzemplyar, aprelda 900 ekz., Urganch tumani g’o’za agrosenozlarining 0-30 sm qatlamlarida mart oyida 1 m^2 da o‘rtacha 900 ekzemplyar, aprel oyida 1100 ekzemplyart uchrashi aniqlandi 3-jadval.

3-jadval

Xorazm viloyati Urganch va Shovot tumani agrosenozlari tuproq qatlamlarida bahor faslida kollembolalar soni

Tuproq qatlamlari	Shovot tumani		Urganch tumani	
	Mart	Aprel	Mart	Aprel
0-10 sm	200	300	200	400
10-20 sm	300	400	400	400
20-30 sm	300	200	300	300
Jami	800	900	900	1100

Yoz faslida agrosenozlar tuproqlarining 0-30 sm gacha bo‘lgan qatlamlarida 1 m^2 da o‘rtacha Shovot tumani g’o’za dalalarida iyun oyida o‘rtacha 600 ekzemplyar, avgustda 600 ekz; Urganch tumani g’o’za agrosenozlarining 0-30 sm qatlamlarida iyun oyida 1 m^2 da 900 ekzemplyar, avgustda esa 800 ekz. uchrashi aniqlandi 4-jadval.

Kuz faslida g’o’za agrosenozlar tuproqlarining 0-30 sm gacha bo‘lgan qatlamlarida 1 m^2 da o‘rtacha Shovot tumani g’o’za dalalarida sentabr oyida o‘rtacha 500 ekzemplyar, oktabrda 800 ekz; Urganch tumani g’o’za agrosenozlarining 0-30 sm qatlamlarida sentabr oyida 1 m^2 da 600 ekzemplyar, oktabrda esa 400 ekz. uchrashi aniqlandi 5-jadval.

4-jadval

Xorazm viloyati Urganch va Shovot tumani agrosenozlari tuproq qatlamlarida yoz faslida kollembolalar soni

Tuproq qatlamlari	Shovot tumani		Urganch tumani	
	Iyun	Avgust	Iyun	Avgust
0-10sm	200	100	300	200
10-20 sm	300	200	400	300
20-30 sm	100	300	200	300
Jami	600	600	900	800

5-jadval

Xorazm viloyati Urganch va Shovot tumani agrosenozlari tuproq qatlamlarida kuz faslida kollembolalar soni

Tuproq qatlamlari	Shovot tumani		Urganch tumani	
	Sentabr	Oktabr	Sentabr	Oktabr
0-10 sm	200	300	200	100
10-20 sm	200	300	300	200
20-30 sm	100	200	100	100
Jami	500	800	600	400

Umumiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Shimoliy-g‘arbiy O‘zbekiston g‘o‘za agrotsenozlarida kollembolalarning populyatsion holati mavsumiy omillar va tuproq qatlamlari bilan chambarchas bog‘liq. Eng yuqori son zichligi bahor faslida, maksimal tarqalish esa 10–20 sm tuproq qatlamida kuzatildi. Aniqlangan dominant turlar — Xenylla maritima va Folsomides minor — ushbu

agroekotizimlarda kollembolalar jamoasining asosiy ekologik komponentlari sifatida namoyon bo‘ldi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda Xorazm viloyatining Urganch va Shovot tumanlari uzumzor agrotsenozlarida kollembola (Collembola)larning turlar tarkibi va ularning ekologik taqsimlanishi o‘rganildi. Olingan natijalar asosida kollembolalar faunasi hududlar kesimida farqlanishi, turlar xilma-xilligi va dominant turlarning shakllanishi bevosita tuproqning namlik darajasi, harorat rejimi hamda gumus miqdori bilan bog‘liqligi aniqlandi. Urganch tumanida nisbatan yuqori turlar xilma-xilligi qayd etilib, ayrim mezofil va ekologik moslashuvchan turlar ustunlik qildi. Shovot tumanida esa turlar soni kamroq bo‘lib, ekologik sharoitga chidamli dominant turlar asosiy o‘rinni egalladi. Bu holat hududlar tuproq sharoitlari va agrotsenozlarning ekologik holati o‘rtasida sezilarli farq mavjudligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, kollembolalar tuproq ekologik holatini baholashda muhim bioindikator bo‘lib xizmat qiladi. Ularning turlar tarkibi va dominantligi agrotsenozlarning biologik faolligi hamda barqarorligini ilmiy jihatdan baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Babenko A.B. Soil microarthropods of arid and semi-arid ecosystems. Entomological Review, 2012. pp.1-20.
2. Bedano J.C., Ruf A. Collembola as bioindicators of soil quality. Applied Soil 4. Ecology, 2010. pp.1-10.
3. Hopkin S.P. Biology of the Springtails (Insecta: Collembola). Oxford University Press, 1997. pp.45-67.
4. Hopkin S.P. Structure and ecology of Collembola. Annual Review of Entomology, 1997. pp.1-15.
5. Petersen H. Soil Collembola and decomposition processes. Acta Zoologica Fennica, 2002. pp.1-18.
6. Potapov M. Diversity of Collembola in agricultural ecosystems. ZooKeys, 2016. pp.1-25.
7. Petersen H. General aspects of Collembola ecology in agroecosystems. Applied Soil Ecology, 2002. pp.20-35.
8. Lavelle P., Spain A.V. Soil Ecology. Springer, 2001. pp.1-50.

UO'K 58.009:581.142:582.6

PHLOMOIDES ANISOCHILA VA *PHLOMOIDES SOGDIANA* URUG'LARINING UNUVCHANLIGI VA ONTOGENEZINING BOSHLANG'ICH BOSQICHLARI

M.M.Xolbutayeva, o'qituvchi, Jizzax politexnika instituti, Jizzax

Annotatsiya. *Tadqiqotda Phlomoides anisochila va Phlomoides sogdiana urug'larining laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi hamda ontogenezining boshlang'ich bosqichlari qiyosiy o'rganildi. 2019–2023-yillarda yig'ilgan urug'lar 5–35 °C da 50 tadan, uch karra takroriylikda undirildi. Eng yuqori unuvchanlik 20 °C da mos ravishda 50,2 va 65,7% ni tashkil etdi. Dala sharoitida 2–3 sm chuqurlik optimal, kuzgi ekish esa bahorgiga nisbatan 5–10% samaraliroq bo'ldi. Ph. sogdiana ning virginil davri 3–4 yil, Ph. anisochila da 4–5 yil davom etdi. Natijalar kamyob va endem turlarni urug'dan ko'paytirish uchun amaliy asos beradi.*

Kalit so'zlar: *Phlomoides anisochila, Phlomoides sogdiana, urug' unuvchanligi, harorat, ekish chuqurligi, ontogenez, virginil davr.*

Аннотация. *Сравнительно изучены лабораторная и полевая всхожесть семян и начальные этапы онтогенеза Phlomoides anisochila и Phlomoides sogdiana. Семена, собранные в 2019–2023 гг., проращивали при 5–35 °C по 50 шт. в трех повторностях. Максимальная всхожесть при 20 °C составила 50,2 и 65,7% соответственно. Оптимальная глубина посева — 2–3 см; осенний посев был на 5–10% эффективнее весеннего. Виргинильный период Ph. sogdiana длился 3–4 года, Ph. anisochila — 4–5 лет. Результаты могут быть использованы при семенном размножении и сохранении редких эндемичных видов.*

Ключевые слова: *Phlomoides anisochila, Phlomoides sogdiana, всхожесть семян, температура, глубина посева, онтогенез, эндемичный вид.*

Abstract. *Laboratory and field seed germination and early ontogenetic stages of Phlomoides anisochila and Phlomoides sogdiana were compared. Seeds collected in 2019–2023 were germinated at 5–35 °C using 50 seeds per treatment in three replicates. Maximum germination at 20 °C reached 50.2 and 65.7%, respectively. A sowing depth of 2–3 cm was optimal, and autumn sowing was 5–10% more effective than spring sowing. The virginile period lasted 3–4 years in Ph. sogdiana and 4–5 years in Ph. anisochila. The results support seed propagation and conservation of rare endemic species.*

Keywords: *Phlomoides anisochila, Phlomoides sogdiana, seed germination, temperature, sowing depth, ontogeny, endemic species.*

Kirish. *Phlomoides* Moench Lamiaceae oilasining yirik polimorf turkumlaridan biri bo‘lib, uning Markaziy Osiyoda kamyob va endem vakillari uchraydi. Molekulyar-filogenetik tadqiqotlar *Phlomoides* ning mustaqil turkum sifatidagi maqomini asoslagan [8]. Nurota tog‘ tizmasida tarqalgan *Ph. anisochila* tor arealli O‘zbekiston endemi, *Ph. sogdiana* esa mamlakat hududidan tashqariga chiqmaydigan, biroq kengroq tarqalgan endem turdir. Ularning tabiiy tiklanishini baholashda urug‘ unuvchanligi va ontogenez bosqichlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Phlomoides urug‘larining mikromorfologiyasi sistematik jihatdan o‘rganilgan [7], ammo *Ph. anisochila* va *Ph. sogdiana* urug‘larining harorat, ekish chuqurligi va muddatiga reaksiyasi hamda ontogenezning dastlabki bosqichlari bo‘yicha ma’lumotlar yetarli emas. Tadqiqotning maqsadi ikki tur urug‘larining morfometrik ko‘rsatkichlari va unuvchanligini qiyosiy baholash, dala sharoitida optimal ekish parametrlarini aniqlash hamda maysa, yuvenil, immatur va voyaga yetgan vegetativ bosqichlarning asosiy belgilarini tavsiflashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va metodlari. Materiallar 2019–2023-yillarda Nurota davlat qo‘riqxonasi va unga tutash hududlardagi tabiiy populyatsiyalardan yig‘ildi. Urug‘larning uzunligi, eni, rangi va 1000 dona massasi aniqlandi. Unuvchanlikni baholashda M.K. Firsova [4] hamda G.N. Alekseychuk va N.A. Laman [5] usullaridan foydalanildi. Urug‘lar kaliy permanganat eritmasi bilan ishlov berilib, nam filtr qog‘ozli Petri kosachalarida 5, 10, 15, 20, 25, 30 va 35 °C da undirildi. Har bir variantda 50 tadan urug‘ olinib, tajriba uch karra takrorlandi.

Dala tajribalarida 50 tadan urug‘ 1–2, 2–3, 3–4, 4–5 va 5–6 sm chuqurliklarda ekildi, kuzgi va bahorgi ekish variantlari taqqoslandi. Ontogenez bosqichlari T.N. Rabotnov [1, 2], I.G. Serebryakov [6] va L.A. Jukova [3] klassifikatsiyalariga tayangan holda ajratildi. Maysa bosqichidan voyaga yetgan vegetativ bosqichgacha barg, ildiz, ildiz bo‘g‘zi, kaudeks va novdalarning rivojlanishi qiyosiy kuzatildi.

Natijalar va muhokama. *Ph. anisochila* urug‘lari o‘rtacha 7,8±1,3 mm uzunlik, 2,3±0,2 mm kenglik va 13±0,01 g (1000 dona) massaga ega bo‘ldi. *Ph. sogdiana* da ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 6,7±1,2 mm, 2,3±0,2 mm va 14±0,01 g ni tashkil etdi. Demak, birinchi tur urug‘i nisbatan uzunroq, ikkinchi tur urug‘i esa biroz og‘irroq. Urug‘larning yuqori qismidagi mayda tukchalar namlikni shimish va tarqalishga moslashgan belgi sifatida qayd etildi; bu holat *Phlomoides* urug‘ mikromorfologiyasining sistematik ahamiyatiga doir ma’lumotlarni [7] reproduktiv ko‘rsatkichlar bilan to‘ldiradi.

1-jadval.

Haroratning urug‘ unuvchanligiga ta’siri (%)

Harorat, °C	*Ph. anisochila*	*Ph. sogdiana*
5	0	0
10	0	0
15	6,3±0,2	16,4±0,6
20	50,2±0,7	65,7±0,4
25	43,0±0,2	60,0±0,8
30	36,2±0,3	48,4±0,6
35	15,2±0,4	18,3±0,7

Harorat tajribasida 5–10 °C da urug‘lar unmagan, 15 °C da unuvchanlik past bo‘lgan. 20 °C da ko‘rsatkich keskin oshib, *Ph. anisochila* da 50,2%, *Ph. sogdiana* da 65,7% ga yetgan; 25–35 °C da esa izchil kamaygan (1-jadval). *Ph. sogdiana* barcha faol harorat variantlarida yuqoriroq natija ko‘rsatdi. Unish *Ph. anisochila* da uchinchi, *Ph. sogdiana* da ikkinchi kundan boshlangan; eng yuqori sutkalik ko‘rsatkich mos ravishda to‘rtinchi kuni 28,6±0,5% va uchinchi kuni 28,4±0,4% bo‘lgan. Bu natijalar *Ph. sogdiana* ning urug‘ orqali tiklanish salohiyati yuqoriroq ekanini ko‘rsatadi.

Dala sharoitida 2–3 sm chuqurlik eng maqbul variant bo‘lib, *Ph. anisochila* da 43,2%, *Ph. sogdiana* da 47,6% unuvchanlik kuzatildi (2-jadval). Chuqurlik 4–6 sm gacha oshirilganda ko‘rsatkich pasaydi. Kuzgi ekish bahorgiga nisbatan 5–10% yuqori natija berdi; optimal muddat 1–15-oktabr sifatida belgilandi. Buni tabiiy stratifikatsiyaning urug‘ni tinim holatidan chiqaruvchi

ta'siri bilan izohlash mumkin. Yorug‘ va qorong‘i sharoitlar orasida sezilarli farq kuzatilmadi, uzoq saqlangan urug‘larda esa unuvchanlik pasaydi.

2-jadval.

Ekish chuqurligining dala unuvchanligiga ta'siri (%)

Ekish chuqurligi, sm	*Ph. anisochila*	*Ph. sogdiana*
1–2	22,4	36,6
2–3	43,2	47,6
3–4	30,4	37,4
4–5	23,4	22,4
5–6	13,2	19,6

Ontogenetik kuzatishlarda har ikkala turda epigeal unish qayd etildi. Birinchi juft chin barglar hosil bo‘lgunga qadar asosiy ildiz *Ph. anisochila* da 2,9 sm, *Ph. sogdiana* da 2,4 sm ga yetgan. Yuvenil bosqich 6–7-kunlardan boshlab 3–4 juft chin barglarning shakllanishi bilan tavsiflandi; 5–6 juft barg paydo bo‘lganda ildiz 6–7 sm gacha cho‘zilib, yon ildizlar rivojlandi. Immatur bosqichda urug‘pallalar yo‘qolib, barg yaprog‘i va ildiz bo‘g‘zi yiriklashdi. Voyaga yetgan vegetativ bosqichda barglar 7–8 sm gacha yetib, novda va barg bandlari oq momiq tuklar bilan zich qoplandi.

Virginil davr *Ph. sogdiana* da 3–4 yil, *Ph. anisochila* da 4–5 yil davom etdi; generativ davr mos ravishda hayotning 4–5 va 5–6-yillaridan boshlandi. Reproduktiv mahsuldorlikda ham farq kuzatildi: *Ph. sogdiana* da potensial 240–280 urug‘dan 180–200 tasi (71–75%), *Ph. anisochila* da 280–320 urug‘dan 160–170 tasi (53–57%) yetildi. Shunday qilib, *Ph. anisochila* da unuvchanlikning pastroq bo‘lishi, virginil davrning uzoqroq davom etishi va real urug‘ mahsuldorligining kamayishi tabiiy yangilanishning nisbatan sustligini ko‘rsatadi. Laboratoriyada 20 °C, dala sharoitida 2–3 sm chuqurlik va kuzgi ekish ikki turni urug‘dan ko‘paytirish uchun asosiy amaliy parametrlar sifatida tavsiya etiladi.

Tabiiy sharoitdagi kuzatuvlar reproduktiv strategiyaning yana bir muhim jihatini ko‘rsatdi: ikkala turda ham vegetativ ko‘payish deyarli kuzatilmadi, populyatsiyaning yangilanishi asosan urug‘ hisobiga kechadi. Yosh maysalar odatda ona tupga yaqin, taxminan 1–2 m masofada uchraydi va ularning soni kam bo‘ladi. Urug‘lar iyun oyining oxiridan boshlab tarqalib, tosh-shag‘alli substratda tinim holatiga o‘tadi; keyingi sovuq davr tabiiy stratifikatsiya vazifasini bajaradi. Shu sabab kuzgi ekishning yuqoriroq samaradorligi laboratoriya natijalari bilan emas, tabiiy hayot siklining o‘zi bilan ham uyg‘unlashadi. Saqlash muddati ortishi bilan unuvchanlikning pasayishi esa ex situ kolleksiyalar uchun yangi yig‘ilgan urug‘dan foydalanish va urug‘ bankida saqlash rejimini nazorat qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Natijalarni qiyosiy talqin qilishda *Ph. sogdiana* ning yuqoriroq laboratoriya unuvchanligi, erta unishi, qisqaroq virginil davri va yuqoriroq real urug‘ mahsuldorligi bir-birini to‘ldiruvchi belgilar sifatida namoyon bo‘ladi. *Ph. anisochila* da esa bu ko‘rsatkichlarning nisbatan pastligi tor areal va kichik populyatsiyalar sharoitida tabiiy qayta tiklanishni cheklashi mumkin. Shu bois ko‘paytirish ishlarida faqat nihol olish foiziga emas, maysa va yuvenil bosqichlardan immatur bosqichga o‘tish barqarorligiga ham e'tibor berish zarur. Tajribada olingan 20 °C harorat, 2–3 sm ekish chuqurligi va 1–15-oktabr ekish muddati kamyob *Phlomoides* turlarini nazorat qilinadigan sharoitda ko‘paytirish uchun birlamchi texnologik mezonlar sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa. *Ph. anisochila* va *Ph. sogdiana* urug‘lari uchun 20 °C optimal laboratoriya harorati, 2–3 sm esa eng samarali dala ekish chuqurligi bo‘ldi. *Ph. sogdiana* ning laboratoriya unuvchanligi 65,7%, *Ph. anisochila* niki 50,2% ni tashkil etdi; kuzgi ekish bahorgiga nisbatan 5–10% yuqori natija berdi. *Ph. sogdiana* ning virginil davri qisqaroq va urug‘ mahsuldorligi yuqoriroq bo‘lib, *Ph. anisochila* ning reproduktiv salohiyati nisbatan past ekanligi aniqlandi. Natijalar ushbu kamyob va endem turlarni urug‘dan ko‘paytirish, ko‘chat materialini olish va ex situ muhofaza qilish tadbirlarini ilmiy asoslash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Работнов Т.Н. Вопросы изучения состава популяций для целей фитоценологии // Проблемы ботаники. – Л., 1946. – Вып. 1. – С. 465–483.

2. Работнов Т.Н. Жизненный цикл многолетних травянистых растений в луговых ценозах // Труды Ботанического института АН СССР. Сер. 3. – Л., 1950. – Вып. 6. – С. 7–204.

3. Жукова Л.А. Онтогенез и циклы воспроизведения растений // Общая биология. – 1983. – № 3 (44). – С. 361–374.

4. Фирсова М.К. Методы определения качества семян. – М.: Сельхозлитература, 1959. – 351 с.
5. Алексейчук Г.Н., Ламан Н.А. Физиологическое качество семян сельскохозяйственных культур и методы его оценки. – Минск: Право и экономика, 2005. – 48 с.
6. Серебряков И.Г. Морфология вегетативных органов высших растений. – М.: Наука, 1952. – С. 15–291.
7. Eyvazadeh Khosroshahi E., Salmaki Y. Nutlet micromorphology and its systematic implications in *Phlomoides* Moench (Lamiaceae) // Nova Biologica Reperta. – 2018. – Vol. 5, No. 1. – P. 82–94.
8. Salmaki Y., Zarre S., Ryding O., Lindqvist C., Schneunert A., Brauchler C., Heubl G. Phylogeny of the tribe Phlomideae (Lamioideae: Lamiaceae) with special focus on Eremostachys and *Phlomoides* // Taxon. – 2012. – Vol. 61, No. 1. – P. 161–179.

UO'K: 575.5.113:17:577.21.633.111.1

GOSSYPIUM HERBACEUM VA *G. ANOMALUM* TURLARI HAMDA ULARNING DURAGAYLARIDA MEYOZ JARAYONINING SITOGENETIK TAHLILI

M.D.Xolova, kat.i.x., Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, Toshkent davlat tibbiyot universiteti Chirchiq filiali, Toshkent
D.Q.Ernazarova, prof., Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Toshkent
M.T.Xidirov, kat.i.x., Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent
A.A.Iskandarov, kat.i.x., Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, Toshkent davlat tibbiyot universiteti Chirchiq filiali, Toshkent
D.Sh.Erjigitov, kat.i.x., Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, Toshkent
S.K.Arslanova, kat.i.x., Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, Toshkent
O.A.Muhammadiyev, assistent o'qituvchi, Toshkent davlat tibbiyot universiteti, Toshkent
M.N.Arabova, doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent
F.N.Kushanov, prof., Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Toshkent

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda G.herbaceum subsp.frutescens, subsp.pseudoarboreum va G.anomalum turlari, shuningdek, ularning F_1 va F_1C (sun'iy sintetik duragay) larida meyoz jarayonining buzilishlari борасидаги маълумотлар келтирилган. Maqolada o'rganilgan namunalar bo'yicha meyotik indeks, anormal shakllangan sporadalar кўрсаткичлари va turli xildagi meyotik buzilishlar (mikroyadroli tetradalar va boshqa anormal sporadalar) keltirilgan. Natijalar duragaylanishning, ayniqsa uzoq qarindosh turlar o'rtasida, meyoz jarayonining beqarorlashuviga olib kelishini ko'rsatdi. Ota-ona turlarida meyotik indeks yuqori va anormal sporadalar foizi past bo'lgan bo'lsa, duragaylarda bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada o'zgargan. Turli duragay kombinatsiyalarida meyotik buzilishlarning turlicha darajasi aniqlandi, bu esa genetik nomuvofiqlik darajasining farqini aks ettiradi. Mikroyadroli tetradalar va boshqa anormal sporalar shakllarining mavjudligi duragaylarda xromosoma segregatsiyasining buzilganligini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot natijalari Gossypium turlari o'rtasidagi filogenetik munosabatlarni aniqlash, duragaylash selektsiyasi strategiyalarini optimallashtirish va duragay avlodlarda unumdorlikning pasayish mexanizmlarini tushunish uchun muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Gossypium, meyoz, meyotik indeks, anormal sporadalar, mikroyadro, duragaylanish, sitogenetika.*

Аннотация. *В данном исследовании типы G.herbaceum subsp.frutescens, subsp.pseudoarboreum и G.anomalum, а также нарушения мехионного процесса в их F_1 и F_1C (искусственный синтетический гибриды) также являются приведены данные. В статье перечислены мейотический индекс, аномально сформированные спорады кюсаткишаларри и различные мейотические нарушения микроядрои тетры и другие аномальные спорады. Результаты показали, что гибриды, особенно между отдаленными родственными видами, приводят к дестабилизации процесса меозы. В то время как у родительских видов миотический индекс был высоким, а процент аномальных спор низким, у гибридов эти*

показатели существенно изменились. В разных гибридных комбинациях были выявлены различные уровни мейотических нарушений, что отражает разницу в уровне генетической несовместимости. Наличие микроядерных тетр и других аномальных спор подтверждает, что сегрегация хромосом у гибридов нарушена. Результаты данного исследования важны для выявления филогенетических связей между видами Gossypium, оптимизации стратегий гибридизационного отбора и понимания механизмов снижения продуктивности в гибридных поколениях.

***Ключевые слова**: Gossypium, мейоз, мейотический индекс, аномальные спорады, микроядро, гибриды, цитогенетика.*

***Abstract.** In this study, cytogenetic disorders of the herbase process were studied G.herbaceum subsp.frutescens, subsp.pseudoarboreum and G.anomalum species, as well as in their hybrids in F_1 and F_1C. The article presents the meiosis index, the percentage of abnormally formed spores, and various types of meiosis disorders (micronuclear tetrads and other abnormal spores) for the studied samples. The results showed that hybridization, especially among distantly related species, leads to the destabilization of the hybridization process. While the parental species had a high meiosis index and a low percentage of abnormal spores, these indicators changed significantly in the hybrids. Different degrees of meiosis disorders were identified in different hybrid combinations, reflecting differences in the degree of genetic incompatibility. The presence of micronucleated tetrads and other abnormal spore forms confirms the disruption of chromosomal segregation in the hybrids. The results of this study are important for determining the phylogenetic relationships between Gossypium species, optimizing hybridization selection strategies, and understanding the mechanisms of declining productivity in hybrid generations.*

***Key words:** Gossypium, meiosis, meiosis index, abnormal spores, micronucleus, hybridization, cytogenetics.*

Kirish. O‘simliklar seleksiyasida uzoq va yaqin qarindosh turlarni chatishtirish orqali genetik xilma-xillikni oshirish va yangi, qimmatli xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan duragay avlodlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, turli genetik fondagi ota-ona formalarini chatishtirish duragaylarda meyoz jarayonining buzilishiga olib kelishi mumkin, bu esa gametalarning rivojlanishiga va natijada unumdorlikning pasayishiga sabab bo‘ladi [5]. Meyoz - jinsiy ko‘payish uchun zarur bo‘lgan reduktsion bo‘linish jarayoni bo‘lib, gomologik xromosomalarning konjugatsiyasi va segregatsiyasi, shuningdek, genetik rekombinatsiya kabi murakkab bosqichlarni o‘z ichiga oladi [2]. Meyozning buzilishi aneuploidiya, poliploidiya va genetik beqarorlik kabi anormalliklarga olib kelishi mumkin.

Gossypium L. Dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va muhim tolali ekin hisoblanadi. Ushbu jins turli xil diploid va tetraploid turlarni o‘z ichiga oladi, ular o‘rtasida duragaylash selektsiya dasturlarida keng qo‘llaniladi [1]. Biroq, uzoq qarindosh turlarni chatishtirishda duragay avlodlarda unumdorlikning pasayishi kuzatilishi mumkin. Bu asosan, meyoz jarayonining buzilishi bilan bog‘liq. Mazkur ishning asosiy maqsadi *G herbaceum* va *G.anomalum* turlari hamda ularning duragay avlodlarida meyozning borishini qiyosiy o‘rganish va duragaylanishning meyoz jarayoni barqarorligiga ko‘rsatadigan ta’sirini ilmiy asoslab berishdan iborat.

Materiallar va Usullar: Tadqiqot obyekti sifatida *G.herbaceum* subsp.*frutescens*, *G.herbaceum* subsp. *pseudoarboreum* va *G. anomalum* turlari hamda ularning F_1 va F_1C duragay avlodlari tanlab olindi. Barcha namuna o‘simliklari bir xil agrotexnik sharoitlarda yetishtirildi. Meyoz jarayonini sitologik tahlil qilish maqsadida gullashdan oldingi g‘unchalar maxsus fiksatorlar yordamida fiksatsiya qilindi va standart sitologik bo‘yash usullari qo‘llanildi. Tayyorlangan preparatlar yorug‘lik mikroskopida (40× kattalashtirishda) tahlil etildi. Har bir namuna bo‘yicha meyoz bosqichlarini aniq baholash uchun kamida 150-200 ta sporada kuzatuv olib borildi. Meyotik indeks va anormal shakllangan sporadalar foizi aniqlandi. Shuningdek, turli xildagi meyotik buzilishlar, jumladan mikroyadroli tetradalar va boshqa anormal sporalar shakllari qayd etildi va ularning foizi hisoblab chiqildi. Olingan ma’lumotlar statistik tahlil qilindi.

O‘tkazilgan sitogenetik tahlillar natijasida o‘rganilayotgan *G.anomalum*, *G.herbaceum* namunalari va ular ishtirokidagi duragaylarning mikrosporogenez jarayoni barqarorligi turlicha ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

O‘rganilgan namunalarining sitogenetik ko‘rsatkichlari


t/r	namuna nomi	meiotik indeks (%)	diada va poliadalar (%)	mikroyadroli tetradalar (%)
1	*G. anomalum*	98,59±0,44	1,0±0,10	0,1±0,05
2	subsp. *frutescens*	96,66±0,13	2,5±0,25	0,4±0,12
3	subsp. *pseudoarboreum*	98,59±0,44	1,2±0,15	0,2±0,08
4	26D F_1C subsp. *pseudoarboreum*×*G.anomalum*	85,71±2,17	27,0±1,55	4,5±0,85
5	27D F_1C subsp. *pseudoarboreum*×*G.anomalum*	45,50±3,85	45,0±2,40	12,8±1,45
6	31D F_1C subsp.*frutescens*×*G.anomalum*	91,27±1,00	23,0±1,12	2,1±0,40
7	32D F_1C subsp.*frutescens*×*G.anomalum*	91,74±1,52	18,0±1,35	1,8±0,35

Olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, nazorat varianti va yovvoyi kenja turlar *G.anomalum*, subsp.*frutescens*, subsp.*pseudoarboreum* eng yuqori genetik barqarorlikka ega bo‘lib, ularda meiotik indeks 96,66% dan 98,59% gacha bo‘lgan yuqori ko‘rsatkichlarni namoyon etdi. Ushbu namunalarda mikroyadrolar va anomal bo‘linish mahsulotlari minimal darajada qayd etildi, bu esa mikrosporogenez jarayonining qat’iy tartibda kechishidan dalolat beradi.



1-rasm. F_1C duragaylarida mikrosporogenez jarayonidagi anomal tetradalar va diadalar.

Aksincha, duragay namunalarda, ayniqsa 27D F_1C kombinatsiyasida kuchli genetik nomutanosiblik kuzatildi. Ushbu duragayda meiotik indeks keskin pasayib, 45,50 % ni tashkil etdi, diada va poliadalar miqdori esa 45,0% gacha ko‘tarildi. Bu holat genomlararo nomutanosiblik natijasida xromosomalarning qutblarga noto‘g‘ri taqsimlanishi va 100 ta tetradada o‘rtacha 12,8 ta mikroyadro hosil bo‘lishi bilan tasdiqlanadi. Shu bilan birga, 31D va 32D F_1C duragaylari nisbatan barqaror meiotik ko‘rsatkichlari 91,27% va 91,74% bilan ajralib turdi. Garchi ularda ham ma’lum darajada mikroyadrolar kuzatilgan bo‘lsada 1,8-2,1 normal tetradalar hosil bo‘lish miqdori yuqoriligi 77-82% bu namunalarning issiqlikka chidamlilik xususiyatlarini saqlagan holda, seleksiya jarayonida istiqbolli ashyo bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi. Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, meiotik indeksning yuqoriligi va mikroyadrolar sonining kamligi o‘simlikning tashqi muhit stress omillariga moslashuvchanlik mexanizmlari ishga tushganligidan dalolat beruvchi asosiy sitogenetik biomarkerlardir.



Muhokama. Olingan natijalar *Gossypium* turlari o‘rtasida duragaylanish meyoz jarayonining buzilishiga olib kelishini tasdiqlaydi. Ota-ona turlarida meyozning yuqori barqarorligi ularning genetik muvofiqligini ko‘rsatsa, duragaylarda meyotik indeksning pasayishi va anormal sporadalar foizining oshishi genetik nomuvofiqlik, gomologik xromosomalarning konjugatsiyasi va segregatsiyasidagi muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [3]. Duragaylarda mikroyadroli tetradalarning mavjudligi anafaza bosqichida xromosomalarning noto‘g‘ri ajralishi va yo‘qolishini ko‘rsatadi [4]. Turli duragay kombinatsiyalarida meyotik buzilishlarning turlicha darajasi ota-ona genomlari o‘rtasidagi genetik masofaning farqini aks ettirishi mumkin. Ayniqsa, yuqori darajadagi anomaliyalarni ko‘rsatgan duragaylar 27D F_1C subsp.*pseudoarboreum* × *G.anomalum* bu genetik kombinatsiyada jiddiy genetik nomuvofiqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot natijalari *Gossypium* seleksiyasi strategiyasini takomillashtirish hamda duragaylarning hosildorlik ko‘rsatkichlarini barqarorlashtirishda amaliy ahamiyatga ega. Aniqlangan genetik nomuvofiqliklar mexanizmlarini molekulyar darajada to‘liq ochib berish maqsadida kelgusida chuqurlashtirilgan genetik tahlillarni o‘tkazish dolzarb hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot *Gossypium* turlari o‘rtasidagi uzoq masofali duragaylanishning meyoz jarayoniga sezilarli salbiy ta’sirini, xususan, xromosomalar konjugatsiyasi va segregatsiyasidagi jiddiy buzilishlarni asosladi. *G.herbaceum* va *G.anomalum* duragaylarida meyotik indeksning pasayishi, mikroyadroli tetradalar hamda anormal sporalar sonining ortishi genomlararo nomutanosiblik va xromosomalararo gomologiyaning yetarli emasligidan dalolat beradi. Turli duragay kombinatsiyalarida meyotik beqarorlik darajasining turlicha ekanligi aniqlandi. Ushbu natijalar g‘o‘za seleksiyasida duragaylarning reproduktiv qobiliyatini oldindan baholash va seleksion ishlarda yuqori sifatli gametalarni shakllantiruvchi duragaylarni tanlab olishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Umumiy holda, tadqiqot *Gossypium* sitogenetikasi bo‘yicha ilmiy qarashlarni boyitib, seleksion jarayonni optimallashtirish uchun muhim tavsiyalar beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Fryxell, P. A. (1979). The natural history of the cotton tribe (Malvaceae, tribe Gossypieae). Texas A&M University Press.

2. Lodish, H., Berk, A., Zipursky, S. L., Matsudaira, P., Baltimore, D., & Darnell, J. E. (2000). Molecular cell biology (4th ed.). W. H. Freeman.

3. Ramsey, J., & Schemske, D. W. (1998). Pathways, mechanisms, and rates of polyploid formation in flowering plants. Annual Review of Ecology and Systematics, 29(1), 467–501. https://doi.org/10.1146/annurev.ecolsys.29.1.467

4. Schubert, I., & Oud, J. L. (1997). Micronuclei in plant cells: A review. Subcellular Biochemistry, 29, 359–388. https://doi.org/10.1007/978-1-4899-1763-8_16

5. Kholova, M. D., Ernazarova, D. K., Azimova, L. A., Erjigitov, D. S., Rafieva, F. U., Khidirov, M. T.,... & Kushanov, F. N. (2025). Genetic improvement of cultivated cotton (Gossypium hirsutum) for drought and pest resistance through hybridization with wild species. Journal of Plant Interactions, 20(1), 2589531.

UO’K 595.384

PONTASTACUS SP. (CRUSTACEA: DECAPODA) TURINING MORFOMETRIK XUSUSIYATLARI VA TANA BELGILARINING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

A.Xusanov, prof., b.f.d., Andijon davlat universiteti, Andijon
A.Yaxyoyev, tayanch doktorant, Andijon davlat universiteti, Andijon
M.Xakimova, o‘qituvchi, Andijon davlat universiteti, Andijon
R.Matyoqubova, talaba, Andijon davlat universiteti, Andijon

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda Andijonning sharqiy qismidan (O‘zbekiston, Xo‘jaobod) yig‘ilgan Pontastacus sp. turi namunalarining morfometrik xususiyatlari, tana belgilarining o‘zgaruvchanligi va o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish maqsadida 2025–2026-yillarda jami 42 ta qisqichbaqa namunasi tahlil qilindi.*

Namunalar orasida 8 ta erkak va 34 ta urg‘ochi individ qayd etildi. O‘rganilgan namunalarga asosan, qisqichbaqalarning tana umumiy uzunligi 44.7–95.0 mm, tana og‘irligi esa 2.0–11.0 g oralig‘ida bo‘ldi. O‘rtacha tana uzunligi 70.51 ± 12.39 mm, o‘rtacha tana og‘irligi esa 5.83 ± 2.37 g ni tashkil etdi.

Eng yuqori individual o'zgaruvchanlik tana og'irligi hamda chap va o'ng qisqich uzunliklarida kuzatildi. Jinslar bo'yicha ayrim morfometrik farqlar qayd etilgan bo'lsa-da, erkak va urg'ochi individlar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanmadi (p > 0.05). Tana umumiy uzunligi tana og'irligi (r = 0.953) va boshqa asosiy morfometrik belgilar bilan kuchli ijobiy bog'liqlik ko'rsatdi. Fulton kondisiya faktori o'rtacha 1.62 ± 0.31 ni tashkil etib, jinslar o'rtasida ishonchli farq qilmadi. Olingan natijalar ushbu ko'l populyatsiyasida Pontastacus sp. ning morfometrik tuzilishi bo'yicha dastlabki ilmiy ma'lumotlarni beradi.

Kalit so'zlar: *Pontastacus sp., chuchuk suv qisqichbaqasi, morfometriya, tana belgilari o'zgaruvchanligi, korrelyatsion tahlil, Farg'ona vodiysi, O'zbekiston.*

Аннотация. *В настоящем исследовании с целью изучения морфометрических характеристик, изменчивости признаков тела и их взаимосвязей у особей вида Pontastacus sp., собранных в восточной части Андижана (Узбекистан, Ходжаабад), в течение 2025–2026 годов было проанализировано в общей сложности 42 экземпляра раков.*

Среди образцов зарегистрировано 8 самцов и 34 самки. По изученным образцам общая длина тела раков составила от 44,7 до 95,0 мм, а масса тела – от 2,0 до 11,0 г. Средняя длина тела составила 70,51 ± 12,39 мм, а средняя масса тела – 5,83 ± 2,37 г.

Наибольшая индивидуальная изменчивость наблюдалась по массе тела, а также по длине левой и правой клешней. Хотя были отмечены некоторые морфометрические различия по полу, статистически достоверных различий между самцами и самками не выявлено (p > 0,05). Общая длина тела показала сильную положительную корреляцию с массой тела (r = 0,953) и с другими основными морфометрическими признаками. Фактор упитанности Фултона в среднем составил 1,62 ± 0,31 и достоверно не различался между полами. Полученные результаты предоставляют предварительные научные данные о морфометрической структуре Pontastacus sp. в данной озёрной популяции.

Ключевые слова: *Pontastacus sp., пресноводный рак, морфометрия, изменчивость признаков тела, корреляционный анализ, Ферганская долина, Узбекистан.*

Abstract. *In this study, a total of 42 crayfish specimens were analyzed during 2025–2026 in order to investigate the morphometric characteristics, the variability of body traits, and their interrelationships in specimens of Pontastacus sp. collected from the eastern part of Andijan (Uzbekistan, Xo'jaobod).*

Among the specimens, 8 males and 34 females were recorded. Based on the studied specimens, the total body length of the crayfish ranged from 44.7 to 95.0 mm, and body weight from 2.0 to 11.0 g. The mean body length was 70.51 ± 12.39 mm, and the mean body weight was 5.83 ± 2.37 g.

The highest individual variability was observed in body weight and in the lengths of the left and right chelae. Although some morphometric differences between the sexes were recorded, no statistically significant difference was detected between males and females (p > 0.05). Total body length showed a strong positive correlation with body weight (r = 0.953) and with other main morphometric traits. The Fulton condition factor averaged 1.62 ± 0.31 and did not differ significantly between the sexes. The obtained results provide preliminary scientific data on the morphometric structure of Pontastacus sp. in this lake population.

Key words*: Pontastacus sp., freshwater crayfish, morphometry, variability of body traits, correlation analysis, Fergana Valley, Uzbekistan.*

Kirish. Chuchuk suv qisqichbaqalari suv ekotizimlarining muhim bentik organizmlaridan biri sanaladi. Ular oziqa zanjiri, organik moddalarning aylanishi, suv o'simliklari va suv ostida yashovchi organizmlar sonini tartibga solishda muhim ekologik ahamiyat kasb etadi.

Pontastacus Bott, 1950 urug'iga mansub chuchuk suv qisqichbaqalari Decapoda turkumiga mansub. Ushbu urug'ga mansub turlar, xususan *Pontastacus leptodactylus* Eschscholtz, 1823, Yevroosiyo chuchuk suv havzalarida keng tarqalgan va ekologik hamda iqtisodiy jihatdan muhim tur sifatida qayd etilgan (Alvanou et al., 2023; Bláha et al., 2023; Gençay et al., 2024).

Pontastacus leptodactylus turi eng ko'p o'rganilgan turlardan biri bo'lib, uning tabiiy areali asosan Ponto-Kaspiy mintaqasi – Qora dengiz, Azov va Kaspiy dengizi havzalari bilan bog'liq.

So‘nggi tadqiqotlarda ushbu tur Turkiya, Eron, Qozog‘iston, Kavkaz, shimoli-g‘arbiy Rossiya va Xitoyning Shinjon (Irtysh daryosi havzasi) hududlarida ham qayd etilgan (Berezina et al., 2021; Bláha et al., 2023; Khoshkholgh & Nazari, 2019; Li et al., 2025). Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston hududida esa *Pontastacus* sp. populyasiyalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Chuchuk suv qisqichbaqalarida morfometrik belgilarni o‘rganish populyasiya tuzilishi, individual o‘sish, jinsiy dimorfizm va geografik farqlanishni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Karapaks, qorin, qisqichlar va tana o‘lchamlariga oid ko‘rsatkichlar tur yoki populyasiyalararo farqlarni, shuningdek lokal ekologik sharoitlarga moslashuv darajasini baholash imkonini beradi (Imentai et al., 2023; Rudolph et al., 2016). Bunday yondashuv, ayniqsa morfologik jihatdan o‘xshash populyasiyalarni farqlash va muhofaza choralarini ishlab chiqishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jinsiy dimorfizm ham qisqichbaqalar morfometriyasida muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Ko‘plab tadqiqotlarda erkak individlarda karapaks va qisqichlar kattaroq, urg‘ochilarda esa qorin kengligi yuqoriroq bo‘lishi qayd etilgan; bu farqlar erkaklarda raqobat va juftlashish, urg‘ochilarda esa tuxum ko‘tarish va ko‘payish funksiyasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin (Dartay & Ateşşahin, 2013; Gençay et al., 2024; Roljić et al., 2019).

O‘zbekiston va unga tutash hududlarda *Pontastacus* sp. populyasiyalarining morfometrik tuzilishi, jinsiy tarkibi va uzunlik–og‘irlik munosabati bo‘yicha ma’lumotlar yetarli emas, mavjud tadqiqotlar asosan Turkiya, Eron, Kavkaz, Sharqiy Yevropa, Qozog‘iston va Xitoy populyasiyalarini qamrab olgan (Bláha et al., 2023; Khoshkholgh & Nazari, 2019; Li et al., 2025). Shu bois O‘zbekistonning sharqiy Farg‘ona vodiysidagi populyasiyani o‘rganish turning fenotipik o‘zgaruvchanligi va ekologik holatini dastlabki baholash uchun muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning maqsadi ilk marotaba O‘zbekistonning sharqiy Farg‘ona vodiysida tarqalgan *Pontastacus* sp. namunalarining asosiy morfometrik ko‘rsatkichlarini, tana belgilarining o‘zgaruvchanligi va o‘zaro bog‘liqligini, jinslar bo‘yicha farqlanishini hamda individlarning umumiy holatini baholashdan iborat.

Materiallar va uslublar. Ushbu tadqiqot *Pontastacus* sp. namunalarining morfometrik o‘lchamlarini o‘rganish maqsadida olib borildi. Tadqiqot materiali 2025 va 2026-yillarning aprel–may oylarida Andijon viloyati Xo‘jaobod tumani Karnaychi qishlog‘i yaqinidagi tabiiy ko‘ldan yig‘ildi (40°31′00.8″N, 72°38′22.4″E).

Qisqichbaqa namunalari qo‘l va gidrobiologik suv tori yordamida yig‘ildi. Namunalar asosan qirg‘oqbo‘yi sayoz qismlaridan, toshlar ostidan hamda suv o‘tlari orasidan terib olindi. Bu usul suv havzasining bentik va qirg‘oqbo‘yi kichik yashash muhitida yashovchi individlarni aniqlash va yig‘ish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida jami 42 ta *Pontastacus* sp. turi morfometrik tahlil uchun ajratib olindi. Namunalar laboratoriya sharoitida tekshirildi va har bir individning asosiy tana o‘lchamlari qayd etildi. Jins ventral (qorin tomondagi) morfologik belgilar asosida aniqlandi: erkak individlar gonopodlarning mavjudligi va joylashuvi bo‘yicha, urg‘ochilar esa ventral tuzilish xususiyatlari bo‘yicha ajratildi. Tahlil qilingan namunalar orasida 8 ta erkak va 34 ta urg‘ochi individ qayd etildi.

Har bir individning tana umumiy uzunligi va asosiy morfometrik ko‘rsatkichlari oddiy shtangensirkul yordamida 0,1 mm aniqlikda o‘lchandi. Tana og‘irligi esa 0,01 g aniqlikdagi raqamli tarozi yordamida o‘lchandi. O‘lchash Rhodes va Holdich (1984) taklif etgan umumiy sxema asosida, uni *P. leptodactylus* uchun qo‘llagan Gençay va boshqalar (2024) usuliga muvofiq amalga oshirildi. Quyidagi belgilar qayd etildi: tana umumiy uzunligi – rostrum uchidan telsonning orqa chetigacha (TL); karapaksning eng keng joyidagi kengligi (CW); tana kengligi (BW); qorin kengligi (AW); rostrum uzunligi (RL); telson uzunligi (TEL); o'ng qisqich uzunligi (RChL); chap qisqich uzunligi (LChL); yurish oyog‘i uzunligi (PL); telson kengligi (TEW); va tana og'irligi (W).

Tana umumiy uzunligi bilan boshqa morfometrik belgilar o‘rtasidagi bog‘liqlik Pirson korrelyasiya koyeffisiyenti asosida hisoblandi. Jinslar bo‘yicha morfometrik ko‘rsatkichlar taqqoslanganda erkak va urg‘ochi individlar uchun o‘rtacha qiymat va standart og‘ish hisoblandi. Erkak va urg‘ochi individlar orasidagi farqlarni aniqlash uchun Welch t-testi qo‘llandi, chunki guruhlar dispersiyalarining tengligi taxmin qilinmadi. Individlarning umumiy holatini baholash

uchun Fulton kondisiya faktori $K = 100 \times W / L^3$ (W – og‘irlik, g; L – tana umumiy uzunligi, sm) formulasi bo‘yicha hisoblandi.

Morfometrik belgilar bo‘yicha individual o‘zgaruvchanlik variatsiya koyeffisiyenti (CV, %) yordamida aniqlandi. Shuningdek, asosiy tana qismlarining tana umumiy uzunligiga nisbiy ulushi foizlarda hisoblandi. O‘ng va chap qisqich uzunliklari o‘rtasidagi farq individual assimetriyani baholash uchun alohida tahlil qilindi.

Statistik tahlillar PAST, Microsoft Excel va OriginPro 2024 dasturlarida bajarildi.

Natijalar. O‘rganilgan 42 ta *Pontastacus* sp. namunasining tana umumiy uzunligi, karapaks o‘lchami, tana va qorin kengligi, rostrum, telson, o‘ng va chap qisqich hamda yurish oyog‘i uzunligi va tana og‘irligi o‘lchandi. Tana umumiy uzunligi 44.7–95.0 mm (o‘rtacha 70.51 ± 12.39 mm), tana og‘irligi esa 2.0–11.0 g (o‘rtacha 5.83 ± 2.37 g) oralig‘ida bo‘ldi. Qolgan belgilar ham keng diapazonda o‘zgarib, o‘rganilgan populyatsiyada morfometrik xilma-xillik mavjudligini ko‘rsatdi (1-jadval).

1-jadval

***Pontastacus* sp. namunalarining asosiy morfometrik ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkich	N	Min	Max	O‘rtacha ± SD	SE	CV (%)
TL	42	44.7	95.0	70.51 ± 12.39	1.91	17.57
CW	42	12.6	23.4	17.90 ± 3.02	0.47	16.84
BW	42	9.3	18.3	14.32 ± 2.17	0.33	15.12
AW	42	8.1	16.5	12.39 ± 2.05	0.32	16.57
RL	42	3.4	12.1	8.02 ± 1.73	0.27	21.61
TEL	42	7.8	18.3	11.50 ± 2.25	0.35	19.57
RCHL	42	11.0	32.0	20.31 ± 5.53	0.85	27.23
LCHL	42	5.2	32.2	19.53 ± 5.80	0.89	29.69
PL	42	12.0	31.5	20.80 ± 4.39	0.68	21.12
TEW	42	9.2	19.2	13.72 ± 2.94	0.45	21.44
W	42	2.0	11.0	5.83 ± 2.37	0.37	40.59

Izoh: TL – tana umumiy uzunligi; CW – karapaks o’lchami; BW – tana kengligi; AW – qorin kengligi; RL – rostrum uzunligi; TEL – telson uzunligi; RCHL – o’ng qisqich uzunligi; LCHL – chap qisqich uzunligi; PL – yurish oyog’i uzunligi; TEW – telson kengligi; W – tana og’irligi.

Variatsiya koyeffisiyenti bo‘yicha eng yuqori o‘zgaruvchanlik tana og‘irligida kuzatildi (CV = 40.59%). Qisqich o‘lchamlarida ham nisbatan yuqori o‘zgaruvchanlik aniqlanib, chap qisqich uzunligi uchun CV = 29.69%, o‘ng qisqich uzunligi uchun esa CV = 27.23% bo‘ldi. Rostrum uzunligi, telson kengligi va yurish oyog‘i uzunligida o‘rtacha darajadagi o‘zgaruvchanlik kuzatildi. Nisbatan barqaror belgilar tana kengligi, qorin kengligi va karapaks o‘lchami bo‘ldi (1-jadval). Ushbu natijalar *Pontastacus* sp. populyasiyasida tana og‘irligi va qisqich uzunliklari eng o‘zgaruvchan morfometrik belgilar ekanligini ko‘rsatadi.

2-jadval

Erkak va urg‘ochi individlarning asosiy morfometrik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Erkaklar, n = 8	Urg‘ochilar, n = 34	p qiymat
TL	69.56 ± 12.52	70.73 ± 12.54	0.8171
CW	17.88 ± 3.08	17.91 ± 3.05	0.9782
BW	13.91 ± 2.63	14.41 ± 2.08	0.6277
AW	12.10 ± 2.78	12.45 ± 1.89	0.7412
RL	7.89 ± 2.02	8.05 ± 1.69	0.8402
TEL	11.90 ± 2.30	11.41 ± 2.26	0.5996
RCHL	18.66 ± 4.12	20.69 ± 5.79	0.2679
LCHL	18.44 ± 6.87	19.79 ± 5.60	0.6164
PL	19.90 ± 4.41	21.01 ± 4.43	0.5342
TEW	14.35 ± 3.28	13.57 ± 2.89	0.5493
W	5.56 ± 2.51	5.90 ± 2.37	0.7390

Izoh: p qiymatlar Wyelch t-testi asosida hisoblangan. Barcha holatlarda $p > 0.05$.

ЎзР ФА Микробиология институти "Микроорганизмлар тўплами"да сақланаётган штаммларнинг аксарияти саноатда муҳим аҳамиятга эга ва биотехнологик ишлаб чиқаришда қўлланилиши мумкин. Айниқса тўпламда *Bacillus thuringiensis* гуруҳи бактериялари алоҳида ўрин тутади – қишлоқ хўжалиги экинларининг турли зараркунандаларига қарши юқори патоген фаолликга эга бўлган штаммлар мавжуд.

Тадқиқотнинг мақсади: Микроорганизмлар тўпламида сақланаётган *Bacillus thuringiensis* штаммларининг ҳаётчанлиги ва биологик самарадорлигини аниқлаш.

Тадқиқот услублари: Бактерияларни +4°C ҳароратда даврий қайта экиш, минерал мойи остида, лиофил қуритилган ва спора шаклда сақланади [12,13]. Бактерияларни 15 йил сақлашдан сўнг уларнинг ҳаётчанлиги, ҳужайра титри ва айрим физиологик хусусиятлари ўрганилди.


Ҳужайра морфологияси (ҳужайраларнинг шакли, катталиги, вегетатив бўлиниши) CX21 FS1 (Хитой) ёруғлик микроскопи ёрдамида кузатилди. Колонияларнинг морфотипларини аниқлашда шакли, ранги, юзаси, профили, чеккаси, тузилиши асосий мезони аниқланди. Турли хил углеводларни ферментация қилиш қобилиятини аниқлаш учун углеводлар қўшилган суюқ озуқа муҳитида кузатилди.

Бактерияларнинг ҳаётчанлик ҳужайралар миқдори озуқа муҳитларига кетма-кет суюлтириб экиш орқали аниқланди. Экилган намуналар 2–3 сутка давомида инкубация қилинди ва ўсиб чиққан колониялар сони ҳисобланди. Культураларнинг яшовчанлиги лиофил қуритишдан олдин, қуритишдан сўнг ва сақлаш жараёнида ўрганилди. Ҳаётчанлик назоратга нисбатан фоиз ҳисобида баҳоланди.


B. thuringiensis штаммлари ГПБ озуқа муҳитида 10-15% NaCl тузи қўшилиб культураларнинг оптик зичлиги PE-5400V спектофометрда (LLC "PromEcoLab", Россия) ёрдамида 560 нм тўлқин узунлигида 2 марта суюлтириш билан ўлчанди. Штаммларнинг фитопатоген замбуруғларга нисбатан антагонистик фаоллиги агар блоклари усули ёрдамида ўрганилди [14].

Тадқиқот натижалари: Микроорганизмлар тўпламида узоқ муддатда сақланиб келинаётган *Bacillus thuringiensis* штаммлари табиий манбалардан тупроқлар, ўсимлик қолдиқлари ва нобуд бўлган турли ҳашаротлардан ажратиб олинган ҳамда "Микроорганизмлар тўплами"га даврий қайта экиш, лиофил қуритилган, минерал мойи остида, спора шаклида сақлашга топширилган. Сақлаш мобайнида морфологик ва физиологик хусусиятлари сезиларли даражада ўзгариши кузатилмади. Минерал мойи остида сақлашдан сўнг ҳужайра шаклини тиклаш учун 2-3 марта қайта экиш керак.

Bacillus thuringiensis тупроқда яшовчи, грамм-мусбат, спора ҳосил қилувчи бактерия бўлиб, унинг асосий ажралиб турадиган хусусияти споруляция босқичида оқсил кристалли қўшимчаларининг ҳосил бўлиши ҳисобланади. Ўрганилаётган *Bacillus thuringiensis* штаммларининг колонияларини гўшт пептонли агар муҳитига экилганда кул ранг ҳамда оқ рангли юмалоқ шаклда, бироз буришган, диаметри 2-3 мм, овал шаклли колониялар ҳосил қилди. Грамммусбат, суюқ озуқа муҳитида чўкма ва парда ҳосил бўлиши кузатилди. Шунингдек, агарли озуқа муҳитида спора ва кристалл ҳосил бўлиши 3-5 суткада якунланди. Ушбу морфологик хусусиятлари нисбатан сақлаш усулига қараб ўзгариб турди (1-расм).



Bacillus thuringiensis 70-5



Bacillus thuringiensis ЛМ 62-5

Расм 1. *Bacillus thuringiensis* штаммларининг ГПА агарли озуқа муҳитида 3 кунлик колонияси ва ҳужайра тузилиши

Микроорганизмлар тўпламида *Bt* штаммларини 15 йил давомида турли усулларда (лиофил қуритиш, минерал мойи остида, спора шаклида) сақлашда штаммлар учун лиофил қуритиш усули энг юқори фаолликни намоён этди. Бунда сақлаш муддатидан сўнг *Bacillus thuringiensis* 62-5 штамми ҳаётчанлиги 98,0% ни (ҳужайра титри $56x10^8$), *Bacillus thuringiensis* 70-5 штаммида — 95,0 % ни (ҳужайра титри $49x10^8$) ташкил этди. Бизнинг тажрибаларимизда лиофилизация жараёни ҳаётчанлигини узоқ муддат давомида барқарор сақлашда энг мақбул консервация усули эканлигини кўрсатди. Минерал мойи остида сақлаш усулида ўрганилаётган

Bt штаммларнинг ҳаётчанлиги нисбатан 88,0% ва 72,6% даражасида сақланиб қолди, бироқ ҳужайралар титри дастлабки кўрсаткичга (10^9) нисбатан 1-2 тартибга камайгани кузатилди.


Энг паст кўрсаткичлар штаммлар оддий спора шаклида (нормал шароитда қуруқ ҳолда) сақланганда қайд этилди. Штаммларнинг ҳаётчанлиги 15 йилдан сўнг 22-75x10^5 КХҚБ аниқланди. Бу сақлаш усули ҳимоя воситаларисиз (криопротекторлар ёки минерал мойи) спораларнинг узоқ муддатли сақланиш давомида аста-секин деградацияга учраши билан изоҳланиши мумкин (1-жадвал).

Жадвал 1

Турли хил сақлаш усулида бактерияларнинг ҳаётчанлиги

Бактерия штаммлари	Сақлаш усуллари (15 йилдан сўнг)	Ҳужайра титри (дастлабки титри 10^9)	Ҳаётчанлиги, %
Bacillus thuringiensis ЛМ 3	минерал мойи остида	37x10^7	88,0
	лиофил қуритилган усулда	35x10^8	72,5
	спора шаклда	22x10^5	75,2
Bacillus thuringiensis 70-5	минерал мойи остида	67x10^6	72,6
	лиофил қуритилган усулда	49x10^8	98,0
	спора шаклда	23x10^5	65,0
Bacillus thuringiensis 62-5	минерал мойи остида	63x10^7	78,0
	лиофил қуритилган усулда	56x10^8	92,0
	спора шаклда	75x10^5	72,0
Bacillus thuringiensis ЛМ 18	минерал мойи остида	58x10^6	75,0
	лиофил қуритилган усулда	42x10^7	72,0
	спора шаклда	38x10^5	56,0
Bacillus thuringiensis ЛМ 24	минерал мойи остида	45x10^7	86,0
	лиофил қуритилган усулда	36x10^6	72,0
	спора шаклда	49x10^5	62,0

Кейинги тажрибаларимизда *B. thuringiensis* бактерия штаммларини озуқа мухити таркибида концентрацияда ўстириб ўрганилди, ўрганилаётган штаммлар NaCl тузининг 10% гача концентрацияда оптимал ўсиши ва ривожланиши аниқланди.



2-расм. *Bacillus thuringiensis* штаммларининг озуқа муҳитида NaCl таъсирида ўсиш фаоллиги (OD), (72 соатдан сўнг)

Bacillus thuringiensis штаммларининг 10-15% NaCl концентрацияли озуқа муҳитларида ўсиш фаоллиги оптик зичлик (OD) кўрсаткичлари бўйича 24, 48, 72 соатдан сўнг баҳоланди, бунда туз миқдори ортиши билан бактерияларнинг биомассаси тўпланишини камайтириши аниқланди (1-расм). Штаммлар 10% NaCl шароитида энг юқори кўрсаткичлар Bt 62-5 (0,98±0,03) ва Bt 70-5 (0,95 ± 0,07) штаммларида қайд этилди. Озуқа муҳитда NaCl концентрацияси 15% гача оширилганда, Bt 70-5 штамми ўзининг юқори галотолерантлик хусусиятини намоён этиб, энг барқарор ўсиш фаоллигини (0,83±0,05) намоён этди. Шунингдек, Bt ЛМ 18 ва Bt ЛМ 24 штаммларида шўрланиш даражаси ортиши билан оптик зичлик сезиларли даражада пасайган бўлса, Bt ЛМ 3 штамми 15% ли туз концентрациясида бутунлай ингибирланди ва ўсиш кузатилмади.

Тўпламда 15 йил сақлашдан сўнг ўсимлик касалликларини қўзғатувчиларига қарши бактерияларнинг антагонистик фаоллигини аниқлаш натижалари 2-жадвалда келтирилган. Ушбу штаммларнинг фитопатоген замбуруғларга нисбатан таъсирини текшириш натижасида энг юқори антагонистик фаолликка эга бўлган штаммлар аниқланди. Хусусан, энг юқори антагонистик фаолликни *Bt* 70-5 штаммида турли фитопатоген замбуруғларга нисбатан 32±0,4 мм дан 35±2,7 мм гача ташкил этди. Шунингдек, *Bt* 62-5 штаммида 20±1,2 мм ва 30±1,5 мм диаметирда кузатилди (2-жадвал).

2-жадвал

***Bacillus thuringiensis* штаммларининг сақлашдан сўнг антагонистик фаоллиги**

№	Бактерия штаммлари	Антагонистик фаоллиги (ўсишни бостириш зонаси, мм)			
		Verticillium dahliae	*Fusarium oxysporum*	*Fusarium solani*	*Alternaria alternate*
1	*Bacillus thuringiensis* 70-5	30±1,9	32±0,4	35±2,7	28±0,5
2	*Bacillus thuringiensis* 62-5	30±1,5	20±1,2	22±1,9	0
3	*Bacillus thuringiensis ЛМ 3*	11±2,3	0	0,9±0,3	0
4	*Bacillus thuringiensis ЛМ 18*	15±1,4	0	0	10±0,3
5	*Bacillus thuringiensis ЛМ 24*	12±0,9	18±0,4	10±1,2	0

Bacillus thuringiensis бактерияларни сақлаш бўйича ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, сақлашдан сўнг бактерия штаммлари ўзларининг дастлабки кўрсаткичларига нисбатан антибиотик фаоллигини қисман йўқотган.



Fusarium oxysporum *Fusarium solani* *Alternaria alternate*

Расм.3. *Bacillus thuringiensis* 70-5 штамининг антагонистик фаоллиги
(чапда - Bt ЛМ 18; ўнгда - Bt 70-5)

Олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, спора ҳосил қилувчи бактериялар штаммларининг антагонистик фаоллиги муайян фитопатоген турига боғлиқ равишда сезиларли даражада фарқ қилади. Масалан, *Bacillus thuringiensis* 70-5 штамми сақлашдан кейинги антибиотик фаоллиги *Verticillium dahliae, Fusarium oxysporum* ва *Fusarium solani* каби фитопатогенларга қарши юқори ингибитирловчи (ўсишни бостирувчи) таъсирини сақлаб қолган.

Хулоса қилиб айтганда узоқ муддатли сақлаш усулларида (лиофил қуритиш, минерал мойи остида, спора шаклида) *Bacillus thuringiensis штаммларининг айрим хусусиятлари барқарорлиги аниқланди. Сақлаш усулларида морфологик-культурал ҳамда физиологик, биокимвий белгилари сақланиб қолганлиги аниқланди.* Тадқиқот натижалари ушбу консервация усули (қайси усули) ҳужайраларнинг юқори ҳаётчанлигини ва ўзига хос (специфик) хусусиятлари фенотипик барқарорлигини таъминлашини кўрсатди. Бироқ, сақлаш жараёнида штаммларнинг дастлабки антагонистик потенциали қисман сусайиши (тўлиқ сақланмаслиги) қайд этилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Штерншис М.В. и др. Биопрепараты на основе бактерий рода *Bacillus* для управления здоровьем растений //Новосибирск.: Издательство сибирского отделения Российской Академии наук.–2016.–284 с. – 2016.

2. Гуреева М.В., Грабович М. Ю. Экология микроорганизмов //Воронеж: Издательский дом ВГУ. – 2021. – С. 104-106.

3. Khalilov I.M., Bababekov Q., Abdullayev A.K., Usmonkulova A., Qalandarova M., Alamuratov R., Boboqulov M., Aliyev Z. Illustration of polyfunctional properties of insecticidal strains of Bacillus thuringiensis// International Journal of Membrane Science and Technology, 2023, Vol. 10, No. 2, pp 2359-2367.

4. Хужамшукуров Н.А. (2016) Влияние биопрепарата antibac_uz на хлопковую совку (helicoverpa armigera hb.) хлопчатника в условиях узбекистана// Вестник Алтайского государственного аграрного университета. N12 (146). С.18-25.

5. Belyaev F.F., Pospelova N.P., Lelyak F.F., Shternshis M., Shpatova T. The use of Bacillus spp. Strains for biocontrol of Ramularia leaf spot on strawberry and improving plant health in Western Siberia. Research Journal of Pharmaceutical, Biological and Chemical Sciences, 2016, 7(1): 1594-1606.

6. Donmez V.F., Uysal B.D., Erkol E.F., Sezai C.R. Biological control of root rot disease caused by Rhizoctonia solani Kuhn on potato and bean using antagonist bacteria. Acta scientiarum Polonorum. Hortorum cultus = Ogrodnictwo, 2015, 14(5): 29-40.

7. Haidar R., Deschamps A., Roudet J., Calvo-Garrido C., Bruez E., Rey P., Fermaud M. Multiorgan screening of efficient bacterial control agents against two major phathogen of grapevine. Biol. Control., 2016, 92: 55-65 (doi: 10.1016/j.biocontrol.2015.09.003).

8. Kumar P., Dubey R.C., Mahshwari D.K. *Bacillus* strain isolated from rhizosphere showed plant growth promoting and antagonistic activity against phythopathogens. Microbiol. Res., 2012, 167(8): 493-499 (doi: 10.1016/j.micres.2012.05.002).

9. Senaratne W. M. T. N., Jayaweera J. A. A. S. Comparison of microbial preservation methods: A narrative review //Germs. – 2024. – Т. 14. – №. 4. – С. 375.

10. Prakash, O.; Nimonkar, Y.; Desai, D. A recent overview of microbes and microbiome preservation. *Indian J Microbiol.* 2020, *60*, 297–309.

11. Júnior, L.L.Z.; Lopes, A.D.; Cordeiro, F.A.; et al. Cryopreservation at −75°C of *Agaricus subrufescens* on wheat grains with sucrose. *Brazilian J Microbiol.* 2018, *49*, 370–377.

12. Куплетская М. Б., Нетрусов А. И. Жизнеспособность лиофилизированных микроорганизмов после 50 лет хранения. // Микробиология. 2011. Том 80. № 6. С. 842.

13. Практикум по микробиологии // под ред. А.Н.Нетрусова, М. «Академия» 2005г. 600с.

14. Егоров Н.С. Основы учения об антибиотиках. – М: Изд. МГУ, 2003. 104с

УЎК 581.143:577.1

UNGERNIA VICTORIS ВА *UNGERNIA SEWERZOWII* (AMARYLLIDACEAE J.ST.-HIL.) ТУРЛАРИНИНГ ТАБИИЙ ЎСИМЛИКЛАРИ, *IN VITRO* ШАРОИТИДА РЕГЕНЕРАЦИЯ ҚИЛИНГАН ТЎҚИМАЛАРИ ҲАМДА КАЛЛУС КУЛЬТУРАЛАРИНИНГ АНТИОКСИДАНТ САЛОҲИЯТИНИ ҚИЁСИЙ БАҲОЛАШ

Ҳ.К.Жўраева, кич.и.х., ЎзРФА Ботаника институти ҳузуридаги академик Ф.Н. Русанов номидаги Тошкент Ботаника боғи, Тошкент

Ф.У.Мустафина, б.ф.н., ЎзРФА Ботаника институти ҳузуридаги академик Ф.Н. Русанов номидаги Тошкент Ботаника боғи, Тошкент

Аннотация. *Сўнгги ўн йилликларда антиоксидант бирикмаларнинг табиий манбаларига қизиқиш сезиларли даражада ортди, бу эса уларнинг оксидловчи стресс билан боғлиқ касалликларнинг олдини олиш ва даволашдаги муҳим аҳамияти билан изоҳланади. Антиоксидантлар ҳужайраларни оксидловчи шикастланишдан ҳимоя қилишда муҳим аҳамиятга эга. Айниқса, мия касалликларининг профилактикаси ва давосида антиоксидантлардан фойдаланиш илмий жамоатчиликда катта қизиқиш уйғотмоқда. Ушбу тадқиқотнинг мақсади Ungernia Bunge туркумига мансуб икки тур — Ungernia victoris ва Ungernia sewerzowii (Amaryllidaceae J.St.-Hil.) нинг турли хил ўсимлик материалларида антиоксидант фаолликни қиёсий ўрганишдан иборат.*

Калит сўзлар: *U. victoris, U. sewerzowii, Amaryllidaceae, антиоксидант активлик, DPPH, ABTS, in vitro, ўсимлик тўқималари культураси.*

Аннотация. *В последние десятилетия значительно возрос интерес к природным источникам антиоксидантных соединений, что обусловлено их важной ролью в профилактике и лечении заболеваний, связанных с окислительным стрессом. Антиоксиданты играют ключевую роль в защите клеток от окислительного повреждения. Особый интерес научного сообщества вызывает применение антиоксидантов для профилактики и терапии заболеваний головного мозга. Целью настоящего исследования являлось сравнительное изучение антиоксидантной активности различных растительных материалов двух видов рода Ungernia Bunge — U. victoris и U. sewerzowii (Amaryllidaceae J.St.-Hil.).*

Ключевые слова: *U. victoris, U. sewerzowii, Amaryllidaceae, антиоксидантная активность, DPPH, ABTS, in vitro, культура тканей.*

Abstract. *In recent decades, interest in natural sources of antioxidant compounds has increased significantly due to their important role in the prevention and treatment of diseases associated with oxidative stress. Antioxidants play a crucial role in protecting cells against oxidative damage. In particular, the use of antioxidants for the prevention and treatment of brain diseases has attracted considerable attention from the scientific community. The aim of the present study was to comparatively evaluate the antioxidant activity of different plant materials obtained from two species of the genus Ungernia Bunge — U. victoris and U. sewerzowii (Amaryllidaceae J.St.-Hil.).*

Key words: *U. victoris, U. sewerzowii, Amaryllidaceae, antioxidant activity, DPPH, ABTS, in vitro, plant tissue culture.*

Сўнгги ўн йилликларда антиоксидант бирикмаларнинг табиий манбаларига қизиқиш сезиларли даражада ортди. Антиоксидантлар ҳужайраларни оксидловчи шикастланишдан ҳимоя қилишда муҳим аҳамиятга эга. Айниқса, мия касалликларининг профилактикаси ва давосида антиоксидантлардан фойдаланиш илмий жамоатчиликда катта қизиқиш уйғотмоқда. Тадқиқотлар ушбу бирикмалар нерв ҳужайраларини оксидловчи шикастланишдан ҳимоя қилиши ва яллиғланиш жараёнларини камайтириши мумкинлигини кўрсатади [1, 2]. Кўплаб доривор ўсимликлар фенол бирикмалар, флавоноидлар, алкалоидлар ва терпеноидлар каби турли иккиламчи метаболитларни сақлайди, улар эса кучли антиоксидант хусусиятларга эга. Шу боис доривор ўсимликлар антиоксидант бирикмаларнинг осон топиладиган ва самарали манбаи сифатида қаралмоқда [3, 4]. Масалан, *U. victoris* таркибида галантамин, ликорин, тазеттин ва бошқа алкалоидлар аниқланган. Галантамин Альцгеймер касаллигини даволашда ацетилхолинэстераза ингибитори сифатида кенг қўлланилади [5, 6]. *U. sewerzowii* таркибида эса ликорин, панкратинин, галантамин ва бошқа биологик фаол бирикмалар мавжуд бўлиб, улар тиббиётда муҳим аҳамиятга эга [7]. Шунга қарамай, *Ungernia* туркуми ўсимликларининг антиоксидант фаоллиги ҳақидаги маълумотлар ҳали ҳам чекланган. Аксарият тадқиқотлар асосан алкалоид таркибини ўрганишга қаратилган бўлиб, турли хил ўсимлик материалларининг антиоксидант активлиги кам ўрганилган [8, 9].

Кимёвий таҳлил учун материал тайёрлаш. Тадқиқотлар учун *U. victoris* ва *U. sewerzowii* турларининг турли хил ўсимлик материаллари, жумладан табиий популяциялардан йиғилган ўсимликлар, Ботаника боғи шароитида етиштирилган ўсимликлар, *in vitro* тўқима культураси усули билан олинган регенерантлар, каллус культуралари ва уруғлардан фойдаланилди. Йиғилган ўсимлик материали дастлаб механик аралашмалар дан тозаланди, сўнгра яхши шамоллатиладиган хонада хона ҳароратида доимий массагача қуритилди. Қуритилган намуналар лаборатория тегирмони ёрдамида бир хил кукунсимон ҳолатга келгунча майдаланди.

DPPH radical scavenging assay

Ўсимлик экстрактларининг антиоксидант фаоллиги DPPH (2,2-diphenyl-1-picrylhydrazyl) барқарор эркин радикалини тиклаш усули билан Brand-Williams ва ҳаммуаллифлар (1995) усулига мувофиқ, кичик модификациялар билан аниқланди.

DPPH эритмаси реагентни метанолда 0,1 mM концентрациягача эритиш орқали тайёрланди. 1 мл DPPH эритмасига турли концентрациядаги текширилаётган ўсимлик экстрактидан 1 мл қўшилди. Ҳосил бўлган реакцион аралашма яхшилаб аралаштирилди ва хона ҳароратида қоронғида 30 дақиқа давомида инкубация қилинди. Инкубация тугагандан сўнг эритманинг оптик зичлиги 517 nm тўлқин узунлигида УФ-кўринадиган спектрофотометр ёрдамида ўлчанди. Эритма ранги интенсивлигининг пасайиши ўрганилаётган намуналарнинг DPPH эркин радикалларини нейтраллаш қобилиятини кўрсатди. Антиоксидант фаоллик IC_{50} қиймати кўринишида ифодаланди, яъни эркин радикалларнинг 50 % ини ингибирлаш учун зарур бўлган экстракт концентрацияси сифатида аниқланди. Мусбат назорат сифатида аскорбин кислотаси қўлланилди. Барча ўлчашлар уч такрорда бажарилди.

ABTS radical scavenging assay

Антиоксидант фаоллик, шунингдек, ABTS радикал катионини (2,2′-азино-бис(3-этилбензотиазолин-6-сульфон кислота)) рангсизлантириш усули билан Re ва ҳаммуаллифлар (1999) усулига мувофиқ аниқланди.

ABTS радикал катиони эритмаси 7 mM ABTS эритмасини 2,45 mM калий персульфати эритмаси билан аралаштириш орқали тайёрланди. Антиоксидант фаоллик IC_{50} қиймати орқали ифодаланди, яъни ABTS радикалларининг 50 % ини босиш учун зарур бўлган экстракт концентрацияси сифатида аниқланди. Барча экспериментлар учта мустақил такрорда ўтказилди.

Натижалар ва уларнинг муҳокамаси

Ungernia victoris* нинг турли хил ўсимлик материалларида антиоксидант фаоллиги:** *U. victoris* нинг табиий ва Ботаника боғи шароитида етиштирилган ўсимликлари ҳамда каллус культуралари антиоксидант фаоллик даражаси бўйича сезиларли фарқ қилди. Табиий популяциялар орасида энг юқори антиоксидант фаоллик Nilu (UV_2) ҳудудидан йиғилган намуналарда аниқланди. Ушбу намуна учун DPPH тестида IC50 қиймати 1367,95 µg/mL ни, ABTS тестида эса 533,82 µg/mL ни ташкил этди. Табиий намуналар орасида энг паст антиоксидант фаоллик Sangardak (UV_1) популяциясидан олинган материалда қайд этилди, бу ерда DPPH учун IC50 қиймати 2397,77 µg/mL гача етган, бу ушбу намунада антиоксидант бирикмалар концентрацияси нисбатан паст эканлигини кўрсатади. Бундай фарқлар ўсимликларнинг ўсишидаги экологик шароитлар, жумладан денгиз сатҳидан баландлик, ёритилганлик, ҳарорат режими ва тупроқ таркиби билан боғлиқ бўлиши мумкин. *In vitro* шароитида етиштирилган ўсимликларни таҳлил қилишда қизиқарли натижалар олинди. Sovuqbuloq популяциясидан олинган UV_5 намунаси учун DPPH бўйича IC50 қиймати 1542,79 µg/mL ни ташкил этди, бу худди шу популяциянинг табиий намуналарига нисбатан бироз паст фаолликни кўрсатди. Бу тўқима культураси шароитида метаболик жараёнлар ўзгариши билан боғлиқ бўлиши мумкин, чунки бундай шароитда иккиламчи метаболитлар синтези кўпинча табиий ўсимликлардагига нисбатан фарқ қилади. *In vitro* шароитида олинган пиёзбошлар анча юқори IC50 қийматлари билан тавсифланди, бу эса антиоксидант фаоллик пастроқ эканлигидан далолат беради. Масалан, UV_2_B намунаси учун DPPH бўйича IC50 қиймати 8989,00 µg/mL ни ташкил қилди, бу ўсимликларнинг ер усти органлари кўрсаткичларидан анча юқори. Бу ўсимликларнинг вегетатив органларида кўпроқ фенол бирикмалар ва бошқа антиоксидант компонентлар бўлиши ҳақидаги маълум маълумотларни тасдиқлайди. Каллус культуралари бўйича олинган натижалар табиий ўсимликларга қараганда сезиларли даражада юқори антиоксидант фаолликни намоён қилди. Масалан, UV1_V56 намунаси DPPH бўйича IC50 = 782,59 µg/mL қиймати билан тавсифланди, бу эса барча ўрганилган намуналар орасидаги энг паст кўрсаткичлардан биридир. ABTS тестида ҳам ниҳоятда паст IC50 қийматлари, хусусан 1,84 µg/mL кузатилди, бу каллус тўқималарининг эркин радикалларни нейтраллаш қобилияти юқори эканлигини кўрсатади. Тадқиқот натижалари ***U. victoris нинг каллус культуралари антиоксидант бирикмаларнинг истиқболли манбаи бўлиши мумкинлигини, эҳтимол, тўқима культураси шароитида иккиламчи метаболизмнинг биосинтетик жараёнлари фаоллашиши туфайли эканлигини кўрсатади.

***U. sewerzowii* нинг турли хил ўсимлик материалларининг антиоксидант фаоллиги:** ушбу таҳлил ҳам келиб чиқиши турлича бўлган намуналар ўртасида катта фарқлар мавжудлигини кўрсатди. Ушбу тур *U. victoris* га қараганда юқорироқ антиоксидант фаолликни намоён қилди, бу эса IC50 қийматларининг пастроқ бўлиши билан тасдиқланади. Табиий популяциялар орасида энг яққол антиоксидант фаоллик Beldersay (US_4) ҳудудидан олинган намуналарда қайд этилди. Юқори антиоксидант фаоллик Aksarsay (US_3) популяциясидан олинган намуналарда ҳам кузатилди. Шу билан бирга, Gulkamsay популяциясидан олинган намуналар бироз юқорироқ IC50 қийматларини кўрсатди, бу нисбатан паст антиоксидант салоҳиятдан далолат беради. *In vitro* культура усули билан олинган ўсимликлар ўртача антиоксидант фаолликни кўрсатди. Каллус культуралари *U. victoris* даги каби, антиоксидант фаолликнинг кенг диапазонидаги қийматларни кўрсатди. Уларнинг айримлари етарлича юқори фаоллик билан тавсифланди. Масалан, US3_VK1.0 (10.04) намунаси DPPH бўйича

857,65 μg/mL ва ABTS бўйича ниҳоятда паст — 0,42 μg/mL IC50 қийматларига эга бўлиб, эркин радикалларни нейтраллаш қобилияти жуда юқори эканлигини кўрсатди.

Икки турнинг антиоксидант фаоллигини қиёсий таҳлил қилиш. Натижаларнинг қиёсий таҳлили *U. sewerzowii U. victoris* га нисбатан юқорироқ антиоксидант фаолликка эга эканлигини кўрсатди. Бу аксарият ўрганилган намуналар учун DPPH ва ABTS тестларида олинган IC50 қийматларининг пастроқ бўлишида намоён бўлди. Олинган маълумотлар *Ungernia* туркуми ўсимликларининг антиоксидант фаоллиги географик келиб чиқиш, ўсимлик материали тури ва етиштириш шароитига қараб сезиларли даражада ўзгариши мумкинлигини тасдиқлайди. Антиоксидант бирикмалар нинг айниқса истиқболли манбалари сифатида айрим ҳолларда табиий ўсимликларга нисбатан юқорироқ фаолликни намоён қилган каллус культуралари белгиланди. Тадқиқот натижалари *U. victoris* ва *U. sewerzowii* турларининг юқори биокимёвий салоҳиятга эга эканлигидан далолат беради ва антиоксидант бирикмалар олишда ўсимлик тўқима культураси усулларидан фойдаланиш истиқболли эканлигини тасдиқлайди.

Мазкур иш IL-8624042533-сонли шартнома асосида амалга оширилаётган "*Ungernia victoris* Vved. ex Artjush. *in vitro* тўқима культураси ва регенерант ўсимликлари (микропиёзчалар) таркибидаги биологик фаол моддаларни фармацевтика эҳтиёжлари учун олиш" инновацион лойиҳаси ҳамда ЎзРФА Ботаника институти ҳузуридаги академик Ф.Н. Русанов номидаги Ботаника боғи Биотехнология лабораторияси томонидан 2025–2029 йилларда амалга ошириладиган «Инновацион биотехнология усулларидан фойдаланган ҳолда Тошкент Ботаника боғи i*n vitro* коллекциясини яратиш ва рақамли ҳужжатлаштириш» давлат дастури доирасида бажарилди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Lee, K.H.; Cha, M.; Lee, B.H. Neuroprotective Effect of Antioxidants in the Brain. Int. J. Mol. Sci. 2020, 21, 7152. https://doi.org/10.3390/ijms21197152

2. Lalkovičová, Maria,*; Danielisová, Viera. Neuroprotection and antioxidants. Neural Regeneration Research 11(6):p 865-874, June 2016. | DOI: 10.4103/1673-5374.184447

3. Bhatt, I.D., Rawat, S., Rawal, R.S. (2013). Antioxidants in Medicinal Plants. In: Chandra, S., LATA, H., Varma, A. (eds) Biotechnology for Medicinal Plants. Springer, Berlin, Heidelberg. https://doi.org/10.1007/978-3-642-29974-2_13

4. Akhondzadeh S, Noroozian M, Mohammadi M, Ohadinia S (2003) *Melissa officinalis* extract in the treatment of patients with mild to moderate Alzheimer's disease: a double-blind, randomised, placebo controlled trial. J Neurol Neurosurg Psychiatr 74:863–866

5. Maelicke, A., Samochocki, M., Jostock, R., Fehrenbacher, A., Ludwig, J., Albuquerque, E. X., & Zerlin, M. (2001). Allosteric sensitization of nicotinic acetylcholine receptors by galantamine. Biological Psychiatry, 26, 279–288.

6. Heinrich, M., & Teoh, H. L. (2004). Galanthamine from snowdrop—The development of a modern drug against Alzheimer's disease from local Caucasian knowledge. Journal of Ethnopharmacology, 92, 147–162.

7. Sminova LS, Abduazimov XA, Yunusov SY. About alkaloids of *Ungernia severtzovii*. The structure of unsevin. Reports of the ASc UzSSR, 1964;154(1):171–173. (In Russ.)

8. Ramachandra Rao S., Ravishankar G.A. (2002). Plant cell cultures: Chemical factories of secondary metabolites. Biotechnology Advances, 20(2), 101–153. DOI: https://doi.org/10.1016/S0734-9750(02)00007-1

9. Berkov S., Bastida J., Viladomat F., Codina C. (2009). Alkaloid diversity in species of the Amaryllidaceae family. Phytochemistry Reviews, 8, 293–314. DOI: https://doi.org/10.1007/s11101-009-9121-2

УЎК: 616-056.5 /612.359+ 615.89

ТУРЛИ СТРЕСС ВА ГИПОДИНАМИЯ БИЛАН ЧАҚИРИЛГАН МЕТАБОЛИК СИНДРОМ ШАРОИТИДА КАЛАМУШЛАР ЖИГАРИДАГИ РЕАКТИВ ЎЗГАРИШЛАР, УЛАРНИ ҚОРА СЕДАНА МОЙИ БИЛАН ФИТОКОРРЕКЦИЯ ҚИЛИШ ҲАМДА ЖИСМОНИЙ ЮКЛАМАДАН КЕЙИНГИ МОРФОФУНКЦИОНАЛ ЎЗГАРИШЛАР

А.С. Илясов, б.ф.д., проф., Навоий инновациялар университети, Навоий
Н.Э. ДЖуманова, катта ўқитувчи, мустақил изланувчи, Қорақалпоқ давлат университети, Нукус
Б.Н.Тошмаматов, PhD, доц., Зармед университети Тиббиёт ва биоинженерия институти, Самарқанд

Аннотация. *Алкоголсиз ёғли жигар касаллиги (АЁЖК) семиришга хос бўлган патологик ҳолат бўлиб, у гепатоцитларда ёғ томчилари ортиқча тўпланиши билан намоён бўлади. Бу эса, ўз навбатида, жигар фаолиятини издан чикишига сабаб бўлади. Висцерал семиришни стандарт рационга ўтиш орқали тузатиш қон зардобининг биокимёвий кўрсаткичларини тўлиқ нормаллаштирди, бунда жисмоний юкламалар ушбу жараёнга қўшимча муҳим ҳисса қўшмади. Стандарт рационга қайтилганда жигарнинг гистоархитектоникаси қисман тикланди, аммо органда яллиғланиш инфильтрацияси сақланиб қолди. Стандарт рационни мўътадил жисмоний юкламалар билан биргаликда қўллашда эса жигар гистотузилмасининг янада яққол тикланиши ва органнинг фаол регенерацияси белгилари кузатилди. Шундай қилиб, ёғли гепатозни тузатишнинг энг самарали усули мувозанатлаштирилган рационга ўтишни мўътадил жисмоний юкламалар билан бирлаштириш ҳисобланади.*

Калит сўзлар: *каламушлар, юқори калорияли диета, ёғли гепатоз, жигар метаболизми, семиришни тузатиш, мувозанатлаштирилган овқатланиш, мўътадил жисмоний юкламалар.*

Аннотация. *В настоящем исследовании изучены морфофункциональные изменения печени крыс при метаболическом синдроме, вызванном сочетанным воздействием различных стрессовых факторов и гиподинамии, а также эффективность фитокоррекции с использованием масла черного тмина (Nigella sativa) и умеренной физической нагрузки. Эксперимент выполнен на крысах линии Wistar. Результаты морфологических и морфометрических исследований показали, что сочетание стандартного рациона, масла черного тмина и физических упражнений способствует выраженному восстановлению гистологической структуры печени, уменьшению воспалительных изменений и активации процессов регенерации. Полученные данные свидетельствуют о высокой эффективности комплексного применения фитотерапии и физических нагрузок в коррекции поражений печени при метаболическом синдроме.*

Ключевые слова: *метаболический синдром, печень, масло черного тмина, Nigella sativa, фитокоррекция, гиподинамия, стресс, физическая нагрузка, крысы, морфофункциональные изменения.*

Abstract. *This study investigated the morphofunctional changes in the liver of rats with metabolic syndrome induced by combined exposure to different stress factors and hypodynamia, as well as the effectiveness of phytocorrection using Nigella sativa (black seed) oil together with moderate physical exercise. The experiment was conducted on Wistar rats. Morphological and morphometric analyses demonstrated that the combined application of a standard diet, Nigella sativa oil, and moderate physical activity significantly restored the histological architecture of the liver, reduced inflammatory changes, and enhanced regenerative processes. The findings indicate that phytotherapy combined with physical exercise is an effective strategy for correcting liver damage associated with metabolic syndrome.*

Key words: *metabolic syndrome, liver, Nigella sativa oil, black seed oil, phytocorrection, hypodynamia, stress, physical exercise, rats, morphofunctional changes.*

Кириш. Бугунги кунда аҳоли орасида ортиқча тана вазни ва семириш муаммоларига катта эътибор қаратилмоқда, чунки уларнинг ортиб бориши замонавий дунёда эпидемия тусини олмоқда[1]. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти *(ЖССТ)*нинг 2016 йилги маълумотларига кўра, Ер юзи катта ёшли аҳолисининг 39 %ида ортиқча тана вазни, 13 %ида эса семириш аниқланган ЖССТнинг 2022 йилги маълумотларига кўра, семириш МС, иккинчи тип қандли диабет, артериал гипертензия[2], атеросклероз, алкоголсиз ёғли жигар касаллиги *(АЁЖК)* ва бошқа касалликлар ривожланишининг хавф омили ҳисобланади.

Ортиқча вазн ва семиришнинг асосий сабаби мувозанатлаштирилмаган овқатланиш бўлиб, у таркибида тўйинган ёғ кислоталарига бой ҳайвон ёғлари ҳамда кўп миқдорда тозаланган, осон ҳазм бўладиган углеводлар мавжуд бўлади. Бундай парҳез жигарда метаболик ўзгаришларни келтириб чиқариб, унинг фаолияти бузилишига олиб келиши мумкин[3].

АЁЖК семиришга хос бўлган энг кенг тарқалган патологик ҳолатлардан бири бўлиб, жигар ҳужайралари (гепатоцитлар)да липид томчилари ортиқча тўпланиши билан тавсифланади[4]. Ҳозирги вақтда дунё бўйича АЁЖКнинг тарқалиши 25 %га етган бўлиб, 2030 йилга келиб ушбу ташхис қўйилган беморлар сони 33,5 %гача ошиши кутилмоқда[5].

Касаллик оғирлик даражасига қараб, АЁЖК турли хил гистопатологик кўринишларга эга: оддий стеатоз, алкоголсиз стеатогепатит, фиброз ва цирроз. Оддий жигар стеатози кўп ҳолларда яхши сифатли кечса, алкоголсиз стеатогепатит янада оғир босқичларга — фиброз ва циррозгача ривожланиши мумкин. Бу эса охир-оқибат жигар етишмовчилигига олиб келиб, радикал жарроҳлик даволаш усули — жигар трансплантациясини талаб қилади[6].

Касалликнинг ривожланишининг эрта босқичларида диета билан индукция қилинган кўплаб ўзгаришлар қайтар бўлиши мумкинлигини ҳисобга олган ҳолда, юқори калорияли диетанинг организмга, хусусан, жигарнинг морфофункционал ҳолатига таъсирини бартараф этишнинг эҳтимолий усулларини кўриб чиқиш зарур. Шубҳасиз, жигар метаболизмини меъёрлаштиришга фақат ортиқча калорияли овқатланишдан воз кечиб, калорияси меъёрий бўлган мувозанатлаштирилган рационга ўтиш орқали эришиш мумкин. Шунингдек, мўътадил жисмоний юкламалар соғломлаштирувчи таъсир кўрсатиши ва тана вазнининг камайишига ёрдам бериши маълум.

Бугунги кунда олимлар диққатини нафақат тана вазнини, балки жигар метаболизми ва семириш натижасида бузилган бошқа муҳим ҳаётий жараёнларни ҳам меъёрлаштиришга олиб келиши мумкин бўлган энг мақбул овқатланиш ва жисмоний машқ режимларини ишлаб чиқиш жалб этмоқда[7]. Шу муносабат билан жигар функциясининг тикланишини қуйидаги экспериментал ёндашувлар ҳиссасини баҳолаган ҳолда ўрганиш мақсадга мувофиқ ҳисобланади: юқори калорияли овқатланишдан воз кечиб, стандарт мувозанатлаштирилган рационга ўтиш ва овқатланишнинг турли калорияли шароитида мўътадил жисмоний юкламаларни қўллаш.

Тадқиқотнинг мақсади – турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МС нинг комплекс таъсирида каламушлар жигарида қора седана мойи билан фито коррекция ва жисмоний машқдан кейинги кузатиладиган морфофункционал ўзгаришлар таҳлили ўрганиш.

Тадқиқот материаллари ва усуллари. Тажриба вояга етган Вистар каламушларида ўтказилди. Ҳайвонлар 3 ойлик ёшда тажрибага киритилди.

Овқатланиш хусусиятига қараб ҳайвонлар тасодифий равишда икки асосий гуруҳга ажратилди; Назорат «СтР» *(назорат)* гуруҳи 3 ойлик каламушларга 90 кун давомида яни 6 ойлик булганга кадар стандарт рацион билан озиқлантирилган назорат ҳайвонлар; Тажриба гурухи «СтР» ўсаётган, 3 ойлик каламушларга 60 кун давомида яни 5 ойлик булганга кадар «гиподинамия холатида ЮЁЮУР+шовкин ва ёруглик комплекс таъсир этилган хайвонларга 5 ойлигидан бошлаб «СтР» билан 30 кун давомида гиподинамия холатидан чикарилиб, қора седана мойи фитокоррекцияси билан югуриш кўринишидаги жисмоний юкламалар таъсири тахлил килинди.

I гуруҳ – назорат гуруҳи 6 ойлик (n=14) Ҳар бир 3 ойлик каламуш (n=14) стандарт лаборатория шароитларида, қатъий белгиланган ёруғлик режимида *(ёруғлик/қоронғилик* =

10:14 соат, ёруғлик 8:00 да ёқилиб, 18:00 да ўчирилиб) сақланди. Каламуш кунига 20 г аралаш ем истеъмол қилди: оқсиллар — 24%, ёғлар — 6%, углеводлар — 44% ҳамда тоза сув қабул қилди *(бир каламуш учун суткасига 66,0 ккал, Бирулина и бошқ., 2020).* ҳарорат (22±2) ºС, ҳаво намлиги 60–65%.

II гуруҳ тажриба – уч ойлик *(n=16)* каламушларни 60 кун давомида иммобилизацион стресс фонида кунига 6 г махсус тайёрланган гранулаланган ем берилди *(70% стандарт аралаш емга 30% чўчқа ёғи қўшилган ҳолда);* 6,8 г чўчқа ёғи, 3,6 г оқ қуруқ нон, 3,6 г кунгабоқар уруғи берилди. Бу гурух хайвонлар ҳар иккинчи кунда сув ўрнига тажрибадаги каламушлар 10% фруктоза *(Дена - бананли сок)* эритмасини қабул қилди (*бир каламуш учун суткасига 161,5 ккал).* Шу билан бирга каламушлар табиий ёруғлик ҳамда тунги вақтда 60 Вт қувватли чўғланма лампага тенг ёруғлик берадиган кундузги ёруғлик лампаси билан таъминланган сунъий ёруғликнинг биргаликдаги таъсирига дучор қилинди Шу гурух хайвонларга Стресс модели сенсор дезинтеграция усулида *(аудиоген таъсирлар шароитида).* Акустик таъсир махсус камерада 60 кун давомида ҳар куни 1 соатдан қўлланилди. Қуйидаги схема бўйича амалга оширилди: 1,5 дақиқа электр сирена *(110–115 дБ),* сўнгра 15 дақиқа «Keys ringing» — «калитлар жаранглаши» комплекс камбинацияланган таъсир кузатилиб, тажрибанинг 5 ойлигидан бошлаб 30 кун давомида махсус металл зонд орқали ошқозон ичига седана мойи *(nigella sativa)* юборилган Мўътадил жисмоний юкламалар тредмилда ҳафтасига 5 кун, эрталаб соат 9:00 дан 10:00 гача, оч қоринга, 15 м/мин тезликда 20 дақиқа югуриш кўринишида амалга оширилди [Wang R. et al., 2020] (n=16); Машғулотларнинг умумий давомийлиги 30 кунни ташкил қилди.

Морфологик тадқиқот усуллари. Морфологик таҳлил учун жигарнинг ўнг бўлагидан олинган тўқима бўлаклари криостатда тезкор музлатилди. Экспериментал материал музлатилгандан кейин HM 525 микротом-криостати (Microm, Германия) ёрдамида қалинлиги 4-6 мкм бўлган кетма-кет кесмалар тайёрланди. Криостат кесмалари ҳавода 2–5 дақиқа қуритилди, сўнгра совитилган 96 % этил спиртида фиксация қилинди.

Тўқима тузилишини ўрганиш учун кесмалар умум қабул қилинган усул бўйича гематоксилин-эозин билан бўялди. Гематоксилин-эозин билан бўяш энг кенг қўлланиладиган бўяш усули бўлиб, у барча ҳужайра элементлари ва айрим ҳужайрасиз тузилмаларни аниқлаш имконини беради. Ушбу икки каррали бўяшда гематоксилин (асосий бўёқ) ҳужайра ядроларини, эозин (кислотали бўёқ) эса ҳужайра цитоплазмасини ва камроқ даражада турли ҳужайрасиз тузилмаларни бўяйди.

Статистик таҳлил. Эксперимент натижалари Statistica 10.0 дастури ёрдамида қайта ишланди. Ўрганилган кўрсаткичларнинг тақсимланиши Шапиро–Уилк мезони бўйича текширилди. Маълумотлар нормал тақсимланган ҳолларда параметрик статистик усуллар қўлланилди: натижалар ўртача қиймат ± ўртача қийматнинг стандарт хатоси (M±SEM) кўринишида ифодаланди, гуруҳлар ўртасидаги статистик аҳамиятли фарқлар Стьюдентнинг t-мезони асосида баҳоланди. Статистик аҳамиятли фарқлар Манн–Уитнининг U-мезони бўйича ҳисобланди. $p \leq 0,05$ бўлганда натижалар статистик жиҳатдан ишончли деб қабул қилинди.

Тадқиқот натижалари ва мухокама. Турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСнинг комплекс таъсирида каламушлар жигарида кузатиладиган ўзгаришларни қора седана мойи и ва жисмоний машқ билан фито коррекция «ЮЁЮУР/СтР+югуриш+қора седана мойи» гуруҳида, яъни уч хил коррекцияловчи омил *(стандарт рацион, югуриш ва қора седана мойи)* қўлланилганда, макроскопик текширувда патологик ўзгаришлар аниқланмади: жигар юзаси силлиқ, бир хил тўқ қизил рангда, капсуласи юпқа ва шаффоф эди.


Микроскапияда жигар тўқимаси қонга тўлган ва ўртача зичликка эга бўлди. Морфологик текширувда жигарнинг умумий архитектоникасида ўзгаришлар аниқламади. Айрим соҳаларда синусоидлар кенгайган бўлиб, уларнинг радиал жойлашиши қузатилди. Гепатоцитлар кўпбурчак шаклида бўлиб, ядролари турли ўлчамда ва кариоплазмаси оч рангда эди.

Гематоксилин-эозин билан бўялганда гепатоцитлар цитоплазмаси донадор бўялиб, жигарнинг айрим соҳаларида цитоплазмаси вакуолизацияланган ҳужайралар аниқланди. Кўп ҳолларда икки ядроли гепатоцитлар учради.

Турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСнинг комплекс таъсирида каламушлар жигарида кузатиладиган ўзгаришларни қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекциядан кейинги морфометрик кўрсаткичлар куйдагича: Бўлакчалараро артериянинг ички диаметри 13,0 дан 19,0 мкм гача, унинг девор қалинлиги 6,0 дан 8,0 мкм гача. Жигардаги синусоид капиллярлар ички диаметри 9,0 дан 13,0 мкм гача, синусоидлар девори қалинлиги 2,0 дан 4,0 мкм гача. Жигар бўлакчалараро ўт йўлларининг ички диаметри 4,0 дан 7,0 мкм гача, ўт йулларининг девор қалинлиги 2,0 дан 3,0 мкм га тенг.


Марказий веналар ва портал йуллари, ўзгаришсиз шаклда эди. Марказий веналарда айрим жойларда қоннинг шаклли элементларининг оз миқдорда тўпланиши кузатилди. Якка ҳолларда марказий веналар бироз кенгайган. Паренхимада синусоидлар ва портал йўллари бўйлаб кучсиз диффуз ҳужайрали инфильтрат кузатилди.

Каламушлар жигаридаги марказий венанинг тузилишини турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСнинг комплекс таъсирида каламушлар жигарида кузатиладиган ўзгаришларни қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекциядан кейинги тасирида кузатиладиган морфо-функционал ўзгаришларни 1 – расмда курсатилган.



1 - расм. Каламушлар жигаридаги марказий венанинг тузилишини турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСнинг комплекс таъсирида каламушлар жигарида кузатиладиган ўзгаришларни қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекциядан кейинги кузатиладиган морфо-функционал ўзгаришлар: 1. Синусоид капиллярлар. 3. Диссе бўшлиғи. 4. Гепатацит ҳужайралари. 5. Марказий вена. Гемотоксилин ва эозин бўёқ. Ок. 10 х об.20.

Кламушлар жигари паренхимасининг тузилишини турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСнинг комплекс таъсирида хамда қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекциядан кейинги кузатиладиган морфо-функционал ўзгаришлар 2 - расмда кўрсатилган.



2 - расм. Каламушлар жигари паринхимасининг тузилишини турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСнинг комплекс таъсирида хамда қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекциядан кейинги кузатиладиган морфо-функционал ўзгаришлар: 1. марказий вена. 2. Синусоид капиллярлар. 3. Глиссон капсуласи. 4. Гепатацит ҳужайралари. Гемотоксилин ва эозин бўёқ. Ок. 10 х об.40.

Турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСнинг комплекс таъсирида каламушлар жигарида кузатиладиган ўзгаришларни қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекциядан кейинги жигарнинг марказий вена қон томирининг ички диаметри 58,0 дан 69,0 мкм гача, унинг девори қалинлиги 6,0–9,0 мкм гача. Бўлакчалараро венанинг диаметри 31,0 дан 37,0 мкм гача, унинг томир деворининг қалинлиги 3,0 дан 5,0 мкм гача.

А.А. Басалай[9] фикрича тажрибада ўртача жисмоний юкламалар юкори каллорияли диета билан чақирилган жигарнинг биокимёвий ва морфофункционал кўрсаткичларини кескин даражада мейёрлаштирмаган.

жадвал


Турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСнинг комплекс таъсирида каламушлар жигарида кузатиладиган ўзгаришларни қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекциядан кейинги морфометрик кўрсаткичлар

(M±m)

№	тажриба тури / кўрсаткичлар		Назорат «СтР»	Тажриба
1	марказий вена	ички диаметр	61,1±0,87	62,3±1,01
		девор қалинлиги	7,56±0,26	7,22±0,28
2	бўлакларaро вена	ички диаметр	31,5±0,78	33,7±0,55
		девор қалинлиги	4,00±0,17	3,89±0,18
3	бўлакларaро артерия	ички диаметр	14,6±0,52	15,4±0,55
		девор қалинлиги	7,06±0,17	7,50±0,18
4	синусоид капилляр	ички диаметр	11,3±0,35	11,4±0,37
		девор қалинлиги	3,19±0,17	3,00±0,18
5	ўт йўллари	ички диаметр	4,94±0,17	5,33±0,28
		девор қалинлиги	2,63±0,09	2,72±0,09

Изоҳ: «СтР» -стандарт рацион* p < 0,05 — «назорат гуруҳига нисбатан ишончли (статистик жиҳатдан аҳамиятли) фарқлар»

Mahalakshmi B. et al.,[10] такидлашича ўртача жисмоний фаоллик асаб толалар сезувчанликни оширади марказий ва вегетатив асаб тизимининг фаолиятини узайтириб, синаптик пластиклик, нейрогенез, ангиогенез ва аутофагия каби кўплаб жараёнларни, шунингдек асаб тизимида янги микроконтомирларининг ўсишини рағбатлантиради**.** Маълумки, жисмоний машқлар вақтида скелет мушакларининг қисқариши гуморал омилларни ажратиб чиқаради, улар бошқа мушак бўлмаган органлар билан ўзаро таъсир орқали бутун организм метаболизмини тартибга солади[11].




3 - расм. Турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСда каламушлар жигарида қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекциядан кейинги кузатиладиган морфо-функционал ўзгаришлар: 1. Синусоид капиллярлар. 3. Диссе бўшлиғи. 4. Гепатацит ҳужайралари. 5. Марказий вена. Гемотоксилин ва эозин бўёқ. Ок. 10 х об.20.

Турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСнинг комплекс таъсирида каламушлар жигарида кузатиладиган ўзгаришларни қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекциядан кейинги морфометрик кўрсаткичлар жадвалда курсатилган. Турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСда каламушлар жигарида қора седана мойи ва жисмоний машқ

билан фито коррекциядан кейинги кузатиладиган морфо функционал ўзгаришларни 3 – расмда курсатилган.

Турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСнинг комплекс таъсирида каламушлар жигарида кузатиладиган ўзгаришларни қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекция «ЮЁЮУД/СтД+югуриш+қора седана мойи» гуруҳида АЁЖК ривожланишининг олдини олиш тана вазни ва деполанган ёғ массасининг нормаллашуви ҳисобига, яъни юқори интенсивликдаги ва 30 кун давом этувчи жисмоний юкламалар таъсирида таъминланди. Турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСда каламушлар жигарида қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекциядан кейинги кузатиладиган структуравий ўзгаришлар 4 – расмда курсатилган.



4 - расм. Турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСда каламушлар жигарида қора седана мойи ва жисмоний машқ билан фито коррекциядан кейинги кузатиладиган структуравий ўзгаришлар: 1. Диссе бўшлиғи. 2. Синусоид капиллярлар. 3. Гепатоцит ҳужайралари. Гематоксилин ва эозин бўёқ. Ок. 10 х об.40.

Жисмоний машқлар турли стресс ва гиподинамия билан кечувчи МСнинг комплекс таъсирида каламушлар жигарида кузатиладиган шикастланишларида морфологик ва оксидловчи кўрсаткичларни яхшилади ҳамда тана вазнининг нормаллашишига олиб келди. Эҳтимол, семиришнинг ривожланишига тўсқинлик қилувчи юқори интенсивликдаги ва 30 муддатли жисмоний машқлар ЮЁЮУД/СтД+югуриш+қора седана мойи шароитида жигарнинг морфофункционал кўрсаткичларини нормаллаштиришда самарали ҳисобланади.

Бу таъсирни мувозанатлашган овқатланишга ўтиш билан таққослаш мумкин, чунки ҳар икки ҳолатда ҳам организмнинг оптимал энергетик мувозанати таъминланади. ЮЁЮУД дан стандарт диетага ўтилгандан кейин ўтказилган тажрибаларда қоннинг биокимёвий кўрсаткичлари деярли тўлиқ нормаллашгани ва жигар архитектоникаси сезиларли даражада тикланган, бироқ аъзода яллиғланиш инфильтрацияси белгилари сақланиб қолгани кузатилди.

Тажрибаларда аниқланган муҳим жиҳатлардан бири кўп сонли икки ядроли гепатоцитларнинг мавжудлиги бўлиб, бу стандарт диетага ўтиш ва тредмилда югуриш билан биргаликда жигар паренхимасининг фаол регенерация жараёни кечаётганлигидан далолат беради.

Шундай қилиб, узоқ муддатли *(90 кун)* ЮЁЮУР каламушларида ёғли гепатоз ривожланишига олиб келди, факатгина жисмоний юклама ва рационни ўзгартирмасдан туриб унинг олдини олинмайди факатгина морфо–функционал хусусиятларини қисман қайта тиклайди.

«ЮЁЮУР/СтР+югуриш+қора седана мойи» тажрибасида каламушлар жигарининг умумий архитектоникаси нисбатан тикланди. Стандарт рацион жисмоний юкламалар билан уйғунлаштириш каламушлар жигарининг морфо-физиологик хусусиятларини сезиларли даражада тикланишига олиб келади. Жигар тикланишининг морфо-физиологик белгилари сифатида икки ядроли гепатоцитлар сонининг ортиши билан белгиланади[12].

Каламуш жигаридаги функцияларини меъёрлашувини баҳолаш мақсадида қуйидаги тажрибавий ёндашувларни ўрганиш мақсадга мувофиқдир: ЮЁЮУРли овқатланишдан воз кечиб, стандарт мувозанатлашган рационга ўтиш ҳамда СтР овқатланиш фонида ўртача жисмоний юкламаларни қўллаш билан қора седана мойи истемоли жигар гистоструктурасининг тикланишига сабаб бўлади.

Хулосалар

1. Каламушлар 30 кун давомида стандарт рацион фонида ўртача жисмоний юкламаларни қўллаш ва қора седана мойи истемоли билан жигарда кузатиладиган морфофункционал ўзгаришларни олди олинди.

2. Каламушлар 30 кун давомида стандарт рационга ўтиб, қора седана мойи юбориш ва ўртача жисмоний юклама билан бирга қўллаш жигар гистоструктурасининг тўлиқ тикланишига олиб келади. Жигар тикланишининг морфологик белгиси сифатида икки ядроли гепатоцитлар сонининг кўпайишида намоён булди.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Sarwar R., Pierce N., Koppe S. Obesity and nonalcoholic fatty liver disease: current perspectives. *Diabetes, Metabolic Syndrome and Obesity: Targets and Therapy*, 2018, vol. 11, pp. 533–542. https://doi.org/10.2147/DMSO.S146339

2. Parker R. The role of adipose tissue in fatty liver diseases. *Liver Research*, 2018, vol. 2, no. 1, pp. 35–42. https://doi.org/10.1016/j.livres.2018.02.002

3. Açıkel Elmas M., Atay N., Bingöl Özakpınar Ö., Arbak S., Kolgazi M., Şener G., Ercan F. Exercise high-fat-diet induced liver damage in rats' morphological evaluation of effects of exercise on high-fat-diet-induced liver damage in rats. *Turkish Journal of Gastroenterology*, 2020, vol. 31, no. 9, pp. 626–632. https://doi.org/10.5152/tjg.2020.19638

4. Liu Y., Zhong G.-C., Tan H.-Y., Hao F.-B., Hu J.-J. Nonalcoholic fatty liver disease and mortality from all causes, cardiovascular disease, and cancer: a meta-analysis. *Scientific Reports*, 2019, vol. 9, no. 1, art. 11124. https://doi.org/10.1038/s41598-019-47687-3

5. Abdelmalek M. F. Nonalcoholic fatty liver disease: another leap forward. *Nature Reviews Gastroenterology and Hepatology*, 2021, vol. 18, no. 2, pp. 85–86. https://doi.org/10.1038/s41575-020-00406-0

6. Mahalakshmi B., Maurya N., Lee S.-D., Bharath Kumar V. Possible neuroprotective mechanisms of physical exercise in neurodegeneration. *International Journal of Molecular Sciences*, 2020, vol. 21, no. 16, art. 5895. https://doi.org/10.3390/ijms21165895

7. Kim S., Choi J. Y., Moon S., Park D. H., Kwak H. B., Kang J. H. Roles of myokines in exercise-induced improvement of neuropsychiatric function. *Pflügers Archiv – European Journal of Physiology*, 2019, vol. 471, no. 3, pp. 491–505. https://doi.org/10.1007/s00424-019-02253-8

8. Басалай А.А. Морфофункциональное состояние печени крыс-самцов линии Вистар при диет-индуцированном ожирении и его коррекции// Вес. Нац. акад. навук Беларусі. Сер. мед. навук. – 2022. – Т. 19, № 3. – Б. 308–320. https://doi.org/10.29235/1814-6023-2022-19-3-308-320

9. [1]Ильясов А.С. ДЖуманова Н.Э. Модель жирового гепатоза крыс при высокожировой и высокоуглеводной диеты//"Экономика и социум" №12(139) 2025 121-131, стр

10. [2]Ильясов А.С. ДЖуманова Н.Э. Модель жирового гепатоза крыс при высокожировой и высокоуглеводной диеты // "Экономика и социум" №12(139) 2025. 121-131, стр.

11. Ильясов А.С. ДЖуманова Н.Э. Морфология печени крыс при высокожировой и высокоуглеводной питания //Fundamental fanlarning zamonaviy tibbiyot rivojiga qo'shgan hissasi" Respublika ilmiy-amaliy anjumanining materiallar to'plami, 2025-yil 25-26-mart 137.стр ttps://uzresearch1.uz/index.php/UC/issue/view/18

12. Djumanova N.E., Toshmamatov B.N. Structure of the aortic wall in rats in a diet-induced model of metabolic syndrome// European journal of modern medicine and practice Vol. 5 No. 2 (Feb - 2025) 234-237 https://inovatus.es/index.php/ejmmp/article/view/5210

УЎК 581.9(575.1)

СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҲУДУДИДА ТАРҚАЛГАН *LACTUCA SERRIOLA* L. ТАБИИЙ РЕСУРСЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲОЛАТИ

Р.С.Исмоилов, талаба, Гулистон давлат университети, Гулистон

Аннотация. *Мақолада Сирдарё вилояти ҳудудида тарқалган Lactuca serriola L. турининг тарқалиши, популяцион тузилиши, биологик хусусиятлари ва табиий ресурсларининг замонавий ҳолати таҳлил қилинган. Турнинг вилоятнинг турли экотопларида учраши, популяция зичлиги, ёш таркиби ва ресурс захиралари баҳоланган. Тадқиқот натижалари мазкур турнинг антропоген таъсирларга нисбатан маълум даражада барқарор эканлигини кўрсатди. Шу билан бирга интенсив агроландшафтларда популяциялар сонининг*

камайиш тенденцияси кузатилди. Турнинг табиий ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва муҳофаза қилиш бўйича таклифлар берилган.

Калит сўзлар: *Lactuca serriola, популяция, табиий ресурслар, Сирдарё вилояти, флора, биоэкология.*

Аннотация. *В статье представлены результаты исследования современного состояния природных ресурсов Lactuca serriola L. в Сырдарьинской области. Изучены распространение вида, плотность популяций, возрастная структура и ресурсный потенциал. Установлено, что вид характеризуется высокой экологической пластичностью и способен сохранять устойчивость в условиях антропогенного воздействия. Разработаны рекомендации по рациональному использованию и охране природных ресурсов вида.*

Ключевые слова: *Lactuca serriola, популяция, природные ресурсы, Сырдарьинская область, биоэкология.*

Ko‘mir kulining tarkibida SiO_2 va Al_2O_3 ning sezilarli miqdorda mavjudligi uning alumosilikat tabiatini belgilaydi. Biroq ushbu komponentlarning bir qismi kristall fazalar, xususan, kvars va alyumosilikat minerallari tarkibida bo‘lib, ularning reaktivligi amorf komponentlarga nisbatan past bo‘ladi. Shu sababli ko‘mir kulini NaX seoliti sintezida bevosita xomashyo sifatida qo‘llashdan oldin uning tarkibidagi kremniy va alyuminiy birikmalarini faol holatga o‘tkazish muhim hisoblanadi.

Ko‘mir kuliga NaOH bilan ishqoriy ishlov berish natijasida uning tarkibidagi reaktiv Si va Al komponentlari ishqoriy muhitda qayta tashkil topadi. Mazkur jarayonda kremniyli komponentlarning eruvchan natriy silikat, alyuminiyli komponentlarning esa natriy alyuminat shakllariga o‘tishi uchun sharoit yaratiladi. Natijada dastlabki kulning murakkab mineral tuzilmasi qisman buzilib, seolit sintezi uchun zarur bo‘lgan reaktiv alumosilikat muhit shakllanadi.

NaOH bilan faollashtirilgan ko‘mir kulining strukturaviy holatidagi o‘zgarishlarni XPA yordamida baholash mumkin. Dastlabki ko‘mir kulida mavjud bo‘lgan kristall fazalarning intensivligi ishqoriy ishlovdan keyin kamayishi yoki ayrim fazalarning yo‘qolishi kremniy va alyuminiy komponentlarining ishqor bilan o‘zaro ta’sirlashganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yangi hosil bo‘lgan natriyli alumosilikat birikmalar keyingi gidrotermal bosqichda NaX seolitining kristallanishi uchun boshlang‘ich struktura vazifasini bajaradi.

Ko‘mir kulining NaOH bilan faollashtirilishidan keyingi adsorbsion xususiyatlari ham uning strukturaviy o‘zgarishlarini baholashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Suv bug‘i, benzol va geptan kabi adsorbatlardan foydalanish materialning mikro- va mezog‘ovak tuzilmasidagi o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Dastlabki ko‘mir kulining adsorbsion sig‘imi uning mineral tarkibi, zarracha dispersligi va mavjud g‘ovaklarning tuzilishiga bog‘liq bo‘ladi. NaOH bilan ishlov berish esa mineral komponentlarning qisman erishi va qayta cho‘kishi natijasida sirtning kimyoviy holati hamda g‘ovaklik parametrlarining o‘zgarishiga olib keladi.

Xulosa. Seolitlarni sintez qilish uchun tabiiy minerallardan foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, bu esa ularni keng ko‘lamda sanoat yo‘li bilan ishlab chiqarishga imkon beradi. Yaqin kelajakda seolit sintez qilish usullarini takomillashtirish, sintezda yangi tizimlarni joriy etish arzonroq va samaraliroq katalizatorlar, adsorbentlar yaratishning yangi yo‘llarini ochishga xizmat qiladi. X seolitining amaliy ahamiyatini hisobga olgan holda, uni O‘zbekistonning mineral resurslari asosida o‘rtacha sharoitlarda, kamroq miqdordagi kimyoviy reagentlar ishtirokida sintez qilish, gidrotermal kristallanish jarayonini yanada qulay va tejamkor qilish maqsadini qo‘ydik. Shunday qilib, ushbu tadqiqot O‘zbekistonning mineral resurslaridan foydalangan holda 100% kristall X seolitini sintez qilish texnologiyasini o‘rganish, harorat, ishqorli termal eritmaning konsentratsiyasi, sintez jarayonning tezligi, uning davomiyligi va selektivligiga ta’sirini o‘rganish, shuningdek, seolitni olish uchun maqbul sharoitlarni yaratishga bag‘ishlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Yilmaz, B., Muller, U., 2009. Catalytic applications of zeolites in chemical industry. Top. Catal. 52, 888–895

2. S.V. Vassilev, C.G. Vassileva, A new approach for the classification of coal fly ashes based on their origin, composition, properties, and behaviour, Fuel. 86 (10-11) (2007) 1490–1512.

3. J.L. Kolbe, L.S. Lee, C.T. Jafvert, I.P. Murarka, Use of alkaline coal ash for reclamation of a former strip mine, World of Coal Ash (WOCA) Conference, USA, (2011) , pp. 1–15.

4. J.S. Gaffney, N.A. Marley, The impacts of combustion emissions on air quality and climate – from coal to biofuels and beyond, Atmos. Environ. 43 (1) (2009)

5. A.B. Mukherjee, R. Zevenhoven, P. Bhattacharya, K.S. Sajwan, R. Kikuchi, Mercury flow via coal and coal utilization by-products: a global perspective, Resour. Conserv. Recycl. 52 (4) (2008) 571–591.

6. Auerbach S.M., Carrado K.A., Dutta P.K., 2004. Handbook of Layered Materials. CRC press.

7. Chiang A.S.T., Chao K.J., 2001. Membranes and films of zeolite and zeolite-like materials. J. Phys. Chem. Solids 62, 1899–1910.

8. Cejka J., 2007. Introduction to Zeolite Science and Practice. Elsevier, 1000 AE Amsterdam, The Netherlands.

9. Lakiss L., Gilson J.P., Valtchev V., Mintova S., Vicente A., Vimont A., Bedard, Abdo S., Bricker J., 2020. Zeolites in a good shape: catalyst forming by extrusion modifies their performances. Microporous Mesoporous Mater. 299.

UO'K 548.73

MISNING SIPROFLOKSATSIN BILAN HOSIL QILGAN KOMPLEKS BIRIKMASINING RENTGEN STRUKTURAVIY TAHLILI

A.D.Kudiyarova, dots., Qoraqalpoq davlat universiteti, Nukus
J.M.Ashurov, prof., Bioorganik kimyo instituti, Toshkent
Z.S.Ospanova, o'qituvchi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, Nukus

Annotatsiya. *Maqolada ftorxinolonlar sinfiga mansub siprofloksatsinning mis bilan hosil qilgan kompleks birikmasi rentgen-strukturaviy tahlil yordamida o'rganilgan. Kompleksning molekulyar va kristall tuzilishiga oid asosiy kristallografik parametrlar hamda vodorod bog'larining geometrik ko'rsatkichlari aniqlangan. Olingan natijalar asosida kompleks birikmaning strukturaviy xususiyatlari tavsiflangan.*

Kalit so'zlar: *siprofloksatsin, mis, kompleks birikma, rentgen-strukturaviy tahlil, kristall tuzilish, kristallografik parametrlar, vodorod bog'lari, geometrik parametrlar.*

Аннотация. *В статье представлен рентгеноструктурный анализ комплексного соединения меди с ципрофлоксацином, относящимся к классу фторхинолонов. Определены основные кристаллографические параметры молекулярной и кристаллической структуры комплекса, а также геометрические параметры водородных связей. На основе полученных результатов охарактеризованы структурные особенности комплексного соединения.*

Ключевые слова: *ципрофлоксацин, медь, комплексное соединение, рентгеноструктурный анализ, кристаллическая структура, кристаллографические параметры, водородные связи, геометрические параметры.*

Abstract. *This article presents an X-ray structural analysis of a copper complex of ciprofloxacin, a member of the fluoroquinolone class. The main crystallographic parameters of the molecular and crystal structures of the complex, as well as the geometric parameters of the hydrogen bonds, were determined. Based on the obtained results, the structural characteristics of the complex compound were described.*

Key words: *ciprofloxacin, copper, complex compound, X-ray structural analysis, crystal structure, crystallographic parameters, hydrogen bonds, geometric parameters.*

Bugungi kunda biologik faol birikmalarning biometallar bilan hosil qilgan metallokomplekslarini sintez qilish va ularning fizik-kimyoviy xossalarini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. Bunday komplekslar farmatsevtika va tibbiyotda antibiotik, silga qarshi hamda antibakterial vositalar sifatida muhim ahamiyatga ega.[1]

Sintez qilingan komplekslarning tarkibi va tuzilishini aniqlashda rentgen-strukturaviy tahlil samarali usullardan biri bo'lib, u kristall va molekulyar tuzilish, bog' uzunliklari, bog' burchaklari hamda molekulalararo o'zaro ta'sirlarni aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan, mis (Cu) va siprofloksatsin asosidagi kompleks birikmani sintez qilish, uning tarkibi va strukturaviy xususiyatlarini aniqlash dolzarb hisoblanadi.[2]

Siprofloksatsinning mis bilan kompleks hosil qilishi jarayonida suv molekulalari ham qo'shimcha koordinatsion bog' hosil qilishda ishtirok etishi mumkin. Bunda kislorod atomlarining metall markazi bilan koordinatsion o'zaro ta'siri kompleksning molekulyar va kristall tuzilishini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rentgenostrukturaviy tahlil koordinatsion birikmalarning tuzilishini o'rganishda eng ishonchli va informativ usullardan biri hisoblanadi. Ushbu usul yordamida sintez qilingan birikmalarning individualligi, molekulyar va kristall tuzilishi, atomlarning fazoviy joylashuvi hamda koordinatsion muhitining geometrik parametrlarini aniqlash mumkin. Rentgen difraksion tadqiqotlar natijasida kompleks tarkibidagi metall markazi, ligandlarning koordinatsiyalanish usuli va molekulalararo o'zaro ta'sirlarning xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot olindi.[3]

Olib borilgan kuzatishlar natijasida mis metali va siprofloksatsin asosida $[Cu(HL)_2(C_2H_5OH)_2]\cdot 6H_2O$ tarkibli koordinatsion birikma sintez qilindi hamda uning kristall va

molekulyar tuzilishi rentgenostrukturaviy tahlil usuli yordamida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida kompleksning element tarkibi, koordinatsion muhiti, kristall panjarasining asosiy parametrlari va molekulalararo bog’lanishlari aniqlanib, strukturaviy xususiyatlari tavsiflandi.


Olingan eksperimental natijalar asosida misning siprofloksatsin molekulasi bilan koordinatsiyalanish qonuniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, kompleksning tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari o‘rtasidagi bog’liqlik aniqlanib, uning biologik faol koordinatsion birikmalar sinfiga mansubligi baholandi. Tadqiqot natijalari metallokompleks birikmalarning hosil bo‘lish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga hamda ularning farmatsevtika, bioanorganik va koordinatsion kimyo sohalarida qo‘llanish istiqbollarini aniqlashga xizmat qiladi. Bunday kompleksning olinishiga bo‘lgan qiziqish, ularni biologik sistemalarda sodir bo‘ladigan jarayonlarni modellashtirishda ishlatish mumkinligi bilan izohlanadi.

Siprofloksatsin molekulasidan farqli ravishda etanol molekulasida qo‘shimcha koordinatsion bog’ hosil qilish imkoniyatlari paydo bo‘ldi, ya’ni aralash ligandli kompleks hosil bo‘lishida kislorod atomlari ham qatnashganligi aniqlandi.

Siprofloksatsin $Cu(CH_3COO)_2$ bilan reaktsiyasi natijasida $[Cu(HL)_2(C_2H_5OH)_2]\cdot 6H_2O$ kompleks birikmasi sintezi amalga oshirildi. Uning asimmetrik birligida bitta Cu^{2+} kation va ikkita bir xil zaryadlangan (HL)- anionlar, ikkita etanol molekulasi va oltita suvdan iborat bo‘lgan kompleks birikma hosil bo‘lganligi aniqlandi. Cu^{2+} ioni oktaedrik koordinatsiyaga ega. Bunda ligandning ikkita molekulasi metall ioni bilan donor-aktseptor va ion bog’lari orqali bog’lanib, qo‘shimcha ikkita etanol ligandi bilan esa donor aktseptor holda koordinatsiyalanib oktaedr tuzilishli kompleks hosil qiladi.


$[Cu(HL)_2(C_2H_5OH)_2]\cdot 6H_2O$ kompleksining molekulyar tuzilishi va kristallografik ma’lumotlari 1-rasm va 2-jadvalda keltirildi.

Ekvatorial O2-Cu-O2 va O3-Cu-O3 bog’ uzunliklari va bog’ burchaklari mos ravishda 2.073 Å va 910. HL ligandi gidroksil guruhi va karboksil guruhning koordinatsiyada qatnashgan O atomi orasida ichkimolekulyar vodorod bog’lari yuzaga kelgan. 1-rasmda Cu(II) kation va ikkita bir xil zaryadlangan (HL)- anionlar, ikkita etanol molekulasi va oltita suvdan iborat bo‘lgan mis(II) kompleksining tuzilishi keltirilgan.



1-rasm. $[Cu(HL)_2(C_2H_5OH)_2]\cdot 6H_2O$ kompleksning molekulyar tuzilishi.

Olingan $[Cu(HL)_2(C_2H_5OH)_2]\cdot 6H_2O$ kompleks birikmada tashqaridagi suv molekulasi va koordinatsiyalanmagan karboksilning O atomlari orasidagi ichkimolekulyar (O2···H, O4....H) vodorod bog’lar hisobiga ligand molekulasini barqarorlashtiradi (2-rasm va 1-jadval). Kristall strukturada molekulalar to‘rtlamchi azot va tashqaridagi suv molekulasidagi O atomlari donor-aktseptor zanjirlarini hosil qilib parallel holda C7-H7A···O1iii, N4-H4A···O2ii va N4-H4B···O3ii vodorod bog’lari yordamida bog’langan.



2-rasm. $[Cu(HL)_2(C_2H_5OH)_2]\cdot 6H_2O$ kompleksining vodorod bog'lar tuzilishi.

1-jadval

$[Cu(HL)_2(C_2H_5OH)_2]\cdot 6H_2O$ kristallidagi vodorod bog'lanishlarning geometrik parametrlari

Bog' D−H···A	Masofa, Å			Burchak D−H···A, grad	A atom koordinatasi
	D—H	H…A	D…A	D—H…A	
O2W-H2WB···O2	0.8500	2.0600	2.894(4)	167.00	1-x,2-y,1-z
O3W-H3WA···O1	0.8500	2.3300	3.181(4)	174.00	1-x,1-y,1-z
N3--H3A···O2W	0.8900	1.9300	2.784(4)	161.00	-
N3-- H3B···O3W	0.8900	1.8800	2.703(4)	153.00	-
O1W-H1WA···O2	0.8500	2.5200	3.335(4)	161.00	-x,2-y,2-z
C1-- H1B···O2W	0.9600	1.8300	2.612(8)	137.00	-
C4-- H4B···O2W	0.9700	2.3200	3.151(5)	143.00	1-x,1-y,1-z
C15—H15B···F1	0.9700	2.4600	3.073(4)	121.00	1-x,1-y,1-z
C16 -- H16A···F1	0.9700	2.2100	2.869(4)	124.00	-
C16 --H16B···O4	0.9700	2.4400	3.407(4)	176.00	1-x,2-y,1-z

2-jadval

$[Cu(HL)_2(C_2H_5OH)_2]\cdot 6H_2O$ koordinatsion birikmasining rentgen strukturaviy tahlil natijalarining kristallografik ma'lumotlari

Birikma	$[Cu(HL)_2](C_2H_5OH)_2\cdot 6H_2O$
Brutto-formula	$C_{34}H_{36}CuF_2N_6O_6,(H_2O)_6,C_4H_{12}O_2$
Mr	926.46
Singoniya	Triklin
Fazoviy guruhi	P-1 (No.2)
Eleventar yacheyka parametri *a*, *b*, *c*, Å	9.3771(3) 9.5792(3) 11.1958(4)
β, grad.	87.433(3) 80.693(3) 86.307(3)
V,Å^3	989.76(6)
Z	1
Zichlik, g/sm^3	1.554
Harorat, K	293
Nurlanish, Å	CuKa, 1.54184
Izlash sohasi 2θ (min,max), grad.	4.0, 76.1
Indeks sohasi	-11: 11 ; -12: 11 ; -13: 8
I_{hkl} o'lchash./mustaqil./ R_{int}	7077, 3987, 0.021
Akslar [I> 0,0 σ(I)]	3579
N_{ref}, N_{par}	3987, 278
R, *wR2*, *GOOF*	0.0761, 0.2233, 1.05
Qoldiq zaryad,e/Å^3	-0.82, 2.33

Kompleks birikma sintezi davomida siprofloksatsinning eruvchanligini oshirish va uning Cu bilan koordinatsiyalanish jarayonini jadallashtirish maqsadida etanol qo'shimcha ligand hamda erituvchi komponent sifatida tanlandi. Etanol molekulalarining koordinatsion jarayonda ishtirok etishi metall markazi atrofida qo'shimcha barqarorlashuv hosil qilib, kompleksning kristall tuzilishini shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Turel I., Leban I., Bukovec P. Synthesis, characterization, and crystal structure of a copper(II) complex with quinolone family member (ciprofloxacin): bis(1) – cyclopropyl – 6 – fluoro – 1,4 – dihydro – 4 – oxo – 7 – piperazin – 1 –ylquinoline – 3 – carboxylate) copper(II) chloride hexahydrate // J. Inorganic Biochemistry –1994. – V.56. –P. 273-282.

2. Drevensek P.., Golobic A., Turel I., Poklar N., Sepcic K Crystal structure, characterisation and biological activity of copper(II)-ciprofloxacin ionic compound // Acta Chimica Slovenica.–2002.–V. 49.–P. 857-870.

3. Akitsu T., Itoh T. Polarized spectroscopy of hybrid materials of chiral Schiff base cobalt(II), nickel(II), copper(II), zinc(II) complexes and photochromic azobenzenes in PMMA films // Polyhedron. –2010. –V.29. –P. 477-487.

UDC 678.5

STRUCTURE–RHEOLOGY–TECHNOLOGY RELATIONSHIP IN POLYMER COMPOSITE MATERIALS: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CONTEMPORARY RESEARCH

G.V.Mardonova, PhD student, Navoi State University, Navoi

Annotatsiya. *Polimer-kompozit materiallarning fizik-mexanik va texnologik xossalari ularning tarkibi, fazalararo o'zaro ta'siri, to'ldirgich dispersiyasi va qayta ishlash jarayonida shakllanadigan mikrostrukturaga bevosita bog'liq. Mazkur maqolada polimer-kompozit tizimlarning qovushoqligi, shear-thinning xususiyati, elastik va qovushqoq javobi, saqlanish moduli, yo'qotish moduli hamda strukturaviy barqarorlik kabi reologik ko'rsatkichlarning materiallarni olish texnologiyasidagi ahamiyati qiyosiy tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlar asosida to'ldirgich turi, miqdori, zarracha o'lchami, fazalararo moslik va qayta ishlash sharoitlarining reologik holatga ta'siri umumlashtirildi. Tahlil natijalari reologik ko'rsatkichlar materialning faqat oqimga qarshiligini emas, balki uning mikrostrukturasi, disperslanish darajasi va texnologik qayta ishlanish qobiliyatini ham tavsiflashini ko'rsatdi. Polimer-kompozitlarni olishda tarkib, struktura, reologiya, texnologik rejim va yakuniy xossalarni yagona tizimda baholash samarali metodologik yondashuv sifatida asoslandi.*

Kalit so'zlar: *polimer-kompozit, reologiya, qovushoqlik, viskoelastiklik, mikrostruktura, to'ldirgich, disperslanish, shear-thinning, ekstruziya, texnologik optimallashtirish.*

Аннотация. Физико-механические и технологические свойства полимерно-композиционных материалов непосредственно зависят от их состава, межфазного взаимодействия, степени диспергирования наполнителя и микроструктуры, формирующейся в процессе переработки. В настоящей статье проведён сравнительный анализ значения таких реологических показателей полимерно-композиционных систем, как вязкость, псевдопластическое течение (shear-thinning), упругая и вязкая составляющие отклика, модуль накопления, модуль потерь, а также структурная устойчивость, в технологии получения материалов. На основе анализа научной литературы обобщено влияние типа и содержания наполнителя, размера частиц, межфазной совместимости и условий переработки на реологическое состояние полимерно-композиционных систем. Результаты анализа показали, что реологические параметры характеризуют не только сопротивление материала течению, но также его микроструктуру, степень диспергирования и технологическую перерабатываемость. Обоснована целесообразность комплексной оценки состава, структуры, реологических характеристик, технологического режима и конечных свойств как единой системы при разработке и получении полимерно-композиционных материалов.

Ключевые слова: *полимерный композит, реология, вязкость, вязкоупругость, микроструктура, наполнитель, диспергирование, псевдопластическое течение (shear-thinning), экструзия, технологическая оптимизация.*

Abstract. The physical-mechanical and technological properties of polymer composite materials are directly related to their composition, interfacial interactions, filler dispersion, and the microstructure formed during processing. This article presents a comparative analysis of the technological significance of rheological characteristics of polymer composite systems, including viscosity, shear-thinning behavior, elastic and viscous responses, storage modulus, loss modulus, and structural stability. Based on the scientific literature, the effects of filler type and content, particle

size, interfacial compatibility, and processing conditions on rheological behavior are summarized. The results of the analysis demonstrate that rheological parameters characterize not only the material's resistance to flow, but also its microstructure, degree of dispersion, and technological processability. An integrated assessment of composition, structure, rheology, processing conditions, and final properties in polymer composite manufacturing is substantiated as an effective methodological approach.

Key words: *polymer composite, rheology, viscosity, viscoelasticity, microstructure, filler, dispersion, shear-thinning, extrusion, technological optimization.*

Introduction. Modern polymer composite materials are complex multicomponent systems consisting of a polymer matrix and various functional fillers. Their properties depend not only on the chemical nature of the constituent components, but also on the distribution of filler particles within the matrix, particle size and morphology, interfacial bonding, and the microstructure formed during processing.Polymer composites are produced using extrusion, compounding, injection molding, compression molding, and other forming technologies. During these processes, the material is subjected to shear and extensional deformations of varying intensities. Therefore, rheological properties such as viscosity, elasticity, and relaxation behavior are among the key factors determining the stability of the manufacturing process and the quality of the final product.Most polymer melts exhibit non-Newtonian behavior. Their apparent viscosity decreases as the shear rate increases. This phenomenon, known as shear-thinning, is associated with the orientation of polymer chains along the direction of flow. Such behavior can facilitate extrusion and molding processes at high shear rates.The aim of this article is to summarize, on the basis of scientific literature, the relationships among structure, rheological properties, and technological processing in polymer composite materials and to demonstrate their technological significance.

Literature Review. The rheological behavior of polymer composites is primarily determined by the molecular structure of the polymer matrix. Molecular weight, degree of chain entanglement, and branching influence both viscosity and elastic response. As the mobility of polymer chains becomes more restricted, resistance to flow may increase.When a filler is introduced into a composite system, its rheological behavior becomes more complex. Fu et al. [1] demonstrated that filler efficiency depends not only on filler content but also on particle size, shape, specific surface area, surface chemistry, and interfacial interactions with the polymer matrix. Filler particles can restrict polymer-chain mobility, while particle–particle contacts may form an additional structural network.In layered-silicate polymer composites, rheological properties are particularly sensitive to microstructure. Krishnamoorti and Giannelis [2] observed an increase in low-frequency elastic and viscous moduli with increasing layered-silicate content. This behavior is attributed to the formation of a spatial structural network resulting from particle–particle or polymer–particle interactions.In rheological analysis, the storage modulus characterizes the elastic component of the material, whereas the loss modulus represents its viscous component. An increase in storage modulus may indicate stronger structural interactions within the material; however, it may also lead to greater processing difficulty. The loss modulus, in turn, is associated with flow behavior and internal energy dissipation processes.Krishnamoorti and Yurekli [3] reported that rheological measurements are effective for the indirect evaluation of the mesostructure and dispersion state of polymer–clay nanocomposites. In particular, the elastic response at low frequencies is highly sensitive to the formation of filler networks.Vaia and Giannelis [4] demonstrated that the penetration of polymer chains between the silicate layers in organically modified layered silicates depends on the thermodynamic compatibility between the polymer and the filler. This finding indicates that surface modification can be used to control not only the structure of a composite but also its rheological properties.In multiphase polymer systems, the microstructure continuously evolves during processing. Sundararaj and Macosko [5] established that the size of the dispersed phase depends on component concentration, interfacial tension, and compatibilization. During mixing, both breakup and coalescence of the dispersed phase can occur. The use of compatibilizers reduces interfacial tension and contributes to stabilization of the microstructure.In general, existing studies indicate the following logical relationship: composite

composition determines interfacial interactions; interfacial interactions govern dispersion and microstructure; microstructure affects the rheological response; and rheological behavior determines technological processability and the quality of the final product.

Research Methodology. This study is not experimental in nature; rather, it was conducted using a structured comparative analysis of the scientific literature. Scientific studies addressing the relationships among rheology, microstructure, and technological processing of polymer composite materials were selected for analysis.The sources were selected according to the following criteria: the study had to focus on polymeric or polymer composite materials; rheological parameters such as viscosity, storage modulus, loss modulus, shear-thinning behavior, or other rheological characteristics had to be investigated; and the rheological results had to be related to filler dispersion, microstructure, or processing technology.The analyzed parameters were divided into four groups. The first group included flow parameters such as viscosity, shear stress, and shear rate. The second group comprised storage modulus, loss modulus, and the relationship between elastic and viscous responses. The third group included filler concentration, particle size, dispersion, and interfacial compatibility. The fourth group consisted of technological factors such as temperature, mixing intensity, extruder screw speed, and energy consumption.Viscosity is one of the principal parameters governing the processing of polymer composites. As filler content increases, the number of particle–particle and polymer–particle contacts also increases, which may result in higher resistance to flow. However, different fillers at the same concentration do not necessarily produce the same rheological response. Plate-like, fibrous, or high-specific-surface-area particles may exert a stronger structural effect than spherical particles.As particle size decreases, the total interfacial area increases, and polymer–filler interactions may become stronger. At the same time, the risk of agglomeration increases for very fine particles. Therefore, determining the optimum degree of dispersion is technologically important.Shear-thinning behavior was analyzed separately. A decrease in viscosity at high shear rates facilitates material flow through extruder and die channels. Conversely, the recovery of higher viscosity at lower shear rates helps maintain the geometrical stability of the formed material.When evaluating viscoelastic properties, the relationship between elastic and viscous components was taken into account. An increase in the elastic component may indicate strengthening of the structural network. However, an excessively strong elastic response may complicate processing. Therefore, rheological parameters should not be evaluated individually, but rather as an integrated set of characteristics.Temperature is another major technological factor. As temperature increases, polymer-chain mobility increases and viscosity generally decreases, thereby facilitating processing. However, excessively high temperatures may intensify thermal or thermo-oxidative degradation, leading to a decrease in polymer molecular weight and deterioration of the properties of the final product.Accordingly, the optimum processing regime should be selected within a range that provides sufficient material flowability, effective filler dispersion, structural stability, and minimal thermal degradation.

Results and Discussion. The comparative analysis of the literature showed that the rheological properties of polymer composites are formed at three principal levels.The first is the molecular level, at which polymer molecular weight, entanglement density, and chain architecture play key roles. Changes in molecular structure result in corresponding changes in viscosity and elasticity.The second is the microstructural level. The introduction of fillers gives rise to polymer–filler and filler–filler interactions. When the filler is well dispersed, the interfacial area increases and the rheological response of the composite can change significantly. Agglomeration, in contrast, can lead to structural heterogeneity, flow instability, and the formation of defects in the final product.In layered-silicate systems, an increase in low-frequency elastic response may be associated with the formation of a structural network [2,3]. This indicates that the filler does not merely act as a passive additive but can function as an active component governing composite microstructure.The third is the technological level. Viscosity directly affects extruder pressure, torque, and energy consumption. Excessively high viscosity increases the load on processing equipment. Conversely, excessively low viscosity may reduce dimensional stability and, in certain multiphase systems, decrease dispersion stability.Therefore, there is no universal optimum viscosity value for polymer composites. The optimal rheological state depends on the specific polymer matrix, filler type, processing method, and

final product requirements.According to the results of the analysis, rheological parameters can be regarded as intermediate diagnostic criteria linking composition with the final properties of the material. When composite composition changes, its microstructure and rheological response are among the first characteristics to change. These changes are subsequently reflected in the technological process and in the properties of the final product.From this perspective, testing only the properties of the final product is insufficient when optimizing polymer composite manufacturing technology. Evaluation of the rheological state of raw materials and intermediate compositions can enable the preliminary optimization of technological processing conditions.Rheological monitoring becomes particularly important when recycled polymers and locally available mineral fillers are used. The composition and properties of such raw materials may vary from batch to batch. Rheological control makes it possible to adjust mixing temperature, screw speed, material residence time in processing equipment, and other technological parameters.In general, the following sequence is considered appropriate for the development of modern polymer composites: first, the polymer matrix and filler are selected; their interfacial compatibility is then evaluated. In the next stage, dispersion and microstructure are controlled. Subsequently, the rheological state is determined and an appropriate processing regime is selected. Finally, the physical-mechanical and performance properties of the finished product are evaluated.

In polymer composite materials, structure, rheological properties, and processing technology are closely interrelated. Filler type and content, particle size, degree of dispersion, and interfacial compatibility with the polymer matrix significantly affect the viscosity and viscoelastic response of the composite.Rheological parameters characterize not only the flow behavior of a material but also its microstructure and processing state. Therefore, viscosity, shear-thinning behavior, and elastic–viscous response can be used as diagnostic criteria in polymer composite technology.In optimizing composite manufacturing technology, the objective should not be to achieve either maximum or minimum viscosity. Instead, it is important to establish an optimal rheological state that ensures effective dispersion, stable flow, acceptable energy consumption, and the required quality of the final product.On this basis, it is appropriate to investigate the relationship "composition–interfacial interaction–microstructure–rheological response–processing regime–final property" in an integrated manner during the development of polymer composite materials. This approach can serve as an effective methodological framework for the scientifically grounded design of new composite materials and the optimization of their manufacturing technologies.

REFERENCES:

1. Fu S., Sun Z., Huang P., Li Y., Hu N. Some Basic Aspects of Polymer Nanocomposites: A Critical Review. Nano Materials Science. 2019;1(1):2–30. DOI: 10.1016/j.nanoms.2019.02.006.

2. Krishnamoorti R., Giannelis E.P. Rheology of End-Tethered Polymer Layered Silicate Nanocomposites. Macromolecules. 1997;30(14):4097–4102. DOI: 10.1021/ma960550a.

3. Krishnamoorti R., Yurekli K. Rheology of Polymer Layered Silicate Nanocomposites. Current Opinion in Colloid & Interface Science. 2001;6(5–6):464–470. DOI: 10.1016/S1359-0294(01)00121-2.

4. Vaia R.A., Giannelis E.P. Polymer Melt Intercalation in Organically-Modified Layered Silicates: Model Predictions and Experiment. Macromolecules. 1997;30(25):8000–8009. DOI: 10.1021/ma9603488.

5. Sundararaj U., Macosko C.W. Drop Breakup and Coalescence in Polymer Blends: The Effects of Concentration and Compatibilization. Macromolecules. 1995;28(8):2647–2657. DOI: 10.1021/ma00112a009.

6. Kamkar M. et al. Large Amplitude Oscillatory Shear Flow: Microstructural Assessment of Polymeric Systems. Progress in Polymer Science. 2022;132:101580. DOI: 10.1016/j.progpolymsci.2022.101580.

7. Chandran S. et al. Processing Pathways Decide Polymer Properties at the Molecular Level. Macromolecules. 2019;52(19):7146–7156. DOI: 10.1021/acs.macromol.9b01195

UO'K 615.32:582.9

CISTANCHE SALSA O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA BIOLOGIK FAOLLIGI

Sh.O. Masharipov, tayanch doktorant, Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva
A.D. Matchanov, k.f.d., prof., Bioorganik kimyo instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston respublikasi tuproq iqlim sharoitida tabiiy holda o'sayotgan Cistanche salsa o'simligini ilk marotaba kimyoviy tarkibi va biologik faolligi o'rganildi. Jumladan, yer osti qismi, yer ustki qismi, va gullarining flavonoidlar,*

suvda eriydigan vitaminlar va aminokislotalar miqdori o'rganildi. Cistanche salsa o'simligining tarkibida flavonoidlardan Rabinin, Rutin va Gall kislota o'simlikning hamma qismlarida, Gipolaetin, Izoramietin, Kversitin va Izokversitin esa faqat gullarida mavjudligi aniqlandi. Suvda eriydigan vitaminlardan yer ostki qismida B9 va PP vitaminlari, yer ustki qismida B1, B6, C, B2 vitaminlari, gullarida esa B1, B6, B9, PP, C, B2 vitaminlari mavjudligi aniqlandi. Cistanche salsa o'simligining yer osti, yer usti va gul qismlarining aminokislota tarkibi to'liq o'rganildi va 20 xil aminokislota miqdorlari bilan tahlil qilindi. Ulardan yer ostki qismida Asparagin 3,25mg/g, Glutamin 3,16mg/g va Prolin 6,67mg/g, yer ustki qismida Glutamin 4,07mg/g, Gistidin 6,35mg/g va gul qismida Glutamin 3,21mg/g, Prolin 10,48mg/g miqdorlarda ekanligi isbotlandi. Ilk bora Xorazm va Qoraqalpog'iston sharoitida kimyoviy tarkibi va biologik faolligi o'rganilayotgan Cistanche salsa o'simligining flavonoidlar, vitaminlar va aminokislotalarga boy ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: *Cistanche salsa (C.A. Mey) Bek, flavonoidlar, vitaminlar, aminokislotalar.*

Аннотация. *В статье впервые изучен химический состав и биологическая активность растения Cistanche salsa, произрастающего в естественных почвенно-климатических условиях Хорезмской области и Республики Каракалпакстан. В частности, исследовано содержание флавоноидов, водорастворимых витаминов и аминокислот в подземной, надземной частях и цветках. Установлено, что флавоноиды рабинин, рутин и галловая кислота присутствуют во всех частях растения, а гиполаэтин, изорамиетин, кверцетин и изокверцетин — только в цветках. Из водорастворимых витаминов установлено, что подземная часть содержит витамины B9 и ПФ, надземная часть — витамины B1, B6, C, B2, а цветки — витамины B1, B6, B9, ПФ, C, B2. Проведен всесторонний анализ аминокислотного состава подземной, надземной и цветочной частей растения Cistanche salsa с содержанием 20 различных аминокислот. Было доказано, что подземная часть содержала аспарагин 3,25 мг/г, глутамин 3,16 мг/г и пролин 6,67 мг/г, надземная часть — глутамин 4,07 мг/г, гистидин 6,35 мг/г, а цветочная часть — глутамин 3,21 мг/г и пролин 10,48 мг/г. Впервые установлено, что растение Cistanche salsa, химический состав и биологическая активность которого изучаются в условиях Хорезма и Каракалпакстана, богато флавоноидами, витаминами и аминокислотами.*

Ключевые слова: *Cistanche salsa (C.A. May) Beck, флавоноиды, витамины, аминокислоты.*

Abstract. *The article studies the chemical composition and biological activity of the Cistanche salsa plant, which grows naturally in the soil and climatic conditions of the Khorezm region and the Republic of Karakalpakstan, for the first time. In particular, the content of flavonoids, water-soluble vitamins and amino acids in the underground part, above-ground part and flowers was studied. It was found that the flavonoids Rabinin, Rutin and Gallic acid are present in all parts of the plant, and Hypolaetin, Isoramietin, Quercetin and Isoquercetin are present only in the flowers. Of the water-soluble vitamins, it was found that the underground part contains vitamins B9 and PP, the above-ground part contains vitamins B1, B6, C, B2, and the flowers contain vitamins B1, B6, B9, PP, C, B2. The amino acid composition of the underground, above-ground and flower parts of the Cistanche salsa plant was fully studied and analyzed with 20 different amino acid contents. Of these, it was proven that the underground part contained Asparagine 3.25 mg/g, Glutamine 3.16 mg/g and Proline 6.67 mg/g, the above-ground part contained Glutamine 4.07 mg/g, Histidine 6.35 mg/g and the flower part contained Glutamine 3.21 mg/g, Proline 10.48 mg/g. For the first time, it was found that the Cistanche salsa plant, the chemical composition and biological activity of which are being studied in the conditions of Khorezm and Karakalpakstan, is rich in flavonoids, vitamins and amino acids.*

Keywords: *Cistanche salsa (C.A. May) Beck, flavonoids, vitamins, amino acids.*

Kirish. Hozirgi vaqtda dorivor o'simliklardan olinadigan biologik faol moddalarni o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Bu zamonaviy tibbiyotda flavonoidlar, vitaminlar, aminokislotalar va boshqa biologik faol moddalarning oson hazm bo'ladigan shakllarining eng istiqbolli manbai sifatida qaraladi.

Cistanche salsa (Sho‘rxok sistanxe, Orobanchaceae oilasi) Sharq tabobatida asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan va zamonaviy fitoterapevtikada keng o‘rganilayotgan qimmatli doriivor o‘simlikdir. Uning tarkibidagi feniletanoid glikozidlari (exinakosid, akteosid) va polisaxaridlar yaxshi tadqiq qilingan bo‘lsa-da, so‘nggi yillardagi izlanishlar o‘simlikning flavonoidlar, vitaminlar va aminokislotalarga boy ekanligini, bu birikmalar uning umumiy biologik va farmakologik faolligida (antioksidant, immunostimulyator va metabolik manba sifatida) sezilarli rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda.


Cistanche (*Orobanchaceae)* oilasiga mansub dunyoda 27 tur o‘simlik bo‘lib, asosan shimoliy yarimshardagi qurg‘oqchil yerlar va cho‘llarda, masalan, O‘zbekistonning Qoraqalpog‘iston respublikasida va Xorazm, Buxoro viloyatlarida tarqalgan. *Cistanche* turlari ko‘p yillik parazit o‘simliklarga mansub bo‘lib, ular ko‘pincha cho‘lda o‘suvchi o‘simliklar, masalan, Haloxylon ammodendron, Haloxylon persicum, Kalidium foliatum, Tamarix va boshqa o‘simliklar ildizlariga yopishgan holda o‘sadi [1].

Cistanche salsa o‘simligining botanik taksonomiyasini rossiyalik Karl Anton Meyer (1795-1855) va avstriyalik Bek Gyunter (Gunther Beck 1856-1931) o’rgangan. Shumgiyoh *Cistanche salsa* (C.A. Mey.) Beck [2].

Kimyoviy va farmakologik tadqiqotlar nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan ushbu o‘simlik O‘zbekistonda shu paytgacha aniqsa Xorazm va Qoraqalpog‘iston sharoitida kam o‘rganilgan. O‘zbekistonda 9 turi mavjudligi adabiyotlarda keltirilgan.

Hozirgi vaqtda *Cistanche* shifobaxsh xususiyatlari va keng farmakologik xususiyatlari (antioksidant, yallig'lanishga qarshi, immunostimulyatsion, neyroprotektiv) mavjudligi Xitoy va Yaponiya olimlarining ko'plab tadqiqotlari bilan tasdiqlangan [3].

Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston respublikasining cho‘l sharoitlarida o‘sadigan *Cistanche salsa* dorivor o‘simligidan biologik faol moddalarni (BFM) ajratib olish va dorivor o‘simliklar ishlab chiqarish uchun xom-ashyo manbai sifatida foydalanish imkoniyati uning asosiy tarkibiy qismlarini o‘rganish zarurligini taqozo etmoqda. *Cistanche* o‘simligi dorivorlik xususiyatlarini o‘rganish va ularning tarkibini tahlil qilish natijasida respublikamiz hududida ushbu o‘simlikning oziq ovqat sanoatida o‘rin egallashi va aholi salomatligini saqlash maqsadida o‘simlik bo‘yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqdamiz. Dorivor o‘simlikning farmakologik ta’siri shuningdek, toksiklik ta’sirini bartaraf etish uchun biz o‘simlikning er usti va er osti qismlarining flavonoid tarkibi, vitamin tarkibi va aminokislota tarkibini o‘rganishni maqsadga muvofiq deb bildik.



1-rasm. Xorazm viloyati Tuproqqala tumani va Qoraqalpog‘iston respublikasi To‘rtko‘l tumani cho‘l hududlarida o’sayotgan Cistanche salsa o‘simligi

Flavonoidlar tabiiy mahsulotlarning muhim sinfidir. Xususan, ular meva, sabzavotlar va ayrim ichimliklarda keng tarqalgan polifenol tuzilishga ega bo'lgan o'simlik ikkilamchi metabolitlari sinfiga kiradi [4]. Ular saraton, Altsgeymer kasalligi (AD), ateroskleroz va boshqalar kabi turli kasalliklar bilan bog'liq bo'lgan turli xil qulay biokimyoviy va antioksidant ta'sirga ega [5,6]. Flavonoidlar sog'likka yaxshi ta'sir ko'rsatishning keng spektri bilan bog'liq va turli xil oziq-ovqat, farmatsevtika, dorivor va kosmetika ilovalarida ajralmas komponent hisoblanadi [4]. Buning sababi ularning antioksidant, yallig'lanishga qarshi, antimutagen va antikanserogen xususiyatlari va asosiy hujayra fermentlarining funktsiyalarini modulyatsiya qilish qobiliyati mavjud [4]. Shunday foydali hususiyatga ega bo‘lgan moddalar *Cistanche* o‘simliklarida bugungu kunga qadar deyarli

o‘rganilmagan. Hozirgi kunga qadar *Cistanche* o‘simlik turlaridan terpenoidlar, steroidlar, iridoidlar, fenolik birikmalar va lignanlar ajratilgan [7]. *Cistanche salsa* o‘simligi vitamin va aminokislotalar tarkibi [8] o‘rganilgan. Yaponiya va Xitoy olimlari *Cistanche* o‘simlik turlari organizmga yallig‘lanishga qarshi va antioksidant ta’sirga ega ekanligini va immunostimulyatsiya qiluvchi ta’sirga ega ekanligini isbotladilar [9]. Ehtimol, bu dorivor o‘simlikning dorivor ta’siri nafaqat tarkibidagi biologik faol moddalarga, balki konsentrlangan flavonoidlarga ham bog‘liq bo‘lib, ularning miqdori haqida *Cistanche salsa* o‘simligida deyarli ma’lumot yo‘q.

Cistanche salsa o‘simligi to‘qimalarida suvda eruvchan vitaminlar majmuasi aniqlangan. Spektrofotometrik va xromatografik usullar yordamida o‘tkazilgan tahlillar natijalari ko‘ra suvda eruvchan vitaminlardan askorbin kislotasi (C vitamini) - yuqori miqdorda uchraydi, antioksidant sifatida feniletanoid va flavonoidlarning barqarorligini ta’minlaydi. B guruhi vitaminlari (B1, B2, B6 va B9 - folat kislotasi) - hujayra metabolizmi, fermentativ reaksiyalar va asab tizimi faoliyatida koferment rolini o‘ynaydi [10].

C vitamini suvda eriydigan vitamin bo‘lib, uni yangi meva va sabzavotlardan olish mumkin, asosan oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash muddatini uzaytirish uchun oziq-ovqatda konservantlar sifatida ishlatiladi, antioksidant va inson tanasida immunitet tizimini mustahkamlaydi va klinik jihatdan bosh terisini davolash uchun ishlatiladi [11,12]. Kletchatka tolasi polisaxariddir va to‘g‘ri qabul qilish ichak faoliyatini yaxshilashga, tananing immunitetini tartibga solishga va qon shakari va qon lipidlari darajasini samarali nazorat qilishga yordam beradi [13]. Mikroelementlar inson tanasida kichikroq miqdorda topiladi, ammo tananing normal fiziologik funktsiyalarini saqlab turishda muhim ro‘l o‘ynaydi, masalan, antioksidant mudofaa, immunitet reaksiyasi va yaralarni davolashda ishtirok etish shular jumlasidandir [14]. O‘simlik tarkibidagi har bir metal ionlari tirik organizmlarga muhim ta’sirini ko‘rsatadi.

Cistanche salsa o‘simligida erkin va bog‘langan aminokislotalar profilini aminokislota analizatorlari va HPLC usuli yordamida aniqlash bo‘yicha ko‘plab ishlar olib borilgan. O‘simlik tarkibida 18 dan ortiq aminokislota, jumladan barcha almashtirib bo‘lmaydigan (muhim) aminokislotalar topilgan. Almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar: Leytsin, izoleytsin, valin, lizin, treonin, metionin, fenilalanin va gistidin. Almashtiriladigan va shartli aminokislotalar: Glutamin kislotasi, asparagin kislotasi, arginin, prolin, glitsin, alanin, serin va tirozin.

Aminokislotalarning miqdoriy va biologik ahamiyati

Glutamin va asparagin kislotalari: O‘simlikdagi umumiy aminokislota miqdorining sezilarli qismini tashkil etadi. Ular nerv impulslari o‘tkazilishida (neyrotransmitterlar sintezida) va azot almashinuvida faol qatnashadi [15].

Arginin va Prolin: Arginin azot oksidi (NO) sintezining prekursori bo‘lib, qon tomirlarini kengaytirish va jinsiy hamda reproduktiv faoliyatni yaxshilashda bevosita rol o‘ynaydi. Prolin esa o‘simlikning stressga (sho‘rlanish va qurg‘oqchilikka) chidamliligini ta’minlaydigan osmoprotektor hisoblanadi[16].

Cistanche salsa o‘simligining biologik faolligi faqat uning o‘ziga xos glikozidlariga emas, balki flavonoidlar, vitaminlar va aminokislotalarning o‘zaro sinergetik (bir-birini kuchaytiruvchi) ta’siriga ham bog‘liq. Bu tarkib o‘simlikning tonusni oshiruvchi, antioksidant va metabolizmni yaxshilovchi vosita sifatida ishlatilishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Materiallar va tadqiqot usullari. Bizning tadqiqot ob’ektlarimiz 2026 yil aprel oyida to‘plangan *Cistanche salsa* stolonlarining er osti, er usti va gul qismlari edi. Bu dorivor o’simlikni biz gullash davrida Xorazm viloyati Tuproqqala tumani va Qoraqalpog‘iston respublikasi To‘rtko‘l tumani cho‘l hududidan yig’ib oldik. Yig‘ilgan dorivor o‘simlik tozalandi va stoloni er usti va er osti qismlariga ajratildi, gullari alohida qilib olindi.

*Cistanche salsa*ning flavonoidlar tahlili YuQSX (ВЭЖХ) tomonidan izokratik elyutsiya rejimi va diodli massiv detektori (DAD) yordamida amalga oshirildi. Mobil faza sifatida asetonitril va bufer eritmasi ishlatilgan. Spektral ma'lumotlar 200 dan 400 nm gacha bo'lgan spektral diapazonda o'rganildi.

Xromatografiya shartlari:

Xromatograf - Agilent Technologies 1260

Mobil faza (izokratik rejim) - asetonitril - bufer eritmasi (35:75)

pH=2,92 15-20 min.

In'ektsiya hajmi - 5 mkl.

Mobil fazaning tezligi 0,75 ml/min.

Ustun - Eclipse XDB - C18. 5,0 mkm, 4,6x250 mm.

Detektor - diodli matritsali detektor, to'lqin uzunligi 254, 320, 381 nm

*Cistanche salsa*ning suvda eriydigan vitaminlar tahlili gradient elutsiya rejimi va diodli massiv detektori (DAD) yordamida YuQSX (ВЭЖХ) yordamida amalga oshirildi. Mobil faza sifatida asetonitril va bufer eritmasi ishlatilgan. Spektral ma'lumotlar 200 dan 400 nm gacha bo'lgan spektral diapazonda o'rganildi.

Xromatografiya shartlari:

Mobil faza (gradient rejimi) – asetonitril – bufer eritmasi pH=2,92 (4%: 96%) 0-6 min., (10%: 90%) 6-9 min., (20%: 80%) 9-15., (4% : 96%) 15-20 min.

In'ektsiya hajmi - 10 mkl.

Mobil fazaning tezligi 0,75 ml/min.

Ustun - Eclipse XDB - C18. 5,0 mkm, 4,6x250 mm.

Detektor - diod-matritsali detektor, to'lqin uzunliklari 272, 292, 254, 297, 360 nm.

Erkin aminokislotalarni ajratib olish.

Namunalarning suvli ekstraktidan oqsillar va peptidlarni cho'ktirish sentrifugali stakanlarda amalga oshirildi. Buning uchun 1 ml sinov namunasiga 1 ml (aniq hajm) 20% TXUK qo'shildi. 10 daqiqadan so'ng, cho'kma 15 daqiqa davomida 8000 ayl/m tezlikda santrifugalash orqali ajratildi. 0,1 ml cho'ktirilgan eritma ajratilgan va muzlatilgan holda quritilgan. Gidrolizat bug'landi, quruq qoldiq trietilamin-asetonitril-suv (1:7:1) aralashmasida eritildi va quritildi. Kislota neytrallash uchun bu operatsiya ikki marta takrorlandi. Feniltioizosiyanat bilan reaksiyaga kirishib, Stiven A., Koen Daviel usuli bo'yicha aminokislotalarning feniltiokarbamil hosilalari (FTK) olingan. Aminokislota hosilalarini aniqlash YuQSX (ВЭЖХ) tomonidan amalga oshirildi. YuQSX shartlari: DAD detektorli Agilent Technologies 1200 xromatografi, 75x4,6 mm Discovery HS C18 ustuni. A eritmasi: 0,14 M CH_3COONa + 0,05% TEA pH 6,4, B: CH_3CN. Oqim tezligi 1,2 ml/min, yutilish 269 nm. Gradient %B/min: 1-6%/0-2,5min; 6-30%/2,51-40min; 30-60%/40,1-45 min; 60-60%/45,1-50min; 60-0%/50,1-55min.


Natijalar va muhokamalar. Xorazm viloyati Tuproqqala tumani va Qoraqalpog'iston respublikasi To'rtko'l tumanlari cho'l hududlarida o'sadigan *Cistanche salsa*ning flavonoidlar tarkibi birinchi marta o'rganildi. Analizda namuna sifatida *Cistanche salsa*ning yer ostki qismi, yer ustki qismi va gullari olindi. Natijalar 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval.


Flavonoid analizi natijalari

№	Nomi	Flavonoidlar miqdori, mg/100g								
		Apigenin	**Rabinin**	**Rutin**	**Gipolaetin**	**Izoramietin**	**Gall kislota**	**Giperazid**	**Izokversitin**	**Kversitin**
1	**Cistanche salsa yer ostki qismi**	-	1,131	9,535	-	-	15,232	-	-	-
2	**Cistanche salsa yer ustki qismi**	-	0,135	6,989	-	-	19,328	-	0,288	-
3	**Cistanche salsa guli**	-	0,497	13,115	0,101	0,854	24,161	-	0,380	0,551


Cistanche salsa turida 1-jadvaldan ko'rinib turganidek flavonoidlardan ayrimlari uchraydi. Jumladan o'simlikning yer ustki qismida eng ko'p miqdorda Gall kislotasi 19,328mg/100g, yer ostki qismida 15,232mg/100g, gulida 24,161mg/100g miqdorda, Rutin esa yer ustki qismida 6,989mg/100g, yer ostki qismida 9,535mg/100g va gulida 13,115mg/100g miqdorda ekanligi aniqlandi.



2-rasm. Flavonoid analizi spektri Cistanche salsa yer ostki qismi



3-rasm. Flavonoid analizi spektri Cistanche salsa yer ustki qismi



4-rasm. Flavonoid analizi spektri Cistanche salsa guli


Xorazm viloyati Tuproqqala tumani va Qoraqalpog‘iston respublikasi To‘rtko‘l tumanlari cho‘l hududlarida o’sadigan *Cistanche salsa*ning suvda eriydigan vitaminlar tarkibi birinchi marta o‘rganildi. Analizda namuna sifatida *Cistanche salsa*ning yer ostki qismi, yer ustki qismi va gullari olindi. Natijalar 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval.


Vitamin analizi natijalari

№	Nomi	Vitaminlar miqdori, mg/100g						
		B1	B6	B9	PP	C	B2	B12
1	**Cistanche salsa yer ostki qismi**	-	-	3.102	0.139	-	-	-
2	**Cistanche salsa yer ustki qismi**	0.163	0.756	-	-	11.559	0.294	-
3	**Cistanche salsa guli**	0.435	0.481	2.737	0.432	5.854	0.085	-


Vitamin analizi natijalariga ko'ra 2-jadvalda ko'rsatilganidek, *Cistanche salsa* o'simligining yer ostki qismida eng ko'p B9 vitamini 3.102mg/100g, yer ustki qismida eng k'op C vitamini 11.559mg/100g va gulida ham eng ko'p C vitamini 5.854mg/100g ekanligi aniqlandi.



5-rasm. Vitamin analizi spektri Cistanche salsa yer ostki qismi



6-rasm. Vitamin analizi spektri Cistanche salsa yer ustki qismi



7-rasm. Vitamin analizi spektri Cistanche salsa guli


Xorazm viloyati Tuproqqala tumani va Qoraqalpog‘iston respublikasi To‘rtko‘l tumani cho‘l hududlarida o’sadigan *Cistanche salsa*ning aminokislota tarkibi birinchi marta o‘rganildi. Analizda namuna sifatida *Cistanche salsa*ning yer ostki qismi, yer ustki qismi va gullari olindi. Natijalar 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval.


Aminokislota analizi natijalari.

